O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MARKETING KAFEDRASI

R. Normaxmatov, B.E. Xojikulov

Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish

Ma’ruzalar kursi

Oliy ta’limning 340000 «Biznes va boshqaruv» ta’lim sohasining 5340300 «Marketing», 5341400 «Tovarshunoslik va tovarlarning tijorat ekspertizasi», 810000 «Xizmat ko‘rsatish» ta’lim sohasining 5810800 «Turizm marketingi», 5810600 «Servis (sifat ekspertizasi, xizmat ko‘rsatish va ishlarni sertifikatlashtirish)» yo‘nalishi bakalavriatlari talabalari uchun

Samarqand – 2008

R. Normaxmatov, B.E. Xojikulov. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish. Ma’ruzalar kursi.

Oliy ta’limning 340000 «Biznes va boshqaruv» ta’lim sohasining 5340300 «Marketing», 5341400 «Tovarshunoslik va tovarlarning tijorat ekspertizasi», 810000 «Xizmat ko‘rsatish» ta’lim sohasining 5810800 «Turizm marketingi», 5810600 «Servis (sifat ekspertizasi, xizmat ko‘rsatish va ishlarni sertifikatlashtirish)» yo‘nalishlari bakalavriatlari talabalari uchun

Taqrizchilar: dots. Otamuradov K.A., Karimov M.K.

Marketing kafedrasi professor-o‘qituvchilari yig‘ilishida muhokama qilinib, chop etishga tavsiya etildi (2008 yil 29 fvgust, bayonnoma № 1).

IO‘UB ning 2008 yil «___»_____ №__-sonli bayonnomasi bilan chop etishga ruxsat etildi.

MUNDARIJA

	Kirish……...	**3**
Mavzu 1.	**Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Respublika federatsiyasining tashkiliy tuzilishi va uning vazifalari……..**	**4**
Mavzu 2.	**Iste'molchilarning asosiy huquqlari. Tovarlar to'g'risida ma'lumot……**	**10**
Mavzu 3.	**Iste'molchilarning tovarlar to'g'risida noto'g'ri ma'lumot berilganda va tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo'lishiga talablar qo'yish huquqi……**	**22**
Mavzu 4.	**Nuqsonli tovar sotilganda va ishni bajarish, xizmat ko'rsatishdagi shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste'molchining huquqlari……**	**28**
Mavzu 5.	**Iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash…….....**	**36**
Mavzu 6.	**O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining iste'-molchilar huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati.....**	**46**
Mavzu 7.	**Moliyaviy xizmatlar sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va sud orqali iste'molchilar huquqlarini himoya qilish……**	**53**
Mavzu 8.	**Standartlashtirish, sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonunlarning iste'molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli……**	**59**
Mavzu 9.	**«Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi Qonunning iste'molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli……**	**62**
Mavzu 10.	**Fuqarolar sog'ligini saqlash va xizmatlar sohasida qabul qilingan Qonunlarning iste'molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati…….....**	**67**
Mavzu 11.	**«Fuqarolar sog'ligini saqlash» va «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida» gi Qonunlarning iste'molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli……..**	**75**
	Foydalanilgan adabiyotlar……...	**78**
	Ilova…….....	**79**

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi (1996 yil 26 aprel) qonuni amal qilmoqda. Ushbu qonunda iste’molchilarning huquqlarini har tomonlama huquqiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilab qo‘yilgan.

Biz barchamiz iste’molchimiz. Kundalik turmushda savdo do‘koniga kirganimizda ham, jamoat transportiga chiqqanimizda ham, oshxonaga xo‘randa sifatida tashrif buyurganimizda ham, umuman tovar sotib olganimizda, ishlar, xizmatlardan foydalanganimizda ham iste’molchi huquqlaridan foydalanamiz.

«Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamma iste’molchilar huquqlari va manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash uchun jamoatchilikni keng jalb etish, ichki iste’mol bozorida sifati past, odamlar hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi tovarlar sotilishiga yo‘l qo‘ymaslik ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholining huquqiy va iste’mol madaniyatini oshirishga doir ishlarni faollashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 noyabrdagi 414-sonli «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori e’lon qilindi. Shu qarorning 7-bandida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining barcha ta’lim muassasalari dasturiga iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini o‘rganish bo‘yicha maxsus kurs kiritilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu kursni o‘rganish natijasida talabalar «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning mazmuni, ahamiyati va shu qonunni to‘ldiradigan iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq boshqa qonunlar bo‘yicha ham ma’lum bilimlarga ega bo‘ladilar.

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish asoslari kursi ham boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganiladi.

Mavzu 1. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Respublika federatsiyasining tashkiliy tuzilishi va uning vazifalari

Reja:

1. Respublikamizda «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinish shart-sharoitlari va bu qonunning maqsadlari
2. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Respublika federatsiyasining tashkiliy tuzilishi va uning vazifalari
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002 yil 28 noyabrda qabul qilingan «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorining ahamiyati va bu qarordan kelib chiqadigan vazifalar

1. Respublikamizda «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilish shart-sharoitlari va bu qonunning maqsadlari

Biz barchamiz iste’molchimiz. Har birimiz kundalik turmushda savdo do‘koniga kirganimizda ham, jamoatchilik transportiga chiqqanimizda ham, oshxonaga xo‘randa sifatida tashrif buyurganimizda ham, umuman tovarlar sotib olganimizda, ishlar, xizmatlardan foydalanganimizda ham iste’molchi huquqlaridan foydalanamiz. Iste’molchilar huquqlarining ustivorligi esa asosiy Qonunimiz – Konstitutsiyada o‘z mujassamini topgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabr kuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Asosiy qonun sifatida mamlakatimiz qonunchilik faoliyatini rivojlantirishga va bu sohada erkin ijod qilishga sharoit yaratib berdi. Uni ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi masalalarni hal qilib beruvchi boshqa hamma qonunlarning, shu jumladan, maxsus Qonunlar tizimini tashkil etuvchi Kodekslarning yuridik manbai, poydevori desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ana shu bosh Qonunimizda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari erkinlik va burchlariga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, Konstitutsiyaning 18 moddasida quyidagicha yozilgan: «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldida tengdir». Bosh Qomusimizning VII bobida «Shaxsiy erkinlik va huquq» bo‘yicha moddalar, XIII bobida «Siyosiy huquq» bo‘yicha moddalar, IX bobida «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar» bo‘yicha moddalar, X bobida esa «Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari» bo‘yicha bir necha moddalar keltiriladi. Fikrimizning dalili sifatida 30-moddaning mazmunini keltiramiz. Bu moddada shunday fikrlar berilgan: «O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim». Aynan shu moddaga binoan har bir fuqaroning iste’molchi sifatida ham huquqlari kafolatlanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator Qonunlar tizimi mavjud. Ana shunday Qonunlarning eng asosiylaridan biri 1996 yil 26 aprel kuni qabul qilingan «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni hisoblanadi. Bu Qonunning qabul qilinishiga asosiy zaruriyatni quyidagilarda deb bilish mumkin:

1. Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish uchun faqatgina davlat yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatigina yetarli emas. Buning uchun fuqarolar o‘zlarining Konstitutsion huquq va erkinliklarini tanishlari, fuqarolik burchlarini bilishlari, o‘z haq-huquqlarini talab qilishi va ularni himoyalash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur. Boshqacha qilib aytganda, fuqarolar Konstitutsiya va Qonunlarga amal qilib yashashni hayot tarziga aylantirishlari lozim.
2. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida bozorlarimiz davlat tasarrufida bo‘lmagan korxonalar tomonidan «arzon bo‘lsa bas» qabilida ish tutib keltirila boshlandi. Ko‘pchilik hollarda magazinlarda sotilayotgan tovarlar qalbakilashtiriladi.
3. Uchinchidan, bozorda muvaffaqiyatga erishish garovi, yuksak texnologiya asosida yuqori sifatli xalq iste’mol tovarlari ishlab chiqarish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va me’yoriy hujjatlarning jahon andozalariga mos kelishini ta’minlash talab etiladi. Aynan shu tamoyillar iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq qator Qonunlarni ishlab chiqishga turtki bo‘ldi.

2. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Respublika federatsiyasining tashkiliy tuzilishi va uning vazifalari

«Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilingandan so‘ngra Respublikamizda O‘zbekiston Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi tashkil etildi va uning Ustavi federatsiyaning navbatdan tashqari 2003 yil 17 yanvardagi Konferensiyasida qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar bilan tasdiqlandi.

O‘zbekiston Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi O‘zbekiston Respublikasidagi Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlarining ixtiyoriylik asosida tashkil etiladigan, o‘zini-o‘zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilotidir.

Federatsiyaning tashkiliy tuzilmasi. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish tuman va shahar jamiyatlari, shuningdek jamiyatlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududiy birlashmalari Federatsiya ishtirokchilari hisoblanadilar.

Federatsiya maqsadlarini qo‘llab-quvvatlovchi boshqa tashkilotlar ham federatsiya qatnashchilari sifatida uning tarkibiga kirishlari mumkin. Ular bilan munosabatlar qonunchilikda belgilangan tartibda shartnoma asosida o‘rnatiladi.

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish tuman va shahar jamiyatlarining tuzilmasi asosi bo‘lib muhallalar, uy-joy mulkdorlari, bozorlar, korxona va tashkilotlarda jamotatchilik asosida faoliyat ko‘rsatadigan tayanch guruhlari hisoblanadi. Tayanch guruhi uch kishidan kam bo‘lmagan holda tuziladi.

Federatsiyaning asosiy vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari va huquqlari

Federatsiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholi o‘rtasida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlarini keng targ‘ib qilish;
- iste’molchilar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- ichki bozorda sotilayotgan iste’mol tovar (ish, xizmat)larning, sifatini va xavfsizligini, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining boshqa talablarini ta’minlash bo‘yicha monitoringlarini o‘tkazish;
- aholining iste’mol madaniyatini oshirishga dori ma’rifiy ishlarni olib borish;
- iste’molchilar huquqlarini himoya qilishning ta’sirchan mxanizmlarini yaratishda davlat boshqaruvi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nazorat qiluvchi organlar bilan birgalikda ish olib borish va o‘zaro hamkorlik qilish.

Federatsiyaning faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- Respublikada iste’molchilar haq-huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qabul qilingan barcha qonun, qaror va farmonlarning ijrosini ta’minlash uchun boshqaruv organlariga yaqindan ko‘maklashish;
- qonun hujjatlarini o‘rganish bo‘yicha turli seminarlar, o‘quv markazlarini tashkil etish, suhbat va uchrashuvlar o‘tkazish, aholi o‘rtasida turli ommaviy tadbirlar uyushtirish;
- aholining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa manfaatlarini himoyalashga doir tadbir va takliflarni ishlab chiqish, davlat, boshqaruv va nazorat organlariga murojat etish va ularni hayotga tadbiq etishda bevosita ishtirok etish;
- seminarlar, simpoziumlar, konferensiyalar uyushtirish;
- xalqaro mutaxassis va ekspertlar ishtirokida turli xil loyiha va dasturlar yaratish;
- tovar ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, ijrochi, xizmat (ish) ko‘rsatiuvchilar tomonidan iste’molchilar huquqlari buzilishining oldini olish, huquqlar buzulganda vakolatli davlat, boshqaruv, nazorat va huquq-tartibot idoralari, sudlarga murojaat etib, yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni aybdorlar tomonidan to‘la qoplashga erishish;
- mahsulotlar, turli xizmatlarning sifati va sertifikatsiya darajasi bo‘yicha aholini va manfaatdor tashkilotlarni muntazam xabardor qilish;
- iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga doir statistik va boshqa turdagi axborotlarni yig‘ish hamda tahlil etish tizimini shakllantirish;
- nomativ hujjatlar, tovar (ish, xizmat)lar sertifikatsiyasi va ekspertiza xulosalari bilan aholini muntazam ravishda tanishtirib borish;
- noto‘g‘ri reklamalardan aholini ogohlantirish hamda ularni himoya qilish;
- mahsulot va xizmat turlari, sifati, ularning xavfsizlini ta’minlash uchun federatsiya va uning tuzilmalari tarkibida mustaqil, turg‘un va ko‘chma ekspertizalarni tashkil etish;
- aholining hayoti, sog‘ligi, mol-mulki va atrof-muhitga xavf tug‘diruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishni taqiqlashga erishish;
- iste’molchilarning huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida xabarnomalar, varaqalar, plakatlar, o‘quv vositalari, ommabop kitoblar chiqarish;

- aholi o‘rtasida turli usullar, jumladan anketalar tarqatish orqali so‘rovlar o‘tkazish;
- xalqaro jamoat tashkilotlari, jamg‘armalari va uyushmalari bilan tajriba almashish, hamkorlik qilish, ular bilan shartnoma va bitimlar tuzish. Shuningdek, iste’molchilarning xalqaro harakatida ishtirok etish;
- yuridik maslahat markazlari va klinikalar ta’sis etish;
- jismoniy va yuridik shaxslarga maslahat va axborotlar berish;
- sud ishlarida da’vogar sifatida qatnashish va hokazo.

Federatsiyaning huquqlari quyidagilardan iborat:
- iste’molchilar huquqlarini himoya qilish borasida jamoyat nazoratini amalga oshirish;
- iste’molchilar manfaati yuzasidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga murojaat qilish va takliflar kiritish;
- o‘z a’zolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;
- iste’molchilar huquqiga taalluqli me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqarishda qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etish;
- iste’molchilar manfaatida uy-joy qurilish, loyiha-konstruktorlik, baholash va yakka tartibdagi loyihalarni ishlab chiqish;
- iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va targ‘ibot qilish maqsadida monitoringlar, ijtimoiy so‘rovlar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;
- o‘z ramziy belgilarini ta’sis etish;
- ommaviy axborot vositalarini ta’sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini oshirish;
- o‘z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig‘ilishlar, konferensiyalar o‘tkazish;
- mulkiy huquqqa egalik qilish, o‘z mol-mulkini sotish, almashtirish, sotib olish, balansiga olish va chiqarish hamda ijaraga berish;
- Federatsiya qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002 yil 28 noyabrda qabul qilingan «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorining ahamiyati va bu qarordan kelib chiqadigan vazifalar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002 yil 28 noyabrda qabul qilingan №414 «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori iste’molchilar huquqlari va manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etdi. Xususan bu qaror bo‘yicha quyidagilar ko‘zda tutiladi:

1. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Federatsiyasi tashkil etilganligi e’tirof etildi va aholi o‘rtasida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlarini keng targ‘ib qilish vazifasi yuklatildi.

2. Shu qaror asosida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etilishiga ruxsat etildi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi huzurida Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish ijtimoiy harakatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etilishiga ruxsat etildi.

Bu qarorda belgilanishi bo‘yicha iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan solinadigan hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Narxlarni boshqarish jamg‘armasiga o‘tkaziladigan jarimalarning 50 foizi, shuningdek xalqaro tashkilotlarning, O‘zbekiston Respublikasining ham rezidentlari, ham norezidentlari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag‘lari, qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa tushumlar Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish ijtimoiy harakatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashni jamg‘armasini shakllantirishning asosiy manbalari hisoblanadi.

4. Mazkur qaror bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini quyidagi 2 holatda qo‘pol ravishda buzganda oldindan yozma ko‘rsatma bermasdan jarima solishlariga ruxsat etildi:

1-holat. Iste’molchiga tovar qiymati ko‘rsatilgan, tovarning harid qilinganligini yoki ishlarga haq to‘langanligini tasdiqlovchi kassa, tovar cheklari va boshqa hujjatlarni bermasdan tovarlar sotilgan yoki xizmatlar ko‘rsatilgan hollarda.

2-holat. Yaroqlilik muddati ko‘satilmagan yoki yaroqlilik muddati o‘tib ketagan tovar qabul qilingan yoxud sotilganda.

5. O‘zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zdavstandart agentligiga bu jamiyatga yordam ko‘rsatish borasida ko‘rsatmalar berildi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Idoralararo kengash bilan birgalikda 2003/2004 o‘quv yilidan boshlab belgilangan tartibda respublikaning barcha ta’lim muassasalari dasturlariga iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini o‘rganish bo‘yicha maxsus kurslari kiritish taklifi berildi va hokazolar.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. Respublikamizda «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?
2. «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishiga asosiy zaruriyat nima edi?
3. «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Respublika federatsiyasi qachon tashkil etildi?
5. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Respublika federatsiyasining tashkiliy tuzilmasini tushuntirib bering.
6. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Respublika federatsiyasining asosiy vazifalari nimalar?
7. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Respublika federatsiyasining asosiy huquqlari nimalardan iborat?
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002 yil 28 noyabrda qabul qilingan «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorining ahamiyatini tushuntirib bering.

Mavzu 2. Iste’molchilarning asosiy huquqlari. Tovarlar to‘g‘risida ma’lumot.

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunida qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar va ularning mazmuni.
2. «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun bo‘yicha iste’molchilarning asosiy huquqlari.
3. Iste’molchining tovar (ish, xizmat)lar to‘g‘risida ma’lumot olish huquqi.

1. O‘zbekiston Respublikasi «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar va ularning mazmuni.

1. Ma’lumki, har qanday qonunda muayyan o‘ziga xos atamalar, iboralar mavjud bo‘ladi. Ko‘p hollarda turmushda ushbu iboralar va atamalar turli mazmun kasb etishi va turlicha ma’noda talqin etilishi mumkin. Bu esa qonunlar mazmunini to‘g‘ri anglab yetish va ularni ijro etishga xalaqit beradi. Xuddi shu sababli «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 1 – moddasida ushbu qonunda qo‘llanilgan asosiy tushunchalarga ta’rif beriladi.

2. «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 1 – moddasida iste’molchi tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: iste’molchi – foyda chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsiy iste’mol va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan fuqaro (jismoniy shaxs) hisoblanadi. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, faqatgina jismoniy shaxs iste’molchi bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksi 16-moddasiga asosan jismoniy shaxs deganda, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarorlari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. Jismoniy shaxs huquq sub’ekti sifatida qanday belgilarga ega bo‘lishi kerak, degan savol tug‘ilishi mumkin. Ma’lumki, fuqaro muayyan majburiyat munosabatlarida qatnashish, yirik summalarda bitimlar tuzish uchun muomala layoqatiga ega bo‘lishi kerak. Biroq, iste’molchi maqomini olish uchun hech qanday muomala layoqati talab etilmaydi. Fuqaroning huquq layoqatiga ega bo‘lishi kifoya. Fuqarolik kodeksining 17-moddasiga asosan, fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Bu o‘rinda shuni ham e’tirof etish lozimki, jismoniy shaxsnigina iste’molchi sifatida tan olish zamirida chuqur ma’no yotadi. Har qanday jismoniy shaxs eng avvalo, biologik mavjudot, u yashashi, hayot kechirishi uchun oziq – ovqat, qiyim – bosh, turarjoy va shu kabilarni iste’mol qilishi va ulardan foydalanishi shart. Uning bu ehtiyojlari faqat kishilik jamiyatida qondirilishi mumkin.

Ayni vaqtda inson sotsial mavjudot ham, u shaxs sifatida jamiyatda, fuqaro sifatida davlatda harakat qilish uchun muayyan ijtimoiy xizmatlarga, tovarlarga, bilim va axborotlar olishga, transport, kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va shu kabilarga ehtiyoj sezadi.

Jismoniy shaxsning biologik va sotsial mavjudot sifatidagi ehtiyojlari bu ehtiyojlarni qondirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbuni qondirmay turib, barkamol insonni, shaxsni, fuqaroni shakllantirib bo‘lmaydi. Shu sababli ham insonning moddiy, maishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish – bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifadir. Aslini olganda, jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlar, iqtisodiy tuzilmalar inson mavjudligi uchun bor va unga xizmat qiladi. Insonning moddiy, maishiy, ma’naviy ehtiyojlarini qondirishdan inson ham, jamiyat ham teng darajada manfaatdordir. Ayni paytda bu ehtiyojlarni qondirish shunchaki oddiy, jo‘n jarayon emas. Agar taraqqiyotning tarixiy bosqichlarida rivojlanmagan natural xo‘jalik ustuvorlik qilgan davrlarda inson o‘z ehtiyojlarini asosan o‘zi qondirgan bo‘lsa, bugungi kunda u bunga qodir emas. Chunki, birinchidan, inson ehtiyojlari doirasi kengaydi, ikkinchidan, har qanday tovar, ish, xizmat uni tayyorlovchi yoki amalga oshiruvchidan maxsus malaka va bilim talab etadi. Eng asosiysi shundan iboratki, inson o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun har kuni o‘nlab tovar ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va ish bajaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar bilan huquqiy munosabatlarga kirishadi. Bu huquqiy munosabatlarning pirovard maqsadi insonning moddiy, ma’naviy va maishiy ehtiyojlarini to‘la va samarali qondirish hisoblanadi. Demak, bunday holatda, tovarlar, ishlar, xizmatlardan bevosita o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadigan shaxs alohida huquqiy maqomga ega bo‘lishi lozim. Qonunda iste’molchi huquqiy maqomi shaxsiy iste’mol va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘llgan fuqaroga berilishi belgilab qo‘yilgan. Agar fuqaro tadbirkorlik maqsadida (qayta sotish maqsadida) tovar sotib olsa, u iste’molchi hisoblanmaydi. Tovar shaxsiy iste’mol maqsadida emas, balki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda (masalan, shaxsiy tomorqasida foydalanish uchun) sotib olingan hollarda ham unga iste’molchi maqomi berildi. Shu sababli ham yakka

tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan fuqaro iste’molchi bo‘lmaydi, deyish noto‘g‘ri hisoblanadi. Yakka tadbirkor shaxsan iste’mol qilish uchun tovarlar sotib olgan, ish va xizmatlardan foydalangan holda, u iste’molchi hisoblanadi. Aynan vaqtda shunday huquqiy munosabatlar borki, bunday munosabatlarda ishtirok etgan jismoniy shaxs (yakka tadbirkor) iste’molchi maqomini ola olmaydi. Masalan, mahsulot yetkazib berish shartnomasi, kontraktatsiya shartnomasi, korxonani ijaraga olish shartnomasi, franshizing (kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi) shartnomasi va shu kabilar. Ushbu shartnomalar o‘z mohiyatiga ko‘ra tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda tuziladigan shartnomalardir.

FK 425-moddasining 1-qismida ham iste’molchi tushunchasi mazmunini ochib beruvchi belgilar mujassamlashgan. Unga ko‘ra fuqaro chakana oldi-sotdi shartnomasi orqali shaxsiy maqsadlar, ro‘zg‘orda yoki tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda tovar sotib olganda ham iste’molchi hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi – iste’molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki xususiy tadbirkor;

Ijrochi – maishiy xizmat, uy-joy-kommunal, ta’mirlash-qurilish, transport xizmati va xizmat ko‘rsatishning boshqa sohalarida shartnoma bo‘yicha iste’molchi uchun ishlar bajaradigan yoki xizmatlar ko‘rsatadigan korxona, tashkilot, muassasa yoki xususiy tadbirkor;

Sotuvchi – oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha iste’molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxona, tashkilot, muasasa yoki xususiy tadbirkor;

Shartnoma – tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to‘g‘risida iste’molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o‘rtasidagi og‘zaki yoki yozma kelishuv;

Tovar – ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste’molchiga shartnoma bo‘yicha sotish uchun mo‘ljallangan mahsuli, shu jumladan import mahsuloti;

Normativ hujjatlar – standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (qurilish normalari va qoidalari, dori-darmonlar xususidagi davlat farmokopeyasi hamda muvaqqat farmokopeya qoidalari va boshqalar), texnik shartlar, texnik tavsiflar, reseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsizligiga nisbatan belgilangan talablarni o‘z ichiga oluvchi boshqa hujjatlar;

Tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi – tovarni iste’mol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog‘liq xavf-xatarning yo‘qligi;

Muvofiqlik sertifikati – sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

Tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni – tovar (ish, xizmat) va normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovarlar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo‘yiladigan talablarga nomuofiqligi;

Tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni – tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bo‘lmaydigan qilib qo‘yadigan yoxud bartaraf etish uchun ko‘p mehnat va vaqt sarflash talab qilinadigan kamchilik;

Kafolat muddati – tovardan (xizmatdan) foydalanishning (oylar hisobidagi) normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, necha ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o‘tib va h.k.) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddati bo‘lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish (xizmatdan foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bo‘lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta’minlaydi;

Xizmat muddati – tovardan foydalanishning belgilangan muddati bo‘lib, u tamom bo‘lgach, tovarning texnik holatidan qat’i nazar, undan foydalanish to‘xtalishi lozim;

Yaroqlilik (saqlash) muddati – muayyan davr bo‘lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo‘ladi va u tamom bo‘lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog‘lig‘i uchun xavf tug‘dirishi mumkin;

Kassa cheki – tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to‘langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to‘langan sana va kassa apparatining nomeri ko‘rsatilgan hujjat;

Tovar cheki – tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to‘langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to‘langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma’lumot ko‘rsatilgan hujjat.

2. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun bo‘yicha iste’molchilarning asosiy huquqlari

Iste’molchilarning asosiy huquqlari mazkur qonunning 4-moddasida o‘z aksini topgandir. Bu moddada keltirilishicha iste’molchilar quyidagi huquqlarga ega:

1. Tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot olish;
2. Tovar (ish, xizmat) ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo‘lishi;
3. Tovar (ish, xizmat) ning xavfsiz bo‘lishi;
4. Hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo‘lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g‘ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma’naviy zararning to‘liq hajmda qoplanishi;
5. Buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so‘rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;
6. Iste’molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Qonunda aytib o‘tilganidek iste’molchilarning asosiy va muhim huquqlaridan biri bu ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida o‘z vaqtida zarur, to‘g‘ri va tushunarli ma’lumot olish huquqidir. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda tovar (ish, xizmat) haqidagi ma’lumot

muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u tovar, ish va xizmatni erkin tanlash tamoyilidan kelib chiqadi (bu haqda batafsil qonunning 5, 6-moddalariga berilgan sharhlarga qaralsin). Ammo ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, iste'molchilarga kerakli tovarni ob'ektiv tanlash imkoniyatini beruvchi to‘liq, haqqoniy ma'lumotni, odatda, bermaydilar. Zero, bunday ma'lumotning iste'molchiga berilishi ularning «manfaatlari (odatda, noqonuniy manfaatlari)ga» putur yetishiga olib kelishi mumkin. Iste'molchilarning asosiy huquqlaridan biri bo‘lmish yuqorida izoh etilgan iste'molchilarning tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to‘g‘ri va to‘liq ma'lumot olish huquqi o‘z mohiyatiga ko‘ra, iste'molchilarning yangi boshqa huquqini yuzaga keltiradi. Bu huquq iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasi haqida bilim olishga bo‘lgan huquqidir.

Iste'molchilarning asosiy huquqlaridan yana biri bu tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlashga bo‘lgan huquqidir. Iste'molchi o‘ziga kerak bo‘lgan tovarni sotib olishi hamda ish, xizmatga buyurtma berishi mumkin. U o‘z xohish-irodasidan kelib chiqqan holda, hech kimning majburlovi, undovisiz o‘zining ehtiyojlari uchun maqbul va kerakli bo‘lgan tovar (ish, xizmat)ni o‘zi xohlagan savdo yoki xizmat ko‘rsatish korxonasidan erkin tanlagan holda sotib olish, buyurtma berish yoki uning natijasidan foydalanish huquqiga egadir.

Qonunda normalangan iste'molchining asosiy va muhim huquqlaridan biri, bu ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)lar tomonidan iste'molchilarga taqdim etilayotgan tovar (ish va xizmat)lar natijalarini tegishli darajada sifatli bo‘lishiga bo‘lgan huquqidir. Qonunda iste'molchining tovar (ish, xizmat) sifatini tekshirish huquqi o‘z aksini topgan (Qonunning 8-moddasi, 5-qismi). Tovar (ish, xizmat)ning tegishli darajada sifatli bo‘lishiga nisbatan talablar birinchi galda ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ga qaratilgandir. Shu o‘rinda «sifat» degan iborani talqin etib o‘tish joiz. Ko‘plab olimlar unga turlicha ta'rif berishgan. Jumladan, Aristotel fikricha, «sifat shunday mavjud turga xos alomatki, u bir mavjudlikni, uning turiga xosligini boshqa mavjudlikdan, xudi shu turga kiruvchidan ajratadi», ya'ni «narsalarni taqqoslab baholashga oid xususiyatdir». Gegel esa, «shunday narsalar borki, o‘zining sifatiga qarab borligini tasdiqlaydi», deb ta'kidlaydi. Bundan to‘rt asr ilgari ingliz geografi va tarixchi olimi R. Gaklyut eksportyorlarga qarata: «…sizning mahsulotlaringiz sifati ishonchliligi, boshidanoq sizning mahsulotingizga nisbatan ishonch uyg‘otadi, ammo o‘z vaqti bilan soxta va yolg‘on mahsulotlar bu ishonchni yo‘qotib, sizga sizning mahsulotlaringizga nafrat hamda obro‘sizlanishni unutmang» deb tuvsiya etgandi. Sifatni: «Sifat – muhim belgi, xususiyat bo‘lib bir predmetni ikkinchi predmetdan ajratish imkonini yaratadi»; «sifatlilik – sifati yaxshi, ehtiyojlarni qondiruvchi» deb sharxlash mumkin. Tovar (ish, xizmat) sifati – tadbirkorlik faoliyati foydaliligini belgilovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Demak, sifat bu – birinchi galda farq, ikkinchi galda ishonch, uchinchi galda baho, to‘rtinchi galda obro‘ni belgilaydi.

Sifat jihatidan talabga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)larni qabul qilish yoki qilmaslik borasida iste'molchiga keng huquqlar beriladi. Bunday qoidaning nazarda tutilishi, avvalo, iste'molchi sifatida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchilarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Tovarning sifatliligini quyidagi jihatlar bilan belgilash mumkin:

1. Sifatning oliy darajasi (foydalanish uchun yaroqlilik, ehtiyojni to‘la qanoatlantirish xususiyati).
2. Uzoq muddatliligi (chidamliligi).
3. Tashqi ko‘rinishi, shaklining chiroyliligi, jozibadorligi.
4. Almashuvchanligi.
5. Foydalanishga qulayliligi, texnik xizmat ko‘rsatishning va ta’mirlash (tuzatish)ning yengilligi.
6. Montaj qilish (yig‘ish)ning yengilligi va ekspluatatsiya (ishlatish)da qulayligi.
7. Xavfsizlik ko‘rsatkichi.
8. Yuzaga keladigan (qo‘shimcha yuklanishga chidamliligi)(peregruzok) ni aniqlash darajasi.
9. Xizmat ko‘rsatishning kafolatlanganligi, boshqa parametr (jihat)lari.

Demak, sifatli tovar topshirish majburiyatini olgan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste’molchiga yuqorida sanab o‘tilgan talablarni o‘zida aks ettirgan tovarni topshirishi kerak bo‘ladi.

Sifatni mahsulotning unga qo‘yiladigan talablarga javob berish darajasiga mos kelishiga qarab tushunish mumkin. Ya’ni: birinchidan, sifat har bir mahsulotning ko‘pgina xususiyatlariga bog‘liq;

ikkinchidan, agarda iste’molchi mahsulotning xususiyatlarini ularning ahamiyatiga qarab guruhlash imkoniyatiga ega bo‘lsa, sifat raqamlar bilan ifodalanishi mumkin;

uchinchidan, sifat – bu o‘lchanadigan qiymat, demak, mahsulotning unga qo‘yiladigan talablarga javob bermasligini, unda voqe’ bo‘ladigan ma’lum bir qiymatga qarab, ko‘p hollarda uning narxiga qarab aniqlash mumkin bo‘ladi.

Mahsulotning sifatliligini, ya’ni sifati lozim darajadaligini belgilovchi yana bir jihat – bu uning ishonchliligidir. «Ishonchlilik» - mahsulotni belgilangan vaqt davomida, alohida sharoitlarda qo‘yilgan talablarga mos keluvchi funksiyani (faoliyatni) bajara olishidir». Ishonchlilikni sifatning ma’lum darajada ta’minlash usuli, deyish mumkin. Ishonchlilik tovar sifati bilan o‘rnatiladi. Shuning uchun ham sifatni huquqiy jihatdan ifodalash talab etilarkan, ishonchlilik tushunchasi tarkibiga – tuzatish (ta’mir)ga loyiqlilik, uzoq muddatlilik va saqlanuvchanlikni kiritish mumkin.

Iste’molchilarning yana bir muhim huquqlaridan biri bu tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishiga talab qo‘yish huquqidir. Tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi deganda, avvalo ushbu tovar (ish, xizmat)dan foydalanish natijasida iste’molchiga hech qanday zarar (moddiy ziyon, ma’naviy zarar) yetmasligi kerakligi tushuniladi. Bu huquq bir qancha xalqaro hujjatlarda, jumladan BMTning iste’molchilar huquqlari himoyasiga oid Rezolyutsiyasida Yevropa Kengashi (Soveti) tomonidan qabul qilingan. Iste’molchilar haquqlari Hartiyasida, 1975 yil 14 aprel va 1981 yil 19 maydagi Iste’molchilar huquqlarining himoyasi va Informatsion (ma’lumot) siyosatga oid Dastlabki (birinchi) va Ikkinchi dasturlarida ham o‘z aksini togan. Tovar (ish, xizmat)lar ulardan mo‘ljallangan maqsadda foydalanishga muvofiq va boshqa maqsadda foydalanishda xavfsiz bo‘lishi lozim.

Davlat standartlar va majburiy qoidalar orqali iste’molchining bu huquqini kafolatlaydi.

Iste’molchiga sotilgan tovar, ko‘rsatilgan ish (xizmat) natijasi undan oddiy sharoitlarda foydalanganda, saqlanganda, tashilganda hamda yo‘q qilinganda uning hayoti, sog‘lig‘i hamda atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishi va uning mol-mulkiga zarar yetkazmasligi iste’molchining tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo‘lishiga talab qo‘yish huquqining asosini tashkil etadi. Tovar (ish, xizmat) xavfsizligi deganda, zarar yetkazilishi mumkin degan xavfga yo‘l qo‘yilmaslik holatiga aytiladi. Tovar (ish, xizmat)dan xavfsiz foydalanish, saqlash, tashish va yo‘q qilish qoidalari iste’molchilar manfaatlaridan kelib chiqishi va maksimal tarzda o‘rganilishi lozim. Hozirgi davrga kelib, Iste’molchilar masalalari bo‘yicha standartlashtirish xalqaro tashkilotining qo‘mitasi ushbu masala bilan maxsus shug‘ullanmoqda. Mazkur qo‘mita nafaqat iste’molchilarning o‘ziga, balki ularning mol-mulklari hamda atrof-muhitga ham yetkaziladigan zararlarning oldini olish va ularni bartaraf etish borasida juda kata ishlarni amalga oshirmoqda.

Tovar (ish, xizmat)ning iste’molchilar hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishiga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)larning qay darajada rioya etayotganliklari ustidan nazoratni maxsus vakolat berilgan davlat organlari: O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash daslat qo‘mitasi, O‘zstandart agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va boshqa vakolatli organlar amalga oshiradilar (23-modda).

Qonun iste’molchilarning hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavf tug‘diruvchi tovar ishlab chiqargan (ish bajargan, xizmat ko‘rsatgan) ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bilan bir qatorda, normativ hujjatlarni tasdiqlagan, muvofiqlik sertifikati bergan, sog‘liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, veterinariya xizmati organlari yoki xavfli tovar (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoxud realizatsiya qilishga ruxsat bergan boshqa organlar ham javobgar bo‘lishlarini belgilagan. Tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi ta’minlanmaganligi oqibatida iste’molchining hayoti, soqligi yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar to‘liq hajmda qoplanadi (Qonunning 20-moddasi). Qonunning 12-moddasi 6-qismiga ko‘ra, agar tovar (ish, xizmat)dan xavfsiz foydalanish yoki uni shu tarzda tashish va saqlash uchun maxsus qoidalarga rioya etish zarur bo‘lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday qoidalarni ishlab chiqishi, sotuvchi (ijrochi) esa, ularni iste’molchilar e’tiboriga yetkazishi shartligi belgilangan. Bu qoidalar ommaviy qoidalar emas, balki alohida, maxsus qoidalar bo‘lib hisoblanadi. Shuni alohida e’tirof etib o‘tish lozimki, bu yerda juda ham muhim holat, ya’ni ishlab chiqaruvchi (ijrochi) esa uni iste’molchiga yetkazishi o‘z ifodasini topgan. Demak, maxsus qoidalar ishlab chiqilmaganligi, tegishli tartibda tasdiqlanmaganligi, iste’molchiga yetkazilmaganligi yoki yetarli bo‘lmaganligi javobgar shaxsni aniqlashda hamda davlat organi, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) va sotuvchilar o‘rtasidagi majburiyatni taqsimlashda muhim ahamiyat kasb etganligi uchun uni alohida e’tirof etish lozim. Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki

utilizatsiya qilish ish (xizmat)i natijalari iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulkiga yoki atrof-muhitga zarar yetkazayotganligi yoxud zarar yetkazishi mumkinligi aniqlansa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etulgunga qadar ularni ishlab chiqarishni (bajarishni, realizatsiya qilishni) darhol to‘xtatishi, muomaladan chiqarish va iste’molchilardan qaytarib olish choralarini ko‘rishi shart. Zararning sabablarini bartaraf etish mumkin bo‘lmagan taqdirda ham ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlashga, ishni bajarishni va xizmat ko‘rsatishni to‘xtatishga majbur. Shu bilan birga oziq-ovqat mahsuloti sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan albatta utilizatsiya qilinishi kerak. Bu majburiyatlar ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan bajarilmagan taqdirda, tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, ishni bajarishni va xizmat ko‘rsatishni to‘xtatib qo‘yish, muomaladan chiqarish va iste’molchilardan qaytarib olish tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi va sifati ustidan nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlirining ko‘rsatmasi bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi sxemada iste’molchilar o‘z huquqlari qanday himoya qilishlari mumkinligi o‘z aksini topgan



Iste’molchilarning asosiy huquqlaridan biri iste’molchilarning jamoat birlashmalarini tuzishga bo‘lgan huquqidir. «Kuch – adolatda va birlikda» degan tamoyildan kelib chiqib, iste’molchilar o‘z manfaatlarini ko‘zlab, bozor iqtisodiyoti sharoitida turli tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida huquqlari buzilishining oldini olish, ularni himoya qilish maqsadida ixtiyoriy ravishda jamoat birlashmalarini tuzishlari mumkinligi ularning asosiy huquqlari qatoriga kiritiladi. Bu esa adolatga va o‘z huquqlarining ta’minlanishidan manfaatdor bo‘lgan barcha iste’molchi-fuqarolarni birlashgan holda, aniq belgilangan rejalar asosida, o‘zlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishlari uchun keng imkoniyatlari ochib beradi. Qonunning 30-moddasi iste’molchilarning yuqorida aytib o‘tilgan asosiy huquqlaridan biriga bag‘ishlangan bo‘lib, u iste’molchilarning jamoat birlashmalari deb nomlanadi.

30-modda iste’molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlariga qonun hujjatlari asosida savdo, maishiy xizmat va xizmat ko‘rsatishning boshqa turlari bo‘yicha imtiyozlar va afzalliklar berilishi mumkinligini alohida e’tirof etadi. Masalan, yoqilg‘i quyish shahobchalarida urush qatnashchilari va 1-guruh nogironlari avtomashinalariga bepul xizmat ko‘rsatish

amalga oshirilishi, umumiy transportlarda yosh bolalarga, nogironlarga maxsus o‘rindiqlar ajratilishi, savdo korxonalarida qariyalarga, nogironlarga tovarlar navbatsiz va ayrim hollarda imtiyozli narxlarda sotilishini misol qilib keltirish mumkin.

Iste’molchilarning yuqorida ko‘rib o‘tilgan asosiy huquqlarini amalga oshirish avvalo har bir iste’molchining o‘ziga bog‘liqdir. Amaliyotda, ya’ni savdo-sotiq, ishlar, xizmatlar soxalarida qonunning barcha talablariga amal qilinishi va iste’molchilarning ushbu qonunda mustahkamlangan huquqlarining ta’minlanishi iste’molchilarning huquqiy madaniyati, o‘z huquqlarini bilishi hamda ularni talab qilishida namoyon bo‘ladi.

3. Iste’molchining tovar (ish, xizmat)lar to‘g‘risida ma’lumot olish huquqi

Qonunning 6-moddasida belgilab qo‘yilgan iste’molchilarning asosiy va muhim huquqlaridan biri-ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida o‘z vaqtida zarur, to‘g‘ri va tushunarli ma’lumot olish huquqidir. Ushbu huquq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan «Iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishning rahbariy tamoyillari» deb nomlangan (N 39/248 – sonli 1985 y. 9 aprel) rezolyutsiyada, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga oid qonunchilik dasturida (1975 yildagi YEIH ning birinchi dasturida), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarning «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi hamkorligining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi bitimida (2000 yil 25 yanvar) va boshqa ko‘pgina xilqaro hujjatlarda iste’molchining sosiy xuquqlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Qonunning 6-moddasida keltirilgan zarur, to‘g‘ri va tushunarli ma’lumot tushunchalariga amaldagi Fuqarolik kodeksida ham, Qonunda ham to‘liq ta’rif berilmagan. Shu o‘rinda zarur va to‘g‘ri ma’lumot deganda nima tushuniladi degan savol tug‘iladi. Bizningcha, zarur ma’lumot deganda sotuvchi tomonidan haridorga beriladigan to‘liq hajmdagi ma’lumotlar tushuniladi. Zarur ma’lumot iste’molchida tovar (ish, xizmat) haqida tasavvur hosil qilish, aynan ulardan qanday foydalanish kerakligi to‘g‘risida tushunchani vujudga keltirishi lozim. Odatda, iste’molchi sotib olishni mo‘ljal qilgan tovar (ish, xizmat) haqida yetarli ma’lumot (bilim)ga ega bo‘lmaydi (ega bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, qonun iste’molchi bunday ma’lumotga ega bo‘lmaydi, deb tahmin qiladi). Shuning uchun ham ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste’molchiga tovar (ish, xizmat) haqida yetarli va to‘liq ma’lumot berishi lozim. Iste’molchi esa unga taqdim etilgan ushbu ma’lumotlardan oqilona foydalanib, o‘ziga ma’qul bo‘lgan, o‘zini qiziqtirgan tovarning xususiyatlari, sifati, uni ishlatish va saqlash tartibi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi, ushbu tovar (ish, xizmat) natijalaridan mutaxassis ko‘magisiz mutaqil ravishda foydalana olishi lozim bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan ta’rifdan kelib chiqib, «zarur ma’lumot» deganda:

birinchidan, sotuvchi (ijrochi, ishlab chiqaruvchi)ning yuridik manzili va u tasarruf (realizatsiya) qilayotgan tovar (bajarayotgan ish, ko‘rsatayotgan xizmat) haqida aniq ma’lumotlar tushuniladi (bu ma’lumot orqali iste’molchi unga nuqsonli tovar sotilganda yoki bajarilgan ishda (ko‘rsatilgan xizmatda)

kamchiliklar aniqlanganda javobgarni topish bilan bog‘liq qiyinchiliklar yuzaga kelishining oldi olinadi);

ikkinchidan, o‘zida albatta uning sifati, asosiy iste’mol xususiyatlari, narxi, ishlab chiqaruvchining majburiyatlari va Qonunning 5, 6-moddalarida sanab o‘tilgan talablarni aks ettirgan ma’mot majmui tushuniladi (bu esa iste’molchiga o‘ziga kerakli tovar (xizmat)ni tanlab olish imkonini beradi);

uchinchidan, sotuvchi (ijrochi) iste’molchiga savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalari to‘g‘risida beradigan to‘liq ma’lumot tushuniladi. Bunday qoidalarning mavjudligi uning bajarilishi majburligini belgilaydi. Bu esa iste’molchining kuchi va mablag‘i tejalishiga olib keladi.

To‘g‘ri ma’lumot deganda tovar (ish, xizmat)da aks ettirilgan ma’lumot uning asl holdagi ko‘rinishiga, ya’ni tarkibiga va xususiyatlariga mos kelishi tushuniladi.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma’lumotda quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

- tovar (ish, xizmat) majburiy talablarga muvofiq kelishi shart bo‘lgan normativ hujjatlarning nomi;
- tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste’mol xususiyatlari, shu jumladan o‘ziga xos xususiyatlari ro‘yxati;
- bahosi va sotib olish shartlari;
- ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;
- ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari;
- tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;
- tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste’molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek, bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning nomi va mulkchilik shakli, ro‘yxatga olish va litsenziya guvohnomasining qayd raqami;
- ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste’molchidan da’vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek ta’mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko‘rsatadigan korxonalarning manzillari;
- tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari;
- teatr-konsert tadbirlari o‘tkazilayotganda fonogrammadan foydalanishi to‘g‘risidagi axborot.

Sertifikatlanishi shart bo‘lgan tovar haqida iste’molchiga uning sertifikatlanganligi to‘g‘risida ma’lumot taqdim etilishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi zarur axborotning yo‘qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma’lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko‘rsatmasi bo‘yicha to‘xtatib turilishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 30 avgustda qabul qilingan «Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonunning 12-moddasiga asosan, iste’molchiga sotilayotgan qadoqlangan va o‘ralgan oziq-ovqatlar, ovqatga qo‘shiladigan biologik faol qo‘shimchalar, oziq-ovqat qo‘shimchalari yorliqlariga (suqma varaqalariga) ega bo‘lishi, ularda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerakligi belgilangan. Ya’ni:

- oziq-ovqat nomi;

- oziq-ovqatning nimaga mo‘ljallanganligi (maxsus bolalarbop mahsulotlar va parhez taomlar uchun);
- tayyorlovchining nomi;
- tovar telgisi (belgiga ega tashkilotlar uchun);
- oziq-ovqat tarkibiga kirgan narsalar, shu jumladan oziq-ovqat qo‘shimchalarining nomi;
- oziqlik qimmati, navi;
- saqlash shart-sharoitlari (masalan, quyosh nuri tushmaydigan, salqin va quruq joyda; +5 dan +20 gacha daraja issiqlikda);
- tayyorlangan sanasi, yaroqlilik muddati;
- tayyorlash usuli (masalliqlar hamda maxsus bolalarbop va parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun);
- og‘irligi;
- foydalanish usuli (biologik faol qo‘shimchalar, oziq-ovqat qo‘shimchalari, maxsus bolalarbop va parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun);
- muvofiqlik belgisi (mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alash huquqini beradigan litsenziyasi bor korxonalar uchun);
- normativ yoki texnikaviy hujjatlarning nomerlari va shunga o‘xshash ma’lumotlarni o‘zida aks ettirishi lozimligi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tovarni to‘g‘ri tanlash uning markirovkasida yetarli (og‘irligi, hajmi va tarkibi haqida) ma’lumotlar bo‘lishini taqozo etadi. Ammo ko‘plab tovarlarni ulgurji, ya’ni katta hajmlarda yetkazib berilishi ko‘p hollarda ularda ma’lumotlarni aks ettirish imkoniyati bo‘lmasligiga olib keladi. Shuning uchun ham ko‘pgina rivojlangan davlatlar qonunchiligida ishlab chiqaruvchilarning, tovarlarning miqdorini va har bir donasining narxini ham alohida ko‘rsatishlari shartligi belgilangan.

Iste’molchilarga to‘g‘ri ma’lumot berish usullaridan biri – to‘g‘ri, maqbul va chiroyli tarzda do‘kon yoki atele peshtaxtalariga sotuvda mavjud bo‘lgan yoki tashkilotda tayyorlanadigan mahsulotlar namunalarigina qo‘yiladi. Har bir namuna aniq jihozlangan yorliq va narxnoma bilan ta’minlanadi. Tovar yoki xizmatlar narxlari qaydnomasi hammaga ko‘rinarli joyga osib qo‘yilishi lozim. Peshtaxtalar belgilangan talablar darajasida jihozlangan bo‘lishi, ular oynalari terlashining hamda muzlashining oldi olinishi, kechqurunlari esa ular yaxshi yoritilgan bo‘lishi kerak. Bu, o‘z navbatida, iste’molchiga peshtaxtadan mahsulotlarning xususiyatlariga baho berib, o‘ziga maqbulini tanlash imkonini beradi. Sotib oluvchining talabiga binoan peshtaxtadagi tovar namunasi unga sotib yuborilishi mumkin.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma’lumotni taqdim etishda asosiy vazifa – ular ichidan keraklisini tanlab olishdan iborat. Iste’molchilarga taqdim etiladigan ma’lumotlarning kerakli hijmini ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning o‘zi belgilaydi. Ammo u ma’lumot to‘liq bo‘lmaganligi uchun qonunda belgilangan javobgarlik mavjudligini esidan chiqarmasligi lozim. Ayrim turdagi tovar (ish, xizmat)lar haqidagi ma’lumotlar ro‘yxati va ularni iste’molchilarga yetkazish usullari O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari bilan belgilanishi mumkin.

Ular O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida umummajburiy kuchga ega bo‘ladi.

Shu jumladan, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)lar tomonidan o‘rnatilgan qo‘shimcha ma’lumotlar tovarning xususiyati va spesifikasi haqida yanada to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lishga olib kelishi mumkin.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunida keltirilgan asosiy atamalarning ma’nosini aytib bering.
2. Tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligini qanday tushunasiz?
3. Muvofiqlik sertifikati nima?
4. Qonun bo‘yicha iste’molchilarning asosiy huquqlari nimalar?
5. Iste’molchilarning tovar haqida shuningdek ishlab chiqaruvchi haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot olish huquqini qanday tushunasiz?
6. Iste’molchining tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo‘lishiga talab qo‘yish huquqini qanday tushunasiz?
7. Tovar haqidagi ma’lumotda nimalar ko‘rsatiladi.
8. Tovarning markirovkasida qanday ma’lumotlar keltiriladi.

Mavzu 3. Iste’molchilarning tovarlar to‘g‘risida noto‘g‘ri ma’limot berilganda va tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo‘lishiga talablar qo‘yish huquqi

Reja:

1. Tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri ma’lumot berilgan taqdirda iste’molchining huquqlari
2. Iste’molchining tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo‘lishiga talab qo‘yish huquqi

1. Tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri ma’lumot berilgan taqdirda iste’molchining huquqlari

Bu haqda «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 7-moddasida atroflicha fikrlar keltirilgan. Bu moddada iste’molchiga tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri yoxud yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma’lumot berilgan taqdirda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan uchta oqibat to‘g‘risida yozilgan.

1. Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri yoki yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma’lumot berilganligi zarur iste’mol xossalariga ega bo‘lmagan tovar

sotib olinishiga sabab bo‘lsa, iste’molchi shartnomani bekor qilishga va o‘ziga yetkazilgan zararni qoplanishini talab qilishga haqlidir.

2. Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri yoki yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma’lumot berilganligi sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko‘zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo‘lsa, iste’molchi tegishli ma’lumot oqilona qisqa (ko‘pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma’lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste’molchi shartnomani bekor qilib, zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir.

3. Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri yoki yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma’lumot berilganligi iste’molchining hayotiga, sog‘ligiga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo‘yishga haqlidir.

Iste’molchining tovar (ish, xizmat) haqidagi noto‘g‘ri yoki yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma’lumot tufayli yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi talablari sotib olingan tovar (ish, xizmat)ning xossalari va jihatlari haqida iste’molchi maxsus bilimga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

Zarur iste’mol xossalariga ega bo‘lmagan tovarni qanday tushunmoq kerak?

Zarur iste’mol xossalariga ega bo‘lmagan tovar (ish, xizmat) mezonlari, eng avvalo, muayyan iste’molchi, ehtiyoji, foydalanish maqsadlari, foydalanish shartlari va shu kabilar bilan bog‘liq. Zarur iste’mol xossalarga ega bo‘lmaganlik tovarning sifatsizligi bilan bog‘liq emas. Aksincha, ushbu tovar sifatli, biroq iste’molchiga to‘liq ma’lumot berilmaganligi sababli u tovar vazifalari, foydalanish shartlari bo‘yicha boshqacha tasavvurga ega. Albatta, iste’molchining bunday sub’ektiv tasavvuri tovar ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi)ning aybi bilan vujudga kelganini unutmaslik lozim. Masalan, mobil telefon apparati faqat maxsus batareykada ishlaydi. Iste’molchi esa odatdagi standart batareykalarda ishlaydi, deb o‘ylab sotib oladi. Agar iste’molchi bu haqida ma’lumotga ega bo‘lganda edi, uni sotib olmagan bo‘lar edi. Binobarin, bunday holda iste’molchi oldi-sotdi shartnomasini bir tomonlama bekor qilishga va o‘ziga yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko‘zlangan maqsadda foydalana olmaslik deyilganda, iste’molchiga noto‘g‘ri yoxud yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan axborot, ma’lumot berilganligi sababli iste’molchi tovar (ish, xizmat)dan foydalana olmasligi, ekspluatatsiya qila olmasligi tushuniladi. Masalan, bunda tegishli qo‘llanma bo‘lmasligi yoki qo‘llanmada undan foydalanish operatsiyalari to‘liq ko‘rsatilmaganligi sababli tovarni ta’mirlash, unga texnik xizmat ko‘rsatish, saqlashni tashkil etish bo‘yicha zarur axborotlarga ega bo‘linmasligi mumkin. Boshqa sabablarga ko‘ra tovar (ish, xizmat)dan foydalana olmaslik (masalan, iste’molchining o‘ziga bog‘liq bo‘lgan uquvsizligi, bunda malaka, tajribaning yo‘qligi, savodsizligi va h.k.) ushbu norma qoidalarini qo‘llash uchun asos bo‘la oladi.

Sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan qo‘llangan maqsadda foydalana olmaslikka tovar (ish, xizmat) to‘g‘risida noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumot berilganligi sabab bo‘lsa, iste’molchi bu haqda yozma ariza bilan sotuvchi (bajaruvchi)ga murojaat qilishi lozim. Arizada tovar (ish, xizmat)dan

foydalanishga nima to‘sqinlik qilganligi aniq-ravshan ko‘rsatilishi, agar iloji bo‘lsa zarur ma’lumotlar harakteri ham ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir. Iste’molchi arizada zarur ma’lumotlar sotuvchi (bajaruvchi) tomonidan muayyan oqilona muddatda o‘ziga berilishini talab qilishi lozim. Tegishli ma’lumot ko‘pi bilan uch kun ichida iste’molchiga berilishi shart (iste’molchi o‘z ixtiyori bilan tegishli ma’lumotlarni yetkazishning bundan ham ko‘proq muddatini, masalan, besh kun, o‘n kun belgilashi mumkin). Agar iste’molchiga u belgilagan muddatda yoki uch kun ichida tegishli zarur ma’lumotlar berilmasa, u holda iste’molchi shartnomani bir tomonlama bekor qilib, tovarni (ish, xizmat natijasini) qaytarishga, to‘lagan pulini qaytarib olishga, boshqa zararlarni qoplanishini talab qilishga haqli.

Iste’molchiga tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri yoxud yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma’lumot berilgan taqdirda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan uchinchi oqibat iste’molchining hayotiga, sog‘lig‘iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunday zarar ko‘p hollarda oziq-ovqat mahsulotlari, tovardan xavfsiz foydalanish, uni saqlash va utilizatsiya qilish usullari va qoidalari, tovarning xizmat muddati, yaroqlilik muddati, realizatsiya qilish muddati, ushbu muddatlar o‘tganidan keyin qanday harakatlarni sodir etishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘la ravishda taqdim etilmagani bilan bog‘liq ravishda ro‘y beradi. Iste’molchining hayotiga zarar yetkazish uning o‘limi, hayoti xavf ostida qolishi kabi holatda namoyon bo‘ladi. Iste’molchining sog‘lig‘iga zarar yetishi uning kasallanishi, nogiron bo‘lib qolishi, biror tana a’zosi o‘zining funksional xususiyatlarini yo‘qotishi yoxud shikastlanishi, og‘ir jismoniy azoblarga duchor bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Bunda kasallik, nogironlik, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik holatlari albatta tegishli tibbiy muassasalarda qayd etilmog‘i lozim.

Iste’molchining mol-mulkiga yetkazilgan zarar nafaqat unga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan, balki u qonuniy asoslarda egallab, foydalanib turgan har qanday ashyolar (masalan, ijara, tekin foydalanish, lizing, prokat va shu kabilar asosida olingan mol-mulklar)ga ham yetkazilishi natijasida namoyon bo‘lishi mumkin.

Tovar (ish, xizmat) to‘g‘risida noto‘g‘ri yoxud yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma’lumot berilishi oqibatida iste’molchining hayotiga, sog‘lig‘iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazgan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tarzda javobgar bo‘ladi.

Iste’molchining hayotiga zarar yetkazilganda (o‘limi yoki hayoti uchun xavfli holat) javobagrlik Fuqarolik kodeksining 14 va 1017-moddasi (tovar, ish, xizmat to‘g‘risidagi ma’lumot noto‘g‘ri yoki yetarli emasligi oqibatida fuqaroning hayotiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash asoslari) bo‘yicha vujudga keladi.

Fuqarolik kodeksining 1017-moddasi tovar, ish, xizmat to‘g‘risidagi ma’lumot noto‘g‘ri yoxud yetarli emasligi oqibatida fuqaroning sog‘lig‘i, mol-mulkiga zarar yetkazilgan hollarda ham javobgarlik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Zarar miqdori, zararni qoplash usullari, tartib Fuqarolik kodeksining 57-bobida belgilab qo‘yilgan qoidalar asosida aniqlanadi.

Zararni undirish sotuvchi, tayyorlovchi (ijrochi)ning aybidan, jabrlanuvchi ular bilan shartnomaviy munosabatlarda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligidan qat’i nazar, amalga oshiriladi. Zararning qoplinishi to‘g‘risidagi talab nafaqat

jabrlanuvchi tomonidan, u vafot etgan taqdirda, uning oila a’zolari, shuningdek doimiy qaramog‘ida bo‘lgan shaxslar tomnidan ham qo‘yilishi mumkin.

2. Iste’molchining tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo‘lishiga talab qo‘yish huquqi

Iste’molchi o‘zi sotib olgan tovar (ish, xizmat) sanitariya-gigiyena, shu jumladan radiologiya, epidemiyaga qarshi talablarga va amaldagi boshqa normalar hamda qoidalarga rioya etgan holda ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan bo‘lishiga va uning hayoti, sog‘lig‘i, atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishiga, shuningdek uning mol-mulkiga zarar yetkazmasligiga kafolat berilishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar (ish, xizmat)ning iste’molchilar hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishiga doir talablar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tovar (ish, xizmat)ning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo‘lsa, tovar iste’molchiga sotilgan (ish bajarilgan) kundan e’tiboran o‘n yil mobaynida uning xavfsiz bo‘lishini ta’minlashi shart.

Iste’molchilarning hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavf tug‘diruvchi tovar ishlab chiqarganlik (ish bajarganlik, xizmat ko‘rsatganlik) uchun qonun hujjatlariga muvofiq:

ishlab chiqaruvchi (ijrochi);

normativ hujjatlarni tasdiqlagan organ;

sog‘liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, veterinariya xizmati organlari yoki xavfli tovar (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoxud realizatsiya qilishga ruxsat bergan boshqa organlar javobgar bo‘ladi.

Tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi ta’minlanmaganligi oqibatida iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar ushbu qonunning 20-moddasiga muvofiq qoplinishi lozim.

Agar tovar (ish, xizmat)dan xavfsiz foydalanish yoki uni shu tarzda tashish va saqlash uchun maxsus qoidalarga rioya etish zarur bo‘lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday qoidalarni ishlab chiqarishii, sotuvchi (ijrochi) esa, ularni iste’molchilar e’tiboriga yetkazishi shart.

Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish, ish (xizmat) natijalari iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulkiga yoki atrof-muhitga zarar yetkazayotganligi yoxud zarar yetkazishi mumkinligi aniqlansa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etilgunga qadar ularni ishlab chiqarishni (bajarishni, uni realizatsiya qilishni) darhol to‘xtatishi, muomaladan chiqarish va iste’molchilardan qaytarib olish choralarini ko‘rishi shart.

Zararning sabablarini bartaraf etish mumkin bo‘lmagan taqdirda, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday tovarni va xizmat ko‘rsatishni to‘xtatishi shart, shu bilan birga oziq-ovqat mahsuloti sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan albatta utilizatsiya qilinishi kerak. Bu majburiyatlar ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan bajarilmagan taqdirda tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, ishni bajarishni va xizmat ko‘rsatishni to‘xtatib qo‘yish, muomaladan chiqarish va iste’molchilardan qaytarib olish tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi va sifati

ustidan nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining ko‘rsatmasi bilan amalga oshiriladi.

Iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga hamda atrof-muhit uchun xavfli bo‘lgan tovarlarning partiyalarini muomaladan chiqarish, ishlarni bajarishni va xizmatlar ko‘rsatishni taqiqlab qo‘yish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

Tovarni qaytarib olish, ishni bajarishni va xizmat ko‘rsatishni taqiqlab qo‘yish munosabati bilan iste’molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi lozim.

Agar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) xavfli xossalarga ega bo‘lgan tovarni qaytarib olish yuzasidan barcha zarur choralarni ko‘rgan bo‘lsa, u iste’molchi mazkur tovardan foydalanishni davom ettiraverishi tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

Iste’molchilar uchun tovar (ish, xizmat)larning xavfsiz bo‘lishini ta’minlash vositalaridan eng ishonchlisi bu tovarlarni markalash va sertifikatlash hisoblanadi. Sertifikatlashtirish odamlarning hayoti va sog‘lig‘i, mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfli bo‘lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat qilish, iste’molchini tayyorlovchining vijdonsizligidan himoya qilish, mahsulot tayyorlovchisi ta’kidlagan sifat ko‘rsatkichlarini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish majburiy yoki ixtiyoriy amalga oshirilishi mumkin. Majburiy sertifikatlashtirishni o‘tkazish ishlarini tashkil etish Standartlashtirish, metrologiya va Standartlashtirish Davlat agentligi zimmasiga yoki uning topshirig‘iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga yuklatiladi.

Sertifikatlashtirish shart bo‘lgan tovarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadi. Majburiy sertifikatlashtirish normativ hujjatlarning talablargia muvofiq mahsulot xususiyatini aniqlash uchun uni sinashni, sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini o‘rnatishni o‘z ichiga oladi.

Majburiy sertifikatlashtirish lozim bo‘lgan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi tayyorlovchilar:

1. Majburiy sertifikatlashtirish lozim bo‘lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishlari;
2. Sertifikatlangan mahsulotni faqat sertifikati bo‘lgan taqdirda realizatsiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo‘lishini ta’minlashlari;
3. Sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek, sertifikatni olgan muddati tugagan bo‘lsa yoxud uning amal qilish muddati sertifikatlashtirish organi qaroriga binoan to‘xtatib qo‘yilgan yoki bekor qilingan bo‘lsa, realizatsiya qilishni to‘xtatib qo‘yishlari yoki tugatishlari;
4. Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o‘z vakotlatlarini moneliksiz bajarishlari uchun sharoit yaratishlari;

5. Sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor etishlari;

6. Ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo‘lgan sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko‘rsatishlari va bu ma’lumotlar iste’molchi (haridor, buyurtmachi) e’tiboriga yetkazilishini ta’minlashlari shart.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri ma’lumot berilganda iste’molchi qanday huquqlarga ega?
2. Zarur iste’mol xossalariga ega bo‘lmagan tovarni qanday tushunmoq kerak?
3. Fuqarolik kodeksining qaysi moddalarida iste’molchining hayotiga, sog‘ligiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik ko‘rsatib o‘tilgan?
4. Tovarning xavfsizlik ko‘rsatkichlariga nimalar kiradi?
5. Iste’molchining hayoti, sog‘ligi, mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavf tug‘diruvchi tovar ishlab chiqarganlik uchun kim javobgar hisoblanadi?
6. Tovarni utilizatsiya qilish deganda nimani tushunasiz?
7. Sertifikatlashtirish deganda nimani tushunasiz?
8. Sertifikatlashtirishning maqsadi nimadan iborat?
9. Majburiy sertifikatlashtirishni qanday tushunasiz?
10. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni qanday tushunasiz?

Mavzu 4. Nuqsonli tovar sotilganda va ishni bajarish, xizmat ko‘rsatishdagi shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste’molchining huquqlari

Reja:

1. Iste’molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari
2. Ishni bajarish, bajarish, xizmat ko‘rsatishdagi shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste’molchining huquqlari

1. Iste’molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari

Nuqsonli tovar sotilgan iste’molchi, agar bu hol shartnoma tuzish paytida aytib o‘tilmagan bo‘lsa, o‘z xohishiga qarab quyidagilardan birini talab qilishga haqli:

tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berish;

tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning harid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilish;

tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste’molchining yoxud uchinchi shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan harajatlarini qoplash;

harid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish;

shartnomani bekor qilib, ko‘rilgan zararni qoplash.

Agar nuqsonlar:

tovarning kafolat muddati yoxud yaroqlilik muddati mobaynida;

kafolat muddati va yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar bo‘yicha olti oy mobaynida;

ko‘chmas mulk iste’molchiga o‘tkazilgan kundan e’tiboran ikki yil mobaynida, agar shartnomada bundan uzoqroq muddat nazarda tutilmagan bo‘lsa;

mavsumiy tovarlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan muddat mobaynida aniqlangan bo‘lsa, iste’molchi mazkur huquqlarni ro‘yobga chiqarishi mumkin.

Iste’molchi o‘ziga sotilgan, to‘plamlar, garniturlar, komplektlar va komplekslarning mustaqil tarkibiy qismi bo‘lgan va mustaqil nafga ega bo‘lgan buyumlarda nuqsonlar borligini aniqlagan taqdirda, butun to‘plamlar, garnitur, komplekt va kompleksga nisbatan ham, ularning nuqsonlari bor mustaqil tarkibiy qismlariga nisbatan ham ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan talablarni qo‘yishga haqlidir.

Ushbu moddaning birinchi qismida bayon etilgan talablarni iste’molchi sotuvchiga qo‘yadi.

Iste’molchining talablari u kassa yoki tovar chekini, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo‘yicha esa, tegishlicha rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko‘rib chiqiladi.

Iste’molchi texnik pasportni yo‘qotib qo‘ygan taqdirda, uni qayta tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovarda aniqlangan nuqsonlar ishlab chiqaruvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ishlab chiqaruvchi bilan sotuvchining o‘zaro munosabatlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

Mazkur qonunning normalari bir-biri bilan shunchalik ichki mantiqiy bog‘lanish hosil qilganki, ularning har birini ikkinchisidan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular bir-birini to‘ldirishga xizmat qiladi.

Iste’molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modeli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini qo‘shimcha ravishda tekshirish zarur bo‘lganida esa, iste’molchi talab qo‘ygan paytdan e’tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo‘lmagan taqdirda, iste’molchining almashtirib berish xususidagi talabi da’vo qilingan paytdan e’tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho‘l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste’molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o‘tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste’molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to‘laydi.

Mazkur moda mazmunan 13-moddani to‘ldirishga xizmat qilib, u nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibiga bag‘ishlangan.

Moddaning 1-qismi iste’molchi tovardagi ishlab chiqarish bilan, tuzilishi tarkibi bilan bog‘liq kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modeli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini qo‘shimcha ravishda tekshirish zarurati bo‘lganida iste’molchi talab qo‘ygan paytdan e’tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shartligi haqida norma belgilaydi.

Ma’lumki, harid jarayoni shunchalik tez ko‘chadiki, bu qisqa fursat mobaynida iste’molchi tovar haqida, uning ishlab chiqarilishi, tuzilishi, tarkibi bilan bog‘liq jihatlarni (aynan kamchilik va nuqsonlarni) aniqlashining imkoni bo‘lmaydi. Chunki, u «mutaxassis emas».

Kamchilik va nuqsonlar ochiq va yashirin ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Ochiq kamchiliklar ko‘rinib turadi va odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida uni ko‘rish, bilish mumkin bo‘ladi. Masalan, uy-joyning assortimenti (aynan rangi) bir-biriga mos kelmasligi kabi. Yashirin ko‘rinishdagi kamchiliklarni harid mahalidayoq bilish mumkin bo‘lmaydi va buning uddasidan chiqib ham bo‘lmaydi. Masalan, avtomobil kuzovining urilganligi, «kaltak yeganligi». Tabiiyki, bunday avtomobil bozorga olib chiqilar ekan, «obdan ta’mirlanadi». Bamisoli yangi, konveyerdan tushgandek holga keltiriladi. Bu «omi» iste’molchini chalg‘itadi, yangi avto sotib olishga bo‘lgan talabi (ehtiyoji) sotuvchi tomonidan mana shunday «kaltak yegan» tovarni o‘tkazish bilan «siylanadi». Aslini olganda, bunday bir marta «yaxshi kaltaklangan» avtoning narxi, bahosi ancha past bo‘lishi tabiiy holdir.

Tovarning ishlab chiqarilishiga doir kamchiliklari uning texnologik jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, unda tovar ancha ma’naviy eskirgan, ibtidoiy ishlab chiqarish usullari yoki bo‘lmasa sanitariya-gigiyena talablariga nomuvofiq sharoitlarda ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq kamchiliklar nazarda tutilmoqda. Masalan, kolbasa mahsulotidan temir moddasining hidi kelib turishi, spirtli ichimlikdan kerosin hidining anqib turishi yoxud oziq-ovqat mahsulotlaridan hasharotlarning chiqib kelishi kabi. Bular – tabiiyki, oddiy iste’molchining ham ta’bini tirriq qiladi, ishtahasini bo‘g‘adi.

Tovarning tuzilishiga doir kamchiliklari uning shakl-shamoyili, miqdori, o‘lchami, fasoni, gabariti bilan bog‘liq kamchiliklardir. Masalan, 1-sinf o‘quvchisi uchun ishlab chiqarilgan «O‘qish kitobi»ning o‘ta mayda shriftda yozilishi yosh, hali go‘dak o‘quvchini ancha qiynab qo‘yadi.

Tovarning tarkibiga doir kamchiliklari uning sifati, sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq kamchiliklardir. Masalan, iste’mol uchun mo‘ljallangan yog‘ mahsulotida inson salomatligi uchun ancha zararli bo‘lgan moddalarning (xususan, xolesterin moddasining) ortiqligi, kostyum-shim materialining tarkibi uning artikulida yozilgan nisbatga to‘g‘ri kelmasligi kabi.

V-moddaning 3-qismi iste’molchining mavqeini yanada mustahkamlaydi. Unga ko‘ra, yuqoridagi muddatlarning o‘tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste’molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to‘laydi. Vaqt – oliy hakam. Vaqtning o‘tishi kimning foydasiga ishlaydi? Bir qarashda, iste’molchining foydasiga. Aslida hiqiqiy iste’molchi bundan manfaatdor emas. U huquqi buzilganligi darhol bartaraf qilinishiga, ko‘rilgan zararlarning qoplanishiga odatlangan bo‘lsa masala yanada chigallashadi. Qonunda belgilanayotgan mazkur neustoyka (ya’ni, qonuniy neustoyka. Bundan tashqari, shartnomaviy neustoyka ham bor) qaysidir ma’noda iste’molchini «yupatish»ga xizmat qiladi. Neustoyka – sotuvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashning usuli bo‘lib, majburiyat bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda kretitorga (ya’ni, ushbu munosabatlarda iste’molchiga) to‘lashi shart bo‘lgan pul summasidir. Uning ikki shakli bo‘lib, sotuvchi majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to‘laydigan va o‘tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka shaklidir. Demak, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste’molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir qatorda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to‘laydi. Qoidaga ko‘ra, penyaning miqdori tovar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to‘lash sotuvchi (ishlab chiqaruvchi)ni iste’molchiga asl tovarni berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

2. Ishni bajarish, xizmat ko‘rsatishdagi shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste’molchining huquqlari

Ijrochi ayrim turdagi ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) qoidalarida yoki shartnomada belgilangan muddatda, hajmda va sifatda ishni bajarishi (xizmat ko‘rsatishi) shart.

Ishni bajarish (xizmat ko‘rsatish) muddati ish bajarilishi (xizmat ko‘rsatilishi) lozim bo‘lgan sanaga (davrga), shuningdek ijrochi ishni bajarishga (xizmat ko‘rsatishga) kirishishi lozim bo‘lgan sanaga (davrga) qarab belgilanishi mumkin. Agar ish bajarish, xizmat ko‘rsatish shartnomaning amal qilish muddati davomida qismlarga bo‘lib-bo‘lib ado etiladigan bo‘lsa (vaqtli matbuotni yetkazib berish, texnik xizmat ko‘rsatish va boshqalar), ishlar bajarish (xizmatlar ko‘rsatish)ning bosqichma-bosqich muddatlari (davrlari) nazarda tutilishi kerak.

Agar ijrochi shartnomani ijro etishga o‘z vaqtida kirishmasa yoki shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo‘lib qolsa, iste’molchi ishni bajarish, xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomadan voz kechishga va yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Agar ijrochi shartnoma shartlarini ish (xizmat)ni yomonlashtirgan darajada jiddiy nuqsonlarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, iste’molchi o‘z xohishiga ko‘ra nuqsonlar bepul bartaraf etilishini, bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat) bahosi nuqsonlarga mutanosib ravishda kamaytirilishini, xudi shunday sifatli shu xildagi materialdan boshqa buyum bepul tayyorlab berilishini yoxud ishning takroran bajarilishini yoinki shartnoma bekor qilinib, ko‘rilgan zarar to‘liq qoplanishini talab qilishga haqli.

Iste’molchi ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan huquqlarni:

ishni (xizmatni) qabul qilib olish vaqtida yoki uning bajarilishi jarayonida nuqsonlar aniqlangan taqdirda;

kafolat muddati davomida, kafolat muddati bo‘lmagan taqdirda esa, ish (xizmat) qabul qilib olingan kundan e’tiboran olti oy davomida;

imorat yoki boshqa ko‘chmas mulkda nuqsonlar aniqlangan kundan e’tiboran ikki yil davomida ro‘yobga chiqarishi mumkin.

Ish bajarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish muddatlari shartnomada belgilab qo‘yiladi. Bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)dagi nuqsonlar, agar shartnomada birmuncha qisqaroq muddat belgilanmagan bo‘lma, iste’molchi talab qilgan kundan e’tiboran yigirma kun ichida ijrochi tomonidan bartaraf etilishi kerak. Nuqsonlar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan, shuningdek ish bajarishni (xizmat ko‘rsatishni) boshlash va tugallash kechiktirilgan taqdirda, ijrochi iste’molchiga har bir kechiktirilgan kun, soat (agar muddat soatlarda belgilangan bo‘lsa) uchun ish (xizmat) qiymatining yoki buyurtma qiymatining (agar uning qiymati alohida belgilanmagan bo‘lsa) bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to‘laydi.

Iste’molchi undirib olgan neustoyka (penya) summasi ish bajarish (xizmat ko‘rsatish)ning alohida turi bahosidan yoki buyurtmaning umuiiy bahosidan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Bajarilgan ishdagi nuqsonlarni bartaraf etish kechiktirilganligi uchun ijrochi to‘lagan neustoyka (penya) qoplanishi lozim bo‘lgan zarar hisobiga kirmaydi.

Ijrochining majburiyatni umuman yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka (penya) to‘lashi va zararni qoplashi uni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi.

Iste’molchidan qabul qilib olingan ashyo (material) yo‘qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda yoki iste’molchining materialidan foydalanib bajarilgan ishda jiddiy nuqsonlar bo‘lsa yoki u buzib bajarilgan taqdirda ijrochi iste’molchiga aynan o‘xshash sifatli ashyoni qaytarishi (o‘zining aynan o‘xshash sifatli materialidan ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatish), buning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa, ayoshning (materialning) talab qo‘yilgan paytdagi qiymatini ikki baravar qilib to‘lashi shart.

Ijrochi tomonidan ishlar bijarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun qabul qilib olinayotgan ashyo (material) qiymati shartnoma tuzish paytida tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Ishda (xizmatda) jiddiy nuqsonlar mavjud bo‘lganida yoki shartnoma talablari jiddiy buzilganida, shuningdek ashyo (material) yo‘qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda iste’molchi bilan hisob – kitob ishning (xizmatning) yoki materialning shartnomani bekor qilish paytidagi oshgan narxini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Sifatsiz bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat) tufayli iste’molchiga yetkazilgan zarar uchun ijrochi ushbu qonunning 20, 22, 27 29-moddalariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha iste’molchilar bilan ijrochi o‘rtasidagi munosabatlarning o‘z mohiyatiga

ko‘ra ushbu moddaga mos kelmaydigan xususiyatlari, shuningdek shartnomalarning umuman yoki lozim darajada ijro etilmaganligi tufayli kelib chiqadigan oqibatlar bunday shartnomalarning alohida turlari to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladigan qoidalar bilan aniqlanadi.

Qonun ijrochi va iste’molchi o‘rtasidagi ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) munosabatlariga nisbatan muddati, hajm va sifat mezonlarini o‘rnatadi. Unga muvofiq ijrochi ishni ayrim turdagi ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) qoidalari va iste’molchi bilan tuziladigan shu turkumdagi shartnomada belgilangan muddatda, hajmda va sifatda bajarishi lozim. Bu o‘rinda qonun asosiy e’tiborini ayrim turdagi ishlarni bajarish (xizmatlarni ko‘rsatish) qoidalarga qaratadi (bu holda normada «Qoidalar» shartnomaga qaraganda oldin ifodalanganligidan ham bilish qiyin emas). Shunday ekan ijrochi va iste’molchining ish bajarish (xizmat ko‘rsatish) muddatlari, hajmi va sifatini davlat tomonidan tartibga solinishi, bu holatlarni taraflarning o‘zlari tomonidan tartibga solinishiga qaraganda kengroq qo‘llanilishini bildiradi. Zero, iste’molchi ijrochi bilan bo‘lgan munosabatlarda unga nisbatan kamroq huquqlarga ega hisoblanadi va bunday holatda davlatning aralashuvi ana shunday notenglikka barhamberadi.

Ayrim turdagi ishlarni bajarish qoidalari bevosita Hukumat (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi) yoki tegishli vakolatga ega organ tomonidan chiqariladi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 12 oktyabrdagi 399-sonli qaroriga 5-ilovadagi «O‘zbekiston Respublikasi aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatish Qoidalari» huddi shunday me’yoriy hujjatdir.

Ish bajarish, xizmat ko‘rsatishning turli-tumanligini hisobga olib, Qonun ish bajarish (xizmat ko‘rsatish) muddatlarini belgilashda har bir ish bajarish (xizmat ko‘rsatish)ning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Qonunga muvofiq, agar ish bajarish, xizmat ko‘rsatish shartnomaning amal qilish muddati davomida qismlarga bo‘lib-bo‘lib ado etiladigan bo‘lsa (vaqtli matbuotni yetkazib berish, texnik xizmat ko‘rsatish va boshqalar), ishlar bajarish (xizmat ko‘rsatish)ning bosqichma-bosqich muddatlari (davrlari) nazarda tutilishi kerak.

Ma’lumki, vaqtli matbuot pochta xizmati tomonidan yetkazib beriladi. Lekin vaqtli matbuotni yetkazib berishda xususiy firmalar ham xizmat ko‘rsatishi mumkin.

Vaqtli matbuot doimiy ravishda nashr etilishini hisobga olib, ish bajaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasidagi shartnomada vaqtli matbuotni yetkazib berish hafta kunlari bilan belgilanadi. Masalan, «Xalq so‘zi» gazetasi haftaning seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba kunlari chiqishi tufayli ijrochi aynan shu kunlari gazetani iste’molchiga yetkazib berishi lozim bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor vaqtli matbuotni yetkazib berish kuni va yetkazib berish soatlariga qaratiladi. Zero, axborot asri hisoblangan XXI asrda axborotning «Yangi» va «Eski» ligi soatlar bilan emas daqiqalar bilan o‘lchanadi.

Ish bajarishning bosqichma-bosqich muddatlari nafaqat vaqtli matbuotni yetkazib berish, texnik xizmat ko‘rsatish sohalari, balki ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham keng qo‘llaniladi. Masalan, pudrat shartnomasida ish bajarishning ayrim bosqichlarini tugallash muddatlari (oraliq muddatlar) ko‘zda tutilishi mumkin (FKning 635-moddasi).

Qismlarga bo‘lib bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar bosqichma-bosqich muddatlar asosida amalga oshirilganda, bajariladigan ish va ko‘rsatiladigan xizmatning har bir qismidagi ketma-ketlik aniqlanishi zarur. Ya’ni, qaysi qismdan keyin ishning qaysi bosqichi bajarilishi zarurligi belgilanishi kerak. Aks holda mantiqiy bog‘lanish mavjud (vaqtli matbuotni yetkazib berishda) bo‘lmagan ishlar va xizmatlarda taraflar o‘rtasida turli kelishmovchiliklar vujudga kelishi mumkin.

Ijrochi shartnomani ijro etishga o‘z vaqtida kirishmasa, ya’ni turli vajlar bilan ishni bajarishga kirishishni orqaga sursa yoxud ish bajarishni juda sekinlik bilan olib borishidan, uning ishni belgilangan muddatda bajara olmasligi ayon bo‘lib qolsa, iste’molchi shartnomadan bir tomonlama voz kechishga va o‘ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Iste’molchining shartnomadan bir tomonlama voz kechish huquqi FKning 382-moddasiga muvofiq, 2-taraf (ya’ni, ijrochi) shartnomani jiddiy buzsa, amalga oshiriladi. Bu holatda esa ijrochi ishni bajarishga o‘z vaqtida kirishmasligi yoki uni o‘ta sekinlik bilan bajarish natijasida shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi oqibatida shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi. Bundan tashqari, ijrochining shartnoma shartlarini bajarishga kirishmasligi iste’molchining ushbu ish yoki xizmatga nisbatan qiziqishining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Shartnomani ijro etishga o‘z vaqtida kirishmagan va shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo‘lib qolgan hollarda ijrochi iste’molchiga yetkazilgan zararni qoplaydi. Bunda zarar miqdori va hajmi iste’molchi tomonidan isbotlanishi zarur. Bu holatda faqatgina iste’molchiga yetkazilgan haqiqiy zarar undiriladi. Boy berilgan foyda ish bajarish, xizmat ko‘rsatish shaxsiy manfaatlar, uy-ro‘zg‘or va tadbirkorlik bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarni ko‘zlaganligi uchun hisobga olinmaydi. Iste’molchiga yetkazilgan zarar tarkibiga uning ishni bajarish uchun qilgan harajatlari, ishni bajarish uchun sotib olgan materiallari, ishning bajarilishini kutib o‘tkazgan vaqti, ijrochini chaqirib kelishga bo‘lgan harakatlari kiradi. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o‘zgacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo‘lgan joyda, qarzdor kreditorlarning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo‘lmasa, olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to‘lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo‘lgan narxlarni e’tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin (FK 324-moddasining 2-qismi).

Qonun ijrochining shartnoma shartlarini buzishi va ish bajarilganda nuqsonlarga yo‘l qo‘yilganligi holatlari uchun, iste’molchiga bir necha huquqlarini talab qilish imkoniyatini beradi. Ya’ni, ijrochi quyidagi holatlar uchun iste’molchi oldida javobgardir:

1. Shartnoma shartlarini ish (xizmat)ni yomonlashtirgan darajada jiddiy buzgan bo‘lsa;
2. Ish (xizmat)da boshqa jiddiy nuqsonlarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa.

Ishni qabul qilish jarayonida iste’molchi ijrochining ishtirokida ish natijalarini ko‘rib chiqishi, ko‘zdan kechirishi mumkin. FKning 646-moddasiga muvofiq, ishni qabul qilish vaqtida uning kamchiliklarini aniqlagan buyurtmachi

(iste’molchi) bu kamchiliklar yoxud ularni tuzatish to‘g‘risida keyinchalik talab qo‘yishi mumkinligi dalolatnoma yoki qabul qilishni tasdiqlovchi boshqa hujjatda ko‘rsatilgan hollardagina ularni vaj qilib keltirishga haqli.

Buyurtmachi ishni tekshirmasdan qabul qilgan bo‘lsa, uni qabul qilishning oddiy usulida aniqlanishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar (ochiq ko‘rinib turgan kamchiliklar)ni dalil qilib keltirish huquqidan mahrum bo‘ladi.

Buyurtmachi ish qabul qilib olinganidan so‘ng unda pudrat shartnomasidan chekinishlar yoki ishni qabul qilishning oddiy usulida aniqlanishi mumkin bo‘lmagan boshqa xil kamchiliklar (yashirin kamchiliklar)ni, shu jumladan pudratchi qasddan yashirgan kamchiliklarni aniqlasa, ular aniqlanganidan so‘ng, o‘n kunlik muddat ichida bu to‘g‘rida pudratchiga xabar qilishi shart.

Buyurtmachi bilan pudratchi o‘rtasida bajarilgan ishning kamchiliklari yoki ularning sabablari yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, istagan tarafning talabi bo‘yicha ekspertiza tayinlanishi kerak. Ekspertiza o‘tkazish harajatlari pudratchi zimmasida bo‘ladi, ekspertiza pudrat shartnomasi buzilmaganligini yoki pudratchining harakatlari bilan aniqlangan kamchiliklar o‘rtasida sababiy bog‘lanish yo‘qligini aniqlagan hollarda mustasno. Bunday hollarda ekspertiza harajatlarini ekspertiza o‘tkazishni talab qilgan taraf, agar ekspertiza taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan tayinlangan bo‘lsa, ikkala taraf teng miqdorda to‘laydi.

Iste’molchi ijrochining ishni bajarish (xizmatni ko‘rsatish) jarayonini kuzatib turishi, zarur paytda ijrochidan ishning sifati va ish natijalarining chidami, ulardan foydalanish tartibi haqida hamda bajarilayotgan ishga taalluqli o‘zi bilishi kerak bo‘lgan boshqa holatlar haqida ijrochidan ma’lumot olishga haqli. Iste’molchi ishning bajarilish jarayonida nuqsonlarni aniqlasa, ushbu moddaning 4-qismidagi huquqlarni amalga oshirishi mumkin. Ma’lumki, kafolat muddati ishlab chiqaruvchi, ijrochi yoki sotuvchining o‘z tovari, bajargan ishi, ko‘rsatgan xizmati uchun, ularning belgilangan maqsadlarda benuqson ishlashiga nisbatan va tegishli nuqsonlar vujudga kelganda ularni bepul bartaraf etishni o‘z zimmasiga oladigan muddatdir (qonunning 1-moddasiga qarang). Umumiy qoidaga ko‘ra kafolat muddati ish natijasini tashkil etuvchi hamma narsaga tegishli bo‘ladi. Odatda, kafolat muddati iste’molchi bajarilgan ish natijasini qabul qilgan yoki qabul qilishi lozim bo‘lgan paytdan o‘ta boshlaydi.

Ishdagi nuqsonlarni bartaraf etish, kechiktirilganligi uchun iste’molchiga neustoyka to‘lashdan tashqari ijrochi unga yetkazilgan zararni ham qoplashi zarur. Bunda ijrochi to‘lagan neustoyka (penya) qoplanishi zarur bo‘lgan zarar hisobiga kirmaydi. Ya’ni, neustoyka va zarar alohida-alohida holda hisoblanishi va to‘lanishi lozim.

Umumiy qoidaga ko‘ra, neustoykaning to‘lanishi va zararning qoplanishi qarzdorni asosiy majburiyatni bajarishdan ozod etmaydi.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tovarning nuqsoni deganda nimani tushunasiz?
2. Tovarlarda qanday nuqsonlar uchraydi?
3. Tovarning ishlab chiqarishga doir kamchiliklariga qanday kamchiliklar kiradi?
4. Iste’molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari nimalardan iborat?
5. Shartnoma shartlarida nimalar ko‘rsatiladi?
6. Shartnoma qanday tuziladi?
7. Shartnoma shartlari buzilganda iste’molchi qanday huquqlarga ega?
8. Ijrochi shartnoma shartlarini bajarishga kirishmaganda iste’molchi qanday huquqlarga ega?
9. Ekspertiza qaysi holatda tayinlanadi?
10. Ekspertizaning vazifalari nimalardan iborat?

Mavzu 5. Iste’molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash

Reja:

1. Tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik
2. Iste’molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash
3. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzganlik uchun javobgarlik

1. Tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik

Tovar (ish, xizmat)ning tuzilishiga, ishlab chiqarilishiga, tarkibiga bog‘liq bo‘lgan va boshqa nuqsonlari, shuningdek iste’molchining hayoti, siog‘lig‘i yoki mol-mulkining xavfsizligini ta’min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo‘llanilishi oqibatida iste’molchining hayotiga, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan-kirishmaganidan qat’i nazar, har qanday iste’molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e’tiboran o‘n yil mobaynida yuzaga kelgan bo‘lsa, qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) zarar bartaraf qilib bo‘lmaydigan kuch yoki foydalanish, saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari iste’molchi tomonidan buzilishi tufayli yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Qonun tovarning quyidagi jihatlaridagi nuqsonlar uchun javobgarlikni belgilaydi:

1) tovarning tuzilishiga;

2) tovarning ishlab chiqarilishiga;
3) tovarning tarkibiga;
4) tovarning boshqa jihatlaridagi nuqsonlar.

Tovarning tuzilishi deganda, uning belgilangan shakli-shamoyili, mavjud standartlarga mosligi, muayyan tasavvur doirasidaligi, tegishli maqsad uchun foydalaniladigan tovar turkumidagi boshqa tovarlarga o‘xshashligi tushuniladi. Masalan, oddiy piyola yoki ruchkaning tuzilishini tasavvur qiladigan bo‘lsak, piyola konussimon shakldagi atrofi yassi qilib ishlangan suyuqlik iste’mol qilishga mo‘ljallangan predmet hisoblansa, ruchka o‘z shakli shamoyiliga ko‘ra qo‘lda yozish uchun qulay bo‘lgan ashyo hisoblanadi.

Iste’molchiga topshirilgan tovarda nuqsonning mavjudligi, iste’molchi tomonidan yetkazilgan zararni qoplashning talab qilinishiga asos bo‘ladi.

Tovarning ishlab chiqarilishidagi nuqson bu tovar (ayniqsa, maxsus idish va o‘ramda sotiladigan tovarlar)dagi uni ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan, lekin oddiy ko‘zdan kechirish jarayonida aniqlashning imkoni bo‘lmagan kamchiliklar hisoblanib, tovardagi bunday nuqsonlar u ishlab chiqarilib tegishli sotuvchilarga topshirilishidan oldin vujudga kelgan bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarilishi davomida tovarda vujudga kelgan kamchilik (nuqson)ni ishlab chiqaruvchi bilan yoki bilmaganligidan qat’i nazar iste’molchi oldida javobgardir. Zero, bunday nuqson tovar ishlab chiqarilish jarayonidagi kamchilik va tovar ishlab chiqaruvchining ishga bo‘lgan noto‘g‘ri munosabatidan kelib chiqqan hisoblanadi.

Umumiy qoidaga ko‘ra ishlab chiqaruvchi iste’molchilar huquqlari va qonuniy manfaatlari ustunligi tamoyilidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi lozim. Shu munosabat bilan qonun chiqaruvchi tovarning ishlab chiqarilishidagi nuqsonlar uchun javobgarlik holatini belgilaydi. Inchinun, bunday me’yorning mavjudligi iste’molchi huquq va manfaatlarining buzilmasligi uchun unga qarshi turgan barcha shaxslarning mas’ulligini kafolatlaydi.

Tovarning tarkibi atamasi o‘zida tovarning butligi, uning komplekti iboralarini ifodalaydi. Odatda «tarkib» so‘zi murakkab ashyolar (agar turli xil ashyolar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo‘yicha foydalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo (murakkab ashyo) hisoblanadi. FKning 91-moddasi)ga nisbatan ishlatiladi. Lekin, tovarning tarkibiga nafaqat muayyan qismlar, balki umumiylikka ega bo‘lgan bir necha alohida (mustaqil) ashyolar ham kiradi.

FKning 1017-moddasiga muvofiq, tovarning (ishning, xizmatning) konstruktiv, resepturaviy nuqsonlari tufayli yetkazilgan zarar qoplinishi lozim. Shu o‘rinda tovarning konstruktiv jihati deganda, uning tashqi tuzilishi, muayyan qoidaga mos keluvchi qurilishi tushunilishini eslatib o‘tish zarur.

Resepturaviy nuqsonlar esa tovarning ichki tuzilishi, tarkibi va tovardan foydalanish qoidalaridagi kamchiliklar bo‘lib, bunday nuqsonlar odatda, iste’molchining e’tirozi asosida mutaxassislar tomonidan aniqlanadi. Har qanday tovar sotilayotganda, uning tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tovarning o‘zida yoki tovarga qo‘shib haridor (iste’molchi)ga topshiriladigan boshqa hujjatda ko‘rsatilishi kerak. Umumiy qoidaga ko‘ra bunday hujjatlar mansub ashyo va

hujjatlar hisoblanadi hamda bunday hujjatlarning iste’molchiga qo‘shib topshirilmasligi uchun sotib oluvchi javobgar bo‘ladi. Mansub ashyo va hujjatlar jumlasiga tovarning sifat sertifikati, tovardan foydalanish yo‘riqnomasi, texnik pasport, televizor uchun pult va h.k. lar kiradi. Bunday ashyo va hujjatlarni topshirmagan souvchi sotib oluvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) zararni qoplashi lozim bo‘lgan holat sifatida Qonun iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkining xavfsizligini ta’min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar yoki boshqa vositalar qo‘llanilishi oqibatida iste’molchining hayotiga, sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararni keltirib o‘tadi. Iste’molchiga taqdim etilayotgan har qanday tovar, ish, xizmat yoki boshqa narsalar uning hayotiga, sog‘lig‘iga va mol-mulkiga zarar yetishi xavfini tug‘dirmasligi lozim. Shu jumladan, ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatishda ijrochi tomonidan qo‘llanilayotgan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar va boshqa vositalar (masalan, ish bajarishda ijrochi tomonidan foydalanilayotgan transport vositasi yoki boshqa oshiqcha xavf manbai) ham iste’molchining yuqorida sanab o‘tilgan sub’ektiv huquqlariga zarar yetkazmasligi zarur.

Ishning (xizmatning) nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zarar ishni bajargan yoki xizmatni ko‘rsatgan shaxs (ijrochi) tomonidan qoplinishi lozim. Zero, zarar iste’molchiga aynan shu shaxslar tomonidan yetkaziladi. Bundan tashqari, iste’molchi bilan munosabatga kirishgan tomonlar ham sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) va ijrochi (pudratchi, masalan, maishiy pudrat shartnomasida iste’molchi bilan aynan pudratchi shartnomaviy munosabatga kirishadi) deb ataladi.

Umumiy qoidaga ko‘ra iste’molchi deganda, tovar sotib olgan, ish xizmatga buyurtma bergan shaxs (fuqaro)lar tushuniladi. Lekin Qonunda iste’molchi deganda, tovar sotib olmagan, ish yoki xizmatga buyurtma bermagan, biroq tovardan yoki ish va xizmatning natijasidan foydalangan shaxslar ham iste’molchi hisoblanishi ta’kidlangan. Bunda, tovardan yoki ish va xizmatning natijasidan foydalangan shaxslarning tovarni sotib olgan yoki ish xizmatga buyurtma bergan shaxs bilan qanday shaxslar ham iste’molchi hisoblanadi va tovar, ish yoki xizmat natijasida o‘ziga yetkazilgan har qanday zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir. Ularning sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan-kirishmaganligi ahamiyatga ega emas. Muhimi tovar (ish, xizmat) kimdan sotib olinganligi (ish yoki xizmat kim tomonidan bajarilganligi)ni aniqlash, bu tovarni kim ishlab chiqarganligini bilish hisoblanadi. Iste’molchining (ya’ni, zarar yetkazilgan iste’molchining) sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma tuzgan yoki tuzmaganligidan qat’i nazar, har qanday iste’molchining tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilish huquqiga egaligi, bu iste’molchining mutloq huquqi hisoblansada, uning sub’ektiv huquqi sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qonun iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararning qoplinishi lozim bo‘lgan muddatlarni belgilaydi:

1) normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida;
2) bunday moddalar belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e'tiboran o‘n yil mobaynida.

Ma'lumki, yaroqlilik muddati va xizmat muddati davomida tovar (ish yoki xizmat)ning benuqson ishlashi va xizmat qilishi yuzasidan javobgarlikni sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o‘z zimmasiga oladi. Zero, bunday holatlar normativ hujjatlarda qat'iy o‘rnatilib qo‘yiladi. Ana shu muddat davomida iste'molchiga yetkazilgan zarar uchun Qonun javobgarlikni belgilaydi. Bunday muddat o‘tgandan vujudga kelgan zarar uchun javobgarlik yuzaga kelmaydi.

Har qanday tovarlarga nisbatan ham normativ hujjatlarda xizmat (yaroqlilik) muddatlari belgilanmasligi sababli Qonun, uzoq muddat foydalanishga mo‘ljallangan tovarlarni nazarda tutib, bunday tovarlarning nuqsonlari tufayli yetkazilgan zararni qoplash uchun o‘n yillik (ancha uzoq) muddatni belgilaydi. Ana shu o‘n yil mobaynida tovar (ish, xizmat)dagi nuqsonlar tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar qoplansa, o‘n yildan so‘ng yetkazilgan zarar qoplanmaydi.

2. Iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash

Davlat iste'molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog‘idagi huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste'molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek sudlar ta'minlaydilar.

Quyidagilar iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir: O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi; O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi; O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi; O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o‘z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari.

Qonunning sharhlanayotgan moddasida iste'molchilar huquqlari o‘z aksini topgan. Bu modda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida e'tirof etilgan norma bilan hamohangdir. Ya'ni, Konstitutsiyaning yuqorida zikr etilgan moddasida, davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi, - deb ko‘rsatilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) manfaatlari teng kelib qolganda ustuvorlik iste'molchi tomonidan bo‘ladi. Bu holat jamiyatda keng tarqalgan «iste'molchi hamisha haq» degan tamoyil amalda bo‘lishiga zamin yaratadi.

Aholining iste'molga bo‘lgan ehtiyojlarini sotuvchilar, ishlab chiqaruvchilar, ish va xizmatlarni bajaruvchilar ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ular

o‘zlariga qulay shartlarda iste’molchining tovar va xizmatlarni sotib olishiga undaydilar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida aksariyat hollarda tovarlarning salmoqli qismi sifat jihatidan pastligi, eng xavotirga soladigani ularning insonning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi bilan harakterlanadi. Xuddi shuning uchun ham har bir iste’molchi huquqlarining himoyasi va kafolati uchun davlat himoyasi zarurdir. Ma’lumki, davlatning asosiy belgilaridan biri, bu – uning yuridik kuchga ega bo‘lgan, huquq normalarini o‘zida aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqarilgan me’yoriy hujjatlarni qabul qilish hisoblanadi. Davlat o‘zi qabul qilayotgan qonunlar orqali ishlab chiqaruvchilarni sifatli mahsulot chiqarishga, ish va xizmatlar ko‘rsatuvchilarni, chetdan tovarlarni import qiluvchilarni o‘z faoliyatlarini iste’molchilar manfaatlaridan kelib chiqib belgilashga, ularning huquqlarini inobatga olgan holda faoliyat ko‘rsatishga undaydi. Ana shunday holatlarni o‘zida ifodalagan qonunchilik iste’molchi ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solishini davlat ta’minlashi zarur.

Ma’lumki, davlat vazifalari va funksiyalarini davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari amalga oshiradilar. Shu ma’noda iste’molchilar huquqlarini himoya qilish yuzasidan davlatning funksiyalari davlat hokimiyati boshqaruvi organlari, sudlar tomonidan amalga oshiriladi va iste’molchilar huquqlari himoyasi aynan shu organlar orqali ta’minlanadi.

Konstitutsiyaning 11-moddasida O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi deyilgan. Bundan kelib chiqib, iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlarni qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlis chiqaradi, uning ijrosini, ushbu qonunlarga amal qilishni va ularda mustahkamlangan iste’molchilar huquqlarining buzilmasligini ijro etuvchi organ, ya’ni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ta’minlash choralarini ko‘radi. Sud hokimiyati esa, iste’molchilarning buzilgan huquqlarini tiklashni, ya’ni javobgarlarni aniqlashni va tegishli tartibda javobgarlikka tortishni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi 1993 yil 28 dekabr Qonun – Respublikamiz hududiga chetdan olib kiriladigan, mahsulotlarning aholiga realizatsiya qilinishida inson sog‘lig‘iga xavfsiz hamda sifati lozim darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan.

«Atrof-muhitni himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – insonning toza va sog‘lom atrof muhitda yashashga bo‘lgan huquqiga asosiy e’tiborni qaratadi.

«Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi 1997 yil 30 avgust Qonuni – oziq-ovqat mahsulotlarini sifati va xavfsizligi bo‘yicha, ularni ishlab chiqarish materiallari, qadoqlash, o‘rash, markirovka qilish, saqlash, tashish hamda realizatsiya qilishga oid talablarni belgilaydi. Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat nazorati va tekshiruvi tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi o‘z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 oktyabrdagi 342-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va

sertifikatlashtirish agentligi («O‘zstandart» agentligi) to‘g‘risida»gi Nizomiga asosan amalga oshiradi. Unga asosan «O‘zstandart» agentligi quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolati doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi va rioya etilishi majburiy bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qarorlar qabul qilish va normativ hujjatlar chiqarish;

standartlashtirish, metrologiya, mahsulotlarni sinash va sertifikatlashtirish masalalarini hal etish uchun davlat boshqaruv organlarini, yuridik shaxslar birlashmalarini, korxonalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarini jalb etish;

qonunlar hamda boshqa qonunchilik va normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda Hukumatga kiritish, standartlashtirish, metrologiya, mahsulotlar va xizmatlar sifatini sertifikatlashtirish va nazorat qilish masalalari bo‘yicha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan xulosalar berish;

davlat boshqaruv organlari, xo‘jalik birlashmalari, korxonalar, tashkilotlar va respublika jamoat birlashmalaridan «O‘zstandart» agentligiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va materiallarni olish;

xo‘jalik birlashmalaridan standartlashtirish bo‘yicha bazaviy tashkilotlar va texnik qo‘mitalar tashkil etishni talab qilish;

standartlashtirish, metrologiya, respublika xalq xo‘jaligi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarni sinash va sertifikatlashtirish muammolarini ko‘rib chiqish bo‘yicha vaqtinchalik ilmiy-texnika komissiyalari tuzish;

idoraviy mansubligi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan standartlar va texnik shartlarga rioya qilinishi, o‘lchovlarning, sertifikatlashning yagonaligi ta’minlanishi, iste’molchilar va davlat manfaatlarini, shu jumladan odamlarning hayoti va salomatligi uchun xavfsizlik, atrof-muhitning muhofaza qilinishi, mahsulotlarning muvofiqligi va o‘zaro bir-birining o‘rnini bosuvchanligi, resurslarni tejash, ularni nazorat qilish metodlarining yagonaligi va markirovka qilinishining yagonaligi bilan bog‘liq standartlar va texnik shartlar talablari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarni himoya qilish maqsadida, shuningdek eksportga yetkazib berilayotgan va import bo‘yicha olinayotgan mahsulotlar sifati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

davlat metrologiya nazoratini o‘tkazish;

nazorat qilinayotgan mahsulotlar ko‘rsatkichlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish maqsadida sotish va saqlash korxonalarida nazorat haridini o‘tkazish yo‘li bilan mahsulotlar sifatining davlat nazoratini o‘tkazish;

standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish qoidalari buzilganligi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ta’sir ko‘rsatishning huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlarini qo‘llash;

mahsulotning texnik darajasi va sifatini oshirishni ta’minlamaydigan hamda iste’molchilar talablariga va amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lgan normativ hujjatlarni bekor qilish, ularning amal qilish muddatini cheklash yoki qayta ko‘rib

chiqish to‘g‘risida attestat (guvohnomalar)ni bekor qilish va ularning amal qilishini to‘xtatib qo‘yish;

mahsulotlar, xizmatlar, sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish va muvofiqlik sertifikatlari berish;

standartlarda va texnik shartlarda mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar sifatiga nisbatan aholi turmushi va salomatligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, muvofiqlik, o‘zaro bir-birining o‘rnini bosishni va resurslarni tejashni ta’minlashga yo‘naltirilgan talablarni belgilash;

standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida xalqaro loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish va malga oshirishda qatnashish kabi vakolatlarni amalga oshiradilar.

3. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari, agar ishlab chiqaruvchi, sotuvchi iste’molchilar huquqlarining buzilishini bartaraf etish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarni bajarishdan bo‘yin tovlasa yoki o‘z vaqtida bajarmasa, unga jarima solishga haqli.

O‘zstandart agentligi:

1) tovarlarni majburiy sertifikatlashtirish qoidalari ishlab chiqaruvchi tomonidan buzilsa;
2) o‘zlarining ko‘rsatmalarini ishlab chiqaruvi (sotuvchi, ijrochi) bajarishdan bo‘yin tovlasa, o‘z vaqtida yoki lozim darajada bajarmasa;
3) normativ hujjat talablariga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat) tufayli iste’molchilarga zarar yetkazilsa, jarimalar solishga haqlidir.

Jarima miqdori va uni undirish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Jarima so‘zsiz undirib olinadi.

Qaysi holatlarda O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni quvvatlash davlat qo‘mitasi jarimalar soladi.

1) yaroqlilik muddati o‘tib ketgan yoki qonun hujjatlarida yaroqlilik muddatlari majburiy ravishda ko‘rsatilishi belgilangan bo‘lsa ham yaroqlilik muddatlari ko‘rsatilmagan tovarlarni sotish uchun qabul qilganlik va sotganlik uchun eng kam oylik ish haqining 500 baravari miqdorida;
2) tovarning sotib olinganligini yoki ishning haqi to‘langanligini tasdiqlovchi, tovarning bahosi haqidagi ma’lumot ko‘rsatilgan kassa va tovar cheklari hamda boshqa hujjatlar iste’molchiga berilmasdan tovarlar sotilganligi yoki xizmatlar ko‘rsatilganligi uchun eng kam oylik ish haqining 100 baravari miqdorida;
3) ishlab chiqaruvchi to‘g‘risidagi zarur axborot, tovar (ish, xizmat) to‘g‘risidagi axborot mavjud ekanligi, shuningdek tovarni almashtirish tartibi va shartlari bajarilmaganligi uchun eng kam oylik ish haqining 70 baravari miqdorida;

4) tovar (ish, xizmat) to‘g‘risida ishonchli bo‘lmagan yoki yetarlicha to‘lik bo‘lmagan axborot berilganligi eng kam oylik ish haqining 50 baravari miqdorida jarima solishga haqli.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlikni qanday tushunasiz?
2. Qaysi organlar iste’molchilarning huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlaydi?
3. «O‘zbekiston» agentligining iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntirib bering.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntiring.
5. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntiring.
6. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntiring.
7. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish, to‘g‘risidagi Qonun hujjatlarini buzganlik uchun qanday javobgarlik qo‘llaniladi?

Mavzu 6. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi va boshqa joriy qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli.
2. «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi bilan iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi monandligi.

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi va boshqa joriy qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli

Bevosita iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq bir qator xalqaro qonun hujjatlari, shartnomalar va bitimlar mavjud.

1. BMTning Iste’molchilar manfaatlari himoyasiga oid rezolyutsiyasi.
2. 1973 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati Kengashi tomonidan qabul qilingan Iste’molchilar huquqlari hartiyasi.

3. EIHK tomonidan 1981 yil 19 maydagi Iste’molchilar huquqlarining himoyasi va informatsion siyosatga oid Dastlabki (birinchi) va Ikkinchi dasturlari.
4. MDHga azo davlatlar Parlamentlararo Assambleyasining 1995 yil 13 maydagi Sankt-Peterburg shahrida imzolangan «Parlamentlararo Assombleyasi qatnashchisi bo‘lgan davlatlarning iste’molchilar huquqlari himoyasini tartibga solishning umumiy tamoyillari haqida»gi tavsiyaviy harakterdagi qarori.

Avvalo shuni aytish zarurki, iste’molchilar huquqlarini asosiy qomusimiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstiutsiyasi himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga ko‘ra iste’molchilar huquqlarini himoya qilish umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ya’ni inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hsoblanadi.

Inson o‘z shaxsiy hayoti uchun tovar sotib olishdan, muayyan xizmatlardan foydalanishdan va ishlar bajarilishi natijasidan manfaatdor ekan, u iste’molchi sifatida o‘z hayotini go‘yoki «garovga» qo‘yadi. Chunki nuqsonli, sifatsiz, foydalanishga yaroqsiz tovar (ish, xizmat) uning hayotiga, sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

«Iste’molchi hamisha haq» tamoyili O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga muvofiq, iste’molchiga o‘zi buzilgan huquqini, manfaatini sud orqali tiklash imkonini beradi. Ushbu moddaga asosan «har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi».

«Davlat butun xalqning manfaatlarini ko‘zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo‘lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo‘nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro‘yobga chiqarishi kerak» (I. Karimov).

Davlat bosh islohotchi sifatida har qanday mamlakatni rivojlantirish yo‘lida islohatlarni amalga oshirar ekan, avvalo, inson manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Inson esa jamiyatda asosiy fuqarolik munosabatlarida iste’molchi sifatida gavdalanadi. Aynan shu holat ham mamlakatimiz Bosh qonunida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida ta’kidla-nishicha, davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining tengligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Iste’molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi qonun hujjatlari orasida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Zero, iste’molchi va ularning huquqlarini himoya qilish fuqarolik-huquqiy munosabat bo‘lib, uning o‘rganish predmeti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi II qismdan iborat bo‘lib quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1-bo‘lim. Umumiy qoidalar

2-bo‘lim. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar.

3-bo‘lim. Majburiyat huquqi.

4-bo‘lim. Intellektual mulk.

5-bo‘lim. Vorislik huquqi.

6-bo‘lim. Xalqaro xususiy hulq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq etish.

Jami moddalar (statya) 1199 ta.

Fuqarolik kodeksi asosan mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Fuqaro iste’molchi sifatida ijtimoiy munosabatga kirishganda u mulkiy mazmun kasb etadi.

Fuqarolik kodeksining 3-moddasi «Fuqarolik qonun hujjatlari» deb nomlanib, uning ikkinchi qismiga asosan boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridagi fuqarolik qonun hujjatlari normalari fuqarolik kodeksiga mos kelishi kerak. Demak, fuqarolik huquqiy munosabatlardan biri – iste’molchi bilan bog‘liq munosabatni tartibga soluvchi «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun ham fuqarolik kodeksi talablariga mos kelishi talab qilinadi. Agar fuqarolik kodeksi va «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunda bir-biriga mos kelmaydigan, qarama-qarshi normalar mavjud bo‘lsa, amaliyotda qo‘llashda fuqarolik kodeksi ustivor hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun fuqarolik qonun hujjatlari jumlasiga kiradi va unga nisbatan bevosita yoki bilvosita fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari tatbiq qilinadi.

2. «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi bilan iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi monandligi

Ma’lumki, har qanday qonunda muayyan o‘ziga xos atamalar, iboralar mavjud bo‘ladi. Ko‘p hollarda turmushda ushbu iboralar va atamalar turli mazmun kasb etishi va turlicha ma’noda talqin etilishi mumkin. Bu esa qonunlar mazmunini to‘g‘ri anglab yetish va ularni ijro etishga xalaqit beradi. Xuddi shu sababli «Iste’molchilarning huquqini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 1-moddasida ushbu qonunda qo‘llanilgan asosiy tushunchalarga ta’rif berilgan.

«Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 1-moddasida iste’molchi tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: iste’molchi – foyda chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsiy iste’mol va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan fuqaro (jismoniy shaxs) hisoblanadi. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, faqatgina jismoniy shaxs iste’molchi bo‘lishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 16-moddasiga asosan jismoniy shaxs deganda, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. Jismoniy shaxs huquq sub’ekti sifatida qanday belgilarga ega bo‘lishi kerak, degan savol tug‘ilishi mumkin. Ma’lumki, fuqaro muayyan majburiyat munosabatlarida qatnashish, yirik summalarda bitimlar tuzish uchun muomula layoqatiga ega bo‘lishi kerak. Biroq, iste’molchi maqomini olish uchun

hech qanday muomala layoqati talab etilmaydi. Fuqaroning huquqiy layoqatiga ega bo‘lishi kifoya.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksining 17-moddasiga asosan, fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Fuqarolar huquq layoqatining mazmuni 18-soddada berilgan. Bu moddaga asosan fuqarolar:

Mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo‘lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari; tadbirkorlik, (dehqon) fermer xo‘jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo‘yilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishlari; mashg‘ulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san’at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo‘lishlari mumkin. Fuqarolar boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlariga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Bu o‘rinda shuni ham e’tirof etish lozimki, jismoniy shaxsnigina iste’molchi sifatida tan olinishi zamirida chuqur ma’no yotadi. Har qanday jismoniy shaxs eng avvalo, biologik mavjudot, u yashashi, hayot kechirishi uchun oziq-ovqat, kiyim-bosh, turarjoy va shu kabilarni iste’mol qilish va ulardan foydalanishi shart. Uning bu ehtiyojlari faqat kishilik jamiyatida qondirilishi mumkin.

Ayni vaqtda inson sotsial mavjudot ham, u shaxs sifati jamiyatda, fuqaro sifatida davlatda harakat qilish uchun muayyan ijtimoiy xizmatlarga, tovarlarga, bilim va axborotlar olishga, transport, kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va shu kabilarga ehtiyoj sezadi.

Jismoniy shaxsning biologik va sotsial mavjudot sifatidagi ehtiyojlari bu ehtiyojlarni qondirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu ehtiyojlarni qondirmay turib, barkamol insonni, shaxsni, fuqaroni shakllantirib bo‘lmaydi. Shu sababli ham insonning moddiy, maishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish – bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifadir. Aslini olganda jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlar, iqtisodiy tuzilmalar inson mavjudligi uchun bor va unga xizmat qiladi. Eng asosiysi shundan iboratki, inson mavjudligi uchun har kuni o‘nlab tovar ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va ish bajaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar bilan huquqiy munosabatlarga kirishadi. Bu huquqiy munosabatlarning pirovard maqsadi insonning moddiy, ma’naviy va maishiy ehtiyojlarini to‘la va samarali qondirish hisoblanadi. Demak, bunday holatda, tovarlar, ishlar, xizmatlardan bevosita o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadigan shaxs alohida huquqiy maqomga ega bo‘lishi lozim va bunday maqom iste’molchi huquqiy maqomi hisoblanadi.

Fuqarolik Kodeksining 425-moddasining (chakana oldi-sotdi shartnomasi) 1-qismida ham iste’molchi tushunchasi mazmunini ochib beruvchi belgilar mujassamlashgan. Unga ko‘ra fuqaro chakana oldi-sotdi shartnomasi orqali shaxsiy maqsadlar, ro‘zg‘orda yoki tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda tovar sotib olgan ham iste’molchi hisoblanadi.

«Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida sanab o‘tilgan iste’mol-chilarning asosiy huquqlari qatoriga iste’molchilarning bilim olishga bo‘lgan huquqini ham kiritish lozim. Shuningdek qonunga alohida «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasida iste’molchilarning bilim olishga bo‘lgan huquqi» deb nomlangan moddani kiritish ham maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Chunki iste’molchilar ham o‘zlarining huquqlari haqida yetarli bilimga ega emaslar. Bozor iqtisodiyoti iste’mol bozorida barcha iste’molchilarning ushbu bilimlarga ega bo‘lishlarini taqozo etadi.

Iste’molchilarning asosiy huquqlaridan yana biri, bu ishlab chiqaruvchilar tomonidan iste’molchilarga taqdim etilayotgan tovar (ish, xizmat)lar natijalarini tegishli darajada sifatli bo‘lishiga bo‘lgan huquqlar. Shu jihatdan Qonunning 8-moddasining mazmuni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining «Tovarning sifatini tekshirish» deb nomlangan 407-moddasi mazmuniga yaqin. Ammo ular o‘rtasida bevosita nomutanosiblik mavjud. FKning ushbu moddasida tovar sifatini tekshirish shartnomada yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi nazarda tutilgan. FKida jumladan shunday deyilgan: «Agar qonun hujjatlarida, shu jumladan davlat standartlarida, yoki oldi-sotdi shartnomasida sotuvchining sotib oluvchiga topshiriladigan tovar sifatini tekshirish (sinash, aynan tahlil qilish, ko‘zdan kechirish va hokazo) majburiyati nazarda tutilgan bo‘lsa, sotuv oluvchining talabi bilan sotuvchi unga tovar sifati tekshirilganligining isbotini taqdim qilishi lozim». Qonunning 8-moddasining oxirgi bandida esa bunday deyilgan: «Iste’molchi sotib olingan tovar (ish, xizmat) sifatini, butligini, vazni va narxini tekshirish huquqiga ega, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) esa, nazorat-o‘lchov asboblarini, narxga doir hujjatlarini taqdim etishi, tovarni ishlatib ko‘rsatishi, undan xavfsiz va to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatishi, zarurat bo‘lsa, tovarni ekspertizaga yuborishi shart».

«Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 22-moddasi «Ma’naviy zarar uchun haq to‘lash» deb yuritiladi. Bunda iste’molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma’naviy zarar uchun uni yetkazgan shaxs, basharti u aybdor bo‘lsa, haq to‘lashi lozim. Ma’naviy zarar uchun to‘lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi. Ma’naviy zarar uchun haq to‘lash mulkiy ziyon va iste’molchi ko‘rgan zararning o‘rni qoplanishidan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Ma’naviy zarar deganda, iste’molchi huquqlari buzilganda unga yetkazilgan jismoniy og‘riqlar, ruhiy iztiroblar, qiynoqlar tushuniladi. Fuqarolik kodeksining 1022 moddasida ma’naviy zarar xuddi shu ma’noda talqin qilinadi.

Quyidagilar ushbu norma orqali ma’naviy zararni undirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi:

a) iste’molchi huquqlarining buzilishi. Bu huquqlar 4-moddada keltirilgan. Ushbu huquqlar iste’molchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan tadbirkorlik sub’ekti (tovar sotuvchi, ish bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi) tomonidan buzilgan bo‘lishi mumkin. Ayni vaqtda shuni ham unutmaslik kerakki, garchi iste’molchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmagan bo‘lsa ham, tovarlar, ish, xizmatlardan foydalanish jarayonida fuqaroga ma’naviy zarar yetsa, u

holda ushbu tovarlarni sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi sub’ekt) ma’naviy zararni pul ko‘rinishida qoplashi shart.

b) iste’molchiga ma’naviy zarar yetkazuvchining aybi mavjud bo‘lishi. Bunda ayb har qanday shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

v) ma’naviy ziyonning mavjudligi. Yuqorida aytilganidek, ma’naviy zarar iste’molchi huquqlari buzilganligi sababli unga yetkazilgan jismoniy azob-uqubatlar va ruhiy psixologik qiynalishlar, iztiroblar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy zarar yetkazilganligi faktini aniqlashda jabrlanuvchi – iste’molchining tibbiy kartasidagi qaydlar, tibbiy ekspertiza, ruhiy ekspertiza yakuniy xulosalari muhim rol o‘ynaydi.

Ma’naviy zarar iste’molchi va tovar ishlab chiqaruvchi, o‘rtasida ixtiyoriy kelishuv asosida ham, sud qarori asosida ham qoplanishi mumkin.

Ma’naviy zarar jinoyat natijasida, ma’muriy huquqbuzarlik yoxud fuqarolik huquqbuzarligi orqasida 1021-1022 – moddalarida belgilangan qoidalar asosida qoplanadi. Ma’naviy zararni pul ko‘rinishida qoplash miqdorini sud belgilaydi. Sud bunda o‘z holicha ish tutmasdan, balki FKning yuqoridagi normalarni va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000 yil 28 aprelida qabul qilingan «Ma’naviy zarar qoplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi qarori asosida ish ko‘radi.

FKda ma’naviy zararni qoplash miqdorini aniqlash mezonlari aniq-ravshan ko‘rsatilgan. Binobarin, sud bunda birinchi galda e’tiborga olishi lozim bo‘lgan holat, bu huquqbuzarning aybi bor yoki yo‘qligidir. Odatda, ma’naviy zarar huquqbuzarning aybi bo‘lgan holatdagina qoplanadi.

Quyidagilar ma’naviy zararni qoplash miqdorini aniqlash mezonlari bo‘lib hisoblanadi:

1. Jabrlanuvchi iste’molchiga yetkazilgan jismoniy va ma’naviy azoblarning xususiyatlari:

   a) zarar yetkazilgan haqiqiy holat (ya’ni, zarar yetkazish usuli, oqibatlari, huquqbuzarlikning sodir bo‘lish shart-sharoitlari va shu kabilar);

   b) jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari (o‘ziga og‘ir olgani, jinsi, oilaviy holati, xizmati, sog‘ligi, yoshi, jamiyatdagi mavqei va shu kabilar).
2. Zarur yetkazuvchining aybdorlik darajasi (qasddan, g‘arazli maqsadlarda sodir etgani, ko‘zlagan maqsadi va ko‘rgan manfaati va shu kabilar) hisobga olinadi.
3. Oqilonalik talablari (ya’ni, huquqbuzarning shaxsiy va mulkiy holati, uning ma’naviy zararni qoplash bo‘yicha sa’y-harakatlari va imkoniyatlari, jabrlanuvchining mulkiy holati), oladigan tovon pulini uning azob-uqubatlarini bartaraf etishga ta’siri va shu kabilar.
4. Adolat talablari (to‘lanadigan pul miqdori va ma’naviy zarar harakteri o‘rtasida mutanosiblik, to‘lanadigan tavon huquqbuzarni hushyor tortirishga, tarbiyalanishiga, qayta tuzilishiga xizmat qilishi) ham e’tiborga olinishi zarur.

Yana bir jihatni unutmaslik lozim. Anglosakson huquq tizimida ma’naviy zararni undirishda asosiy mezon-zarar yetkazuvchining mulkiy holati hisoblanadi.

Agar u o‘ta boy bo‘lsa, u to‘laydigan tavon puli ham shu qadar katta hajmda belgilanadi.

Tayanch iboralar: mulk huquqi, majburiyat huquqi, intellektual huquq, muomula layoqati, huquqiy layoqati, ma’naviy zarar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Iste’molchilar huquqlarini himoya qiluvchi qanday xalqaro hujjutlar mavjud?
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi necha bo‘limdan tashkil topgan?
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kadeksi necha moddadan tashkil topgan?
4. Fuqaroning (iste’molchining) huquq layoqatini qanday tushunasiz?
5. Fuqaroning muomula layoqatini qanday tushunasiz?
6. Fuqarolik kodeksining qaysi moddalari iste’molchini himoya qilishga qaratilgan?
7. Fuqarolik kodeksining «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni bilan monandligi nimada?
8. Fuqarolik kodeksining 1022 soddasiga binoan ma’naviy zararni undirish uchun nimalar asos bo‘lib hisoblanadi?
9. Iste’molchilarga yetkazilgan ma’naviy zararni undirishda asosiy me’zonlar nimalar hisoblanadi?
10. Ma’naviy zararni qoplash fuqarolik kodeksining qaysi moddalarida keltirilgan?

Mavzu 7. Moliyaviy xizmatlar sohasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish va sud orqali iste’molchilar huquqlarini himoya qilish

Reja:

1. Moliyaviy xizmatlar sohasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish
2. Sud orqali iste’molchilar huquqlarini himoya qilish

1. Moliyaviy xizmatlar sohasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan ijrochi o‘zining tugatilishi yoki bankrot bo‘lishi ehtimolini nazarda tutgan holda iste’molchilarning talablarini qondirish maqsadida o‘z javobgarligini sug‘urta qildirishi shart.

Moliyaviy xizmatlar ijrochisi iste’molchiga yetkazilgan zarar uchun o‘zining jivobgarligi to‘g‘risida sug‘urta shartnomasi borligi haqida iste’molchiga axborot berishi shart.

Moliyaviy xizmatlar jumlasiga nimalar kiradi va ular iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishda qanday ahamiyatga ega? Moliyaviy xizmatlar jumlasiga banklar tomonidan fuqarolarni unga qo‘ygan omonatlarini saqlash borasidagi xizmatlar, qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilgan emitentlar tomonidan qimmatli qog‘oz egalariga qilinadigan xizmatlar, shuningdek turli lotereya va boshqa o‘yin tashkilotchilari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi.

Iste’molchi banka qo‘yilgan omonatlari yuzasidan omonatchi sifatida ishtirok etishida uning foyda olishni maqsad qilib olgani iste’molchi tushunchasiga zid bo‘lsa-da, uning ushbu bank tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlardan foydalanishda iste’molchi bo‘lib hisoblanishi nazarda tutiladi. Bank ko‘rsatayotgan xizmatlari va ichki qoidalari haqida, bankning o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishda, axborotlarni o‘z vaqtida berishda omonatchi iste’molchi mavqeiga ega bo‘ladi. Banklar tomonidan fuqaro (iste’molchilar)ning omonatlarini saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatishdan avval omonatga qo‘yuvchilar bilan bank omonati shartnomasi tuziladi. Bank omonati shartnomasi tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida o‘z ifodasini topgan.

Kodeksning 759-moddasiga muvofiq, bank omonati shartnomasiga ko‘ra, omonatchidan qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini – omonatni qabul qilib olgan bank shartnomada nazarda tutilgan shartlarda va tartibda omonatning summasini qaytarish va unga foizlar to‘lash majburiyatini oladi.

Aynan banka qo‘yilayotgan omonat tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni ham ta’rif berib o‘tadi. Ushbu qonunga muvofiq, omonat (depozit) talab qilinishi bilanoq yoki to‘lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to‘lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o‘rtasida kelishilgan muddatlarda foizlar yoki ustama haq to‘lagan holda yoki bunday to‘lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi hisoblanadi.

2002 yil 5 aprelda fuqarolarni banka qo‘ygan omonatlarini himoya qilish va ushba huquqiy himoyani kafolatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining

«Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi omonatlari himoyalanishini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunining maqsadini amalga oshirish uchun Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tuzildi. Ushbu fond haqidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 19 sentyabrdagi «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida»gi 326-son Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi qarorida o‘z aksini topgan.

Fond yuridik shaxs hisoblanadi va banklar bilan yozma ravishda tuziladigan bitimlar asosida faoliyat yuritadi. Fondning mol-mulki banklarning majburiy badallari, mablag‘ qo‘yilishidan olingan daromadlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan shakllantiriladi.

Fondning pul mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida saqlanadi.

Fondning o‘z mablag‘larini davlat qimmatli qog‘ozlariga va boshqa aktivlarga qo‘yishdan olgan daromadlari soliq solish ob’ekti hisoblanmaydi.

Fondni boshqarish Fondning Kuzatuv kengashi va Fondning ijro etuvchi moliyaviy yordam ko‘rsatishi va xayriya faoliyati muassisi bo‘lishi mumkin emas.

Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq munosabatlarni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrdagi «Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida», 1996 yil 25 apreldagi «Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat ko‘rsatish mexanizmi to‘g‘risida», 1998 yil 29 avgustdagi «Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida», 2001 yil 30 avgustdagi «Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida», shuningdek 1996 yil 26 apreldagi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunlar va boshqa qonun hujjatlari tartibga soladi.

Qimmatli qog‘ozlar jumlasiga «Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasiga muvofiq aksiya, obligatsiya, xazina majburiyatlari, qimmatli qog‘ozlarning hosilalari, depozit sertifikatlari, veksellar kiradi.

«Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasiga asosan qimmatli qog‘oz haridori qimmatli qog‘ozlar bozorida quyidagi huquqlarga ega:

1) emitentdan qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi emitentning joriy moliyaviy holati va uning rivojlanish istiqbollari haqidagi axborotni taqdim etishni talab qilish;
2) qimmatli qog‘ozlar bozorida ularga o‘z xizmatlarini taklif etuvchi investitsiya institutlaridan qimmatli qog‘ozlarning fond birjasidagi savdolarini va birjadan tashqari savdosini o‘tkazish qoidalari haqidagi axborotni talab qilish;

3) qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organliridan investitsiya institutlari va ularning birlashmalari to‘g‘risida, qimmatli qog‘ozlar emissiyasini to‘xtatib qo‘yishga, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi kasbiy faoliyatga doir litsenziyalarning amal qilishini to‘xtatib qo‘yish, tugatish va bekor qilishga doir barcha holatlar, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organlarining da’vo arizalari bo‘yicha emitentlar yoki investitsiya institutlariga nisbatan chiqarilgan sud qarorlari haqida axborot olish.

Bundan tashqari lotereya o‘yinlarini tashkil etuvchi tashkilotlar ham moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar hisoblanadi. Va aynan ushbu xizmatdan foydalanuvchilar iste’molchi hisoblanadilar.

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi ijrochilar (banklar, qimmatli qog‘oz chiqaruvchi emitentlar, lotereya o‘yinlarini tashkil qiluvchi tashkilotlar) yuridik shaxs sifatida o‘z faoliyatlarini tugatish yoki bankrot bo‘lishi ehtimolini nazarda tutgan holda iste’molchilarning talablarini qondirish maqsadida o‘z javobgarligini sug‘urta qildirishi shart. Ushbu sug‘urtaning mohiyati mulkiy yoki boshqa talofatlar hamda ziyonlar o‘rnini tez va to‘la qoplashdan iborat.

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi ijrochilar tugatilishi yoki bankrot bo‘lishi ushbu ijrochi tashkilotlarning huquq sub’ekti sifatida barham topganligini yoki kelajakda agar bankrotlik darajasidan chiqa olmasa tugatilishi mumkinligini bildiradi. Demak, o‘z-o‘zidan tugatilgan tashkilot ko‘rsatgan moliyaviy xizmat foydalanuvchisi-iste’molchi zararini to‘lashda qarzdor hisoblanadi.

Fuqarolik Kodeksining 57-moddasiga muvofiq, yuridik shaxs kreditorlar talabini qondirishga qurbi yetmasa, sud qaroriga muvofiq u nochor deb hisoblanishi mumkin. Bu esa uning tugatilishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 24 apreldagi «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra bankrotlik deganda, bu xo‘jalik sudi tomonidan e’tirof etilgan qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talabini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligi tushuniladi.

Va aynan mana shu bankrotlik-to‘lovga qobiliyatsizlik kelajakda moliyaviy xizmat foydalanuvchisi ko‘rgan zararlarning o‘rnini qoplash imkonini bermasligi ehtimoli borligi sababli ham qonun ushbu xavfni majburiy sug‘urtalashni talab etadi va bu haqda iste’molchiga ma’lumot berishni shart qilib qo‘yadi.

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi, ijrochilar xizmatidan foydalanuvchilarga ularni qiziqtirgan turli axborotlarni olishda iste’molchi bo‘lar ekan, demak, axborot bermaganlik yoki boshqacha ma’lumotlarni taqdim qilganlik uchun iste’molchiga muayyan zarar yetkazilishi mumkin. Shu sababli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi ijrochi iste’molchiga unga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar uchun o‘zining javobgarligini sug‘urtalanganligini ta’kidlashi lozim.

2. Sud orqali iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish

Iste’molchilarning huquqlari buzilgan taqdirda, u sudga murojaat qilishga haqlidir. Da’volar, agar qonunlarda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, iste’molchi joylashgan yerdagi yoki zarar yetkazilgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Iste’molchilarning o‘z huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq da’volar bo‘yicha, shuningdek tovarlar xavfsiz bo‘lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste’molchilarning jamoat birlashmalari iste’molchining manfaatlarini ko‘zlab qo‘zg‘atilgan da’volar bo‘yicha davlat boji to‘lashdan ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxs o‘z huquq va erkinlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Murojaat etuvchi shaxslarning shu jumladan, iste’molchilarning ham sudga buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida murojaat qilishlari qonun bilan kafolatlanadi.

Sud ushbu murojaat, shikoyat, arizalarni ko‘rishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida belgilanganidek, boshqa davlat organlaridan ustun va alohida holda ish ko‘radi. Odil sudlovning aynan sudlar tomonidan amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunida ham o‘z ifodasini topgan.

Iste’molchilarning huquqlarini sud orqali himoya qilish haqidagi qonun hujjatlari jumlasiga bundan tashqari Fuqarolik protsessual kodeksi va 2003 yil 2 fevralda amalga kirgan O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuni ham kiradi.

Fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda qonunga asosan, ariza, shikoyat yoki taklif bilan murojaat etayotgan iste’molchi fuqaroning ixtiyoriylik (10-modda), kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik (11-modda), murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqishning majburiyligi (12-modda) va boshqa bir qator tamoyillarga asoslanadi.

Iste’molchi sudga murojaat etishda o‘ziga qulay, ya’ni o‘zi joylashgan joy tuman (shahar) sudiga yoki uning huquqlarini buzgan javobgarning yashab turgan yoki u tashkilot bo‘lsa, u joylashgan joy fuqarolik sudiga murojaat etishga haqli. Lekin, agar iste’molchi huquqlarining buzilganligini va uni tiklash uchun asos bo‘ladigan ashyoviy dalillarning ko‘pchilik qismi qayerda joylashgan bo‘lsa, shuningdek unga zarar yetkazilgan joyda zarar yetkazilganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo‘lsa, iste’molchi shu zarar yetkazilgan joydagi tuman yoki tumanlararo fuqarolik ishlari bo‘yicha sudiga da’vo arizasi bilan murojaat etishi mumkin.

Iste’molchining o‘z buzilgan huquqlarini tiklash muddati qonun bilan muayyan chegaraga solib qo‘yilishi mumkin. Ya’ni, qonun sudga da’vo orqali o‘z buzilgan huquqlarini tiklash muddatini belgilashi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 149-moddasi talablariga muvofiq, shaxs o‘z buzilgan huquqlarini da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan himoya qilishi mumkin bo‘lgan muddat da’vo muddati bo‘lib, umumiy da’vo muddati uch yil qilib belgilangan. Aynan buzilgan huquqni tiklash muddati iste’molchi shaxs o‘z huquqini buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan vaqtdan boshlanadi. Demakki, iste’molchi tovar sotib olganda, ishlar bajarilishi va xizmat ko‘rsatilishidan manfaatdor bo‘lganda uning buzilgan huquqlarini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan paytdan uch yil davomida sudga murojaat etib, o‘z buzilgan huquqlarini tiklashi mumkin.

Agar moliyaviy xizmatlar sohasida iste’molchi omonatchi sifatida qatnashsa, huquqlari buzilganligini bilsa uning huquqlarini himoya qilish muddati belgilanmaydi, ya’ni unga da’vo muddati joriy qilinmaydi.

Bundan tashqari agar iste’molchining hayotiga yoki sog‘ligiga yetkazilgan zarar bilan bog‘liq da’volar bo‘lsa, iste’molchiga muayyan jinoyatlar tufayli zarar belgilangan boshqa hollarda buzilgan huquqlarni himoya qilish bilan bog‘liq da’volarga ham da’vo muddati joriy qilinmaydi.

Fuqaro – iste’molchilarning murojaatlarini qabul qilishni va ko‘rib chiqishni asossiz ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, qonunga zid qaror qabul qilish, hujjatlar bilan tanishishga imkoniyat bermaslik yoki fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma’lumotlarni ularning roziligisiz oshkor etish, fuqaroni murojaat qilgani uchun ta’qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Fuqaro-iste’molchining arizasi yoki shikoyati qanoatlantirilgan taqdirda iste’molchiga sarf qilgan harakatlari to‘lanadi va ma’naviy ziyon ham sud tartibida kompensatsiya qilinishi mumkin.

Agar fuqaro muayyan tovar (ish, xizmat) natijasida zarar ko‘rganligi to‘g‘risida tuhmat va haqoratdan iborat ariza, taklif yoki shikoyat berganligi aniqlansa, u holda qonunda belgilangan javobgarlikka tortilish uchun sabab bo‘ladi. Agar harajatlar qilingan bo‘lsa iste’molchidan undirib olinishi mumkin.

Sudning qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori sudga shikoyat berilishi mumkin.

Sudning qonuniy kuchga kirgan qarori barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiy va uni bajarish shart.

Sudning qarori xatti-harakatlari ustidan shikoyat berilgan organ yoki mansabdor shaxsga, shuningdek fuqaroga qaror qonuniy kuchga qirgach, kechi bilan o‘n kun ichida yuboriladi.

Qaror bajarilganligi haqida sudga va fuqaroga sud qarori olingan kundan boshlab kechi bilan bir oy ichida xabar qilinishi shart. Qaror bajarilmagan taqdirda sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan chora-tadbirlarni ko‘radi.

Iste’molchilar o‘z huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq da’volar bo‘yicha, shuningdek tovar (ish, xizmat)lar xivfsiz bo‘lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste’molchilarning jamoat birlashmalari iste’molchilarning manfaatlarini ko‘zlab qo‘zg‘atilgan da’volar bo‘yicha davlat boji to‘lashdan ozod qilinadi. Davlat bojining miqdori qonun bilan belgilangan, 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Davlat banki to‘g‘risida»gi qonuni.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntirib bering.
2. «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash to‘g‘risida»gi Qonunining iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Moliya xizmatlari sohasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishni tushuntirib bering.
4. Sud orqali iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish tartibini tushuntirib bering.

Mavzu 8. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli

Reja:

1. «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati
2. «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati

1. «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati

Bu qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini yaxshi tushunib yetmoq uchun «Standart» nimaligini tushunib yetmoq kerak.

Standart – bu standartlashtirilayotgan ob’ektga kompleks me’yorlar, qoidalar, talablar ko‘rsatilgan, nufuzli tashkilot tomonidan tasdiqlangan ilmiy-texnikaviy hujjat hisoblanadi. Demak, standart iste’molchilarning yuqori sifatli tovarlar sotib olishini kafolatlashda xizmat qiladigan muhim hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi FK ko‘rsatilishicha iste’molchining asosiy va muhim huquqlaridan biri bu ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) lar tomonidan iste’molchilarga taqdim etilayotgan tovarlar natijalarining tegishli darajada sifatli bo‘lishiga huquqlidir (FK ning 5-qismi 8-moddasi).

Tovar (ish, xizmat) ning tegishli darajada sifatli bo‘lishiga nisbatan talabalar birinchi galda ishlab chiqaruvchiga qaratilgandir. Shu o‘rinda «sifat» degan iborani talqin etib o‘tish joiz. Ko‘plab olimlar unga turlicha ta’rif berishgan. Jumladan, Aristotel fikricha «sifat shunday mavjud turga xos alomatki, u bir mavjudlikni, uning turiga xosligini boshqa mavjudlikdan», ya’ni «narsalarni taqqoslab baholashga oid xususiyatdir».

Gegel esa, «shunday narsalar borki, o‘zining sifatiga qarab borligini tasdiqlaydi», deb ta’kidlaydi. Bundan to‘rt asr ilgari ingliz geografii va tarixchi olimi R.Gaklyut barcha eksporterlarga qarata: «… Sizning mahsulotlaringiz sifati ishonchliligi boshidanoq sizning mahsulotingizga nisbatan ishonch uyg‘otadi, ammo o‘z vaqti bilan soxta va yolg‘on mahsulotlar bu ishonchni yo‘qotib, sizga va sizning mahsulotlaringizga nafrat hamda obro‘sizlanishni (ishonchsizlikni) yuzaga

keltirishi mumkinligini unutmang» deb tavsiya etgandi. Umuman olganda tovar (ish, xizmat) sifati – tadbirkorlik faoliyati foydaliligini belgilovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Demak, sifat bu birinchi galda farq, ikkinchi galda ishonch, uchinchi galda baho, to‘rtinchi galda obro‘ni belgilaydi.

Sifat jihatidan talabga javob bermaydigan tovarlarni qabul qilish yoki qilmaslik borasida iste’molchiga keng huquqlar beriladi. Bunday qoidaning nazarda tutilishi, avvalo, iste’molchi sifatida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchilarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Tovarning sifatini quyidagi jihatlar bilan belgilash mumkin:

1. Sifatning oliy darajasi (foydalanish uchun yaroqlilik, ehtiyojni to‘la qanoatlantirish xususiyati).
2. Uzoq muddatliligi (chidamliligi).
3. Tashqi ko‘rinishi, shaklining chiroyliligi, jozibadorligi.
4. Almashuvchanligi.
5. Foydalanishga qulayligi, texnik xizmat ko‘rsatishning va ta’mirlashning yengilligi.
6. Montaj (yig‘ish) ning yengilligi va ekspluatatsiyada qulayligi.
7. Xavfsizlik ko‘rsatkich.
8. Xizmat ko‘rsatishning kafolatlanganligi, boshqa jihatlari.

Demak, sifatli tovar topshirish majburiyatini olgan ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) iste’molchiga yuqorida sanab o‘tilgan talablarni o‘zida aks ettirgan tovarni topshirishi kerak bo‘ladi.

Tovar, ish va xizmatning sifatini aniqlashning asosiy mezonlaridan biri – bu ushbu tovar, ish, xizmatning tegishli standartlarga mos kelishidir. Tovar, ish va xizmatni standartlashtirish tegishli tartibda davlatning vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli Respublikamizda 1993 yil 28 dekabrda «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Bu qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifalardagi normativ hujjatlar qo‘llaniladi:

1. Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
2. O‘zbekiston Respublikasining standartlari;
3. Tarmoq standartlari;
4. Texnik shartlar.
5. Korxona standartlari.
6. Xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

Qonunga muvofiq standartlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning aholining hayoti, sog‘ligi va mol-mulkiga, atrof-muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste’molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;

b) mahsulotlarning o‘zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta’minlashdan;

v) fan va texnika taraqqiyati darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo‘jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;

g) barcha turdagi resurslar tejalishiga ko‘maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashdan;
d) ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;
e) xalq xo‘jaligi ob’ektlarining xavfsizligini ta’minlashdan;
j) iste’molchilarni ishlab chiqarayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborot bilan ta’minlashdan;
z) mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorligini ta’minlashdan;
j) o‘lchovlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashdan iboratdir.

2. «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli

O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni 1993 yil 28 dekabrda qabul qilindi. Bu qonun 4 ta bobdan tashkil topgan bo‘lib 23 ta moddani qamrab oladi. Bugungi kunda Respublikamizda sertifikatlashtirish milliy tizimi joriy qilingan bo‘lib, faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur qonunga binoan mahsulotlarni sertifikatlashtirish deganda – mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga doir faoliyat tushuniladi.

Muvofiqlik sertifikati degan so‘zni ko‘p eshitamiz. Bu nima o‘zi?

Muvofiqlik sertifikati – sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjatdir.

Iste’molchilar uchun tovar (ish, xizmat)larning xavfsiz bo‘lishini ta’minlash vositalaridan eng ishonchlisi – bu tovarlarni markirovkalash va sertifikatlash hisoblanadi.

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari Qonunda quyidagicha keltirilgan:
a) odamlarning hayoti, sog‘ligi, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavfli bo‘lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;
b) mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta’minlash;
v) mamlakat korxonalari, qo‘shma korxonalar va tadbirkorlar halqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro-savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;
g) iste’molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdonsizligidan himoya qilish;
d) mahsulot tayyorlovchisi ta’kidlagan sifat ko‘rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?
2. Tovarlarning sifatini qanday tushunasiz?
3. O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir qanday toifadagi normativ hujjatlar qo‘llaniladi?
4. «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli nimadan iborat?
5. Standartlashtirishning maqsadlari nimalardan iborat?
6. «Mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?
7. Muvofiqlik sertifikati nima?
8. «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntirib bering.

Mavzu 9. «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli

Reja:

1. «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonunda keltirilgan atamalar va ularning mazmuni
2. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorat qilish
3. Oziq-ovqat mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va normalar, qoidalarga mos kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini yo‘q qilib tashlash tartibi

1. «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonunda keltirilgan atamalar va ularning mazmuni

«Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni 1997 yil 30 avgustda qabul qilingan bo‘lib 18 ta moddani o‘z ichiga qamrab oladi. Bu Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati beqiyos darajada kattadir.

Bu Qonunning ahamiyatini yaxshi tushunib yetmoq uchun Qonunda keltirilgan quyidagi atamalarning mazmunini to‘liq tushunib yetmoq kerak.

1. Oziq-ovqat mahsuloti – oziq-ovqat xom ashyosi (shu jumladan alkagolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar;
2. Oziq-ovqat mahsulotining sifati – oziq-ovqat tovarlarining iste’mol xossalarini belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog‘ligi uchun xavfsizligini ta’minlaydigan mezonlar majmui;
3. Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi – oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalariga va qoidalariga mosligi;

4. Oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati) – bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, xavfsizlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilgan taqdirda u foydalanishga yaroqli bo‘lib turadi, bu muddat tamom bo‘lganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun havfli bo‘lib qolishi mumkin;
5. Oziq-ovqat mahsulotini qalbakilashtirish – oziq-ovqat xom ashyosining hamda oziq-ovqatlarning xossalari va mezonlarini ataylab o‘zgartirish yoki ularni almashtirib qo‘yish;
6. Gigiyena sertifikati – oziq-ovqat mahsuloti, texnologiya, uskuna va boshqa jarayonlar amaldagi sanitariya normalari va qoidalariga mos ekanligini tasdiqlaydigan hujjat;
7. Toksikologiya-gigiyena ekspertizasi – oziq-ovqat mahsuloti ustidan amalga oshiriladigan bir turkum laboratoriya tadqiqotlari bo‘lib, ular mavjud normalar va qoidalar bilan qiyoslashga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Mutaxassisliklarning fikricha oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

1. Ruxsat etilmagan bo‘yoq moddalari, konservantlar, antiokislitellarni qo‘llash yoki ruxsat etilganlarni me’yoridan ortiqcha miqdorda ishlatish;
2. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning noananaviy texnologiyalarini qo‘llash, shu bilan bir qatorda kimyoviy, mikrobiologik sintez yo‘li bilan oziq-ovqat mahsulotlarini olish;
3. Qishloq xo‘jalik ekinlari va hayvonot mahsulotlarining o‘simlik zararkunandalariga qarshi va hayvonlar kasallanishining oldini olishga qarshi ishlatiladigan pestitsidlar bilan ifloslanishi;
4. Qishloq-xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda o‘g‘itlarni, sanoat chiqindilarini ishlatishning gigiyenik qoidalarining buzilishi;
5. Chorvachilik va parrandachilikda ruxsat etilmagan yemlar, konservantlar, o‘sish stimulyatorlari, davolash medikamentlarini ishlatish;
6. Oziq-ovqat mahsulotlariga jihozlardan, idishlardan, inventarlardan, o‘rash-joylash materiallaridan toksik moddalarning o‘tishi (polimer, rezina, metall materiallaridan);
7. Oziq-ovqat mahsulotlarini issiqlik ishlovi berganda tarkibida zararli moddalarning to‘planishi;
8. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash jarayonlarida sanitariya normalariga itoat qilmaslik, natijada bakterial toksinlarni keltirishi;
9. Oziq-ovqat mahsulotlariga atmosfera, tuproq, suv orqali toksik moddalar, xususan radionukleidlarning tushishi.

2. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorat qilish

Keltirilgan mahsulotlardan shuni anglash mumkinki, oziq-ovqat tovarlari turli yo‘llar bilan ifloslanar ekan. Shu sababli ham «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonun 1997 yil 30 avgustda qabul qilindi. Demak, shu kundan boshlab iste’molchilarni sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishdan himoya qilishning huquqiy asoslari yaratildi desak xato qilmaymiz.

Ushbu Qonunning oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi deb ataladigan 4-moddasida xususan shunday deyilgan: «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya epidemiologiya xizmati, O‘zbekiston Respublikasining Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Bosh davlat veterinariya boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini Bosh davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston davlat Standartlash agentligi hamda qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: davlat tomonidan normalash, oziq-ovqat mahsulotini hamda uni tayyorlashga mo‘ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, oziq-ovqat mahsulotini sertifikatlash, davlat nazorati va tekshiruvi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat tomonidan normalash oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga, uni ishlab chiqarish, tayyorlash, harid qilish shart-sharoitlariga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladigan sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalarini, davlat standartlarini, texnikaviy shartlarni tasdiqlash va belgilash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ular oziq-ovqat muomalasi sohasida ish olib borilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, harid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar belgilangan normalar va qoidalarga rioya etishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini ta’minlaydilar. Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish tartibi oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalarga, normativ hamda texnologiya hujjatlari talablariga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar bajaradigan ishlar va xizmatlarning xususiyatlarini va shart sharoitlarini hisobga olgan holda belgilanadi hamda tegishli davlat nazorati organlari bilan kelishiladi. Masalan, tovarning shifobaxsh sog‘lomlashtirish xususiyati, kishilar hayoti va sog‘ligiga, hayvonot dunyosiga zararli ta’siri yo‘qligi yoki uning boshqa maxsus tavsifi to‘g‘risidagi axborotlar Sog‘liqni saqlash vazirligi va O‘zstandart agentligi ruxsati bilan taqdim etiladi. Tovarlar ishlab chiqaruvchi agar tovar xavfsizligi to‘g‘risidagi qoidalarni ishlab chiqmagan, tasdiqlashdan o‘tkazmagan, iste’molchilar e’tiboriga ma’lum qilmagan bo‘lsa yoxud ushbu axborot yetarli bo‘lmasa, u holda ushbu tovarlardan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik vujudga keladi.

Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar normalar va talablarning qoidalari buzilganligi aniqlangan taqdirda ishlarni amalga

oshirishni va xizmatlar ko‘rsatishni aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to‘xtatib qo‘yishlari shart.

Qonunda chetdan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan alohida modda mavjud.

3. Oziq-ovqat mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va normalar, qoidalarga mos kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini yo‘q qilib tashlash tartibi

Mazkur qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti tegishli normalar va qoidalarning talablariga muvofiq bo‘lishi shart.

Chetdan olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsulotini yetkazib beruvchi, uni dvlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ishlab chiqaruvchining va eksport qiluvchi mamlakat maxsus vakil qilgan organning ushbu mahsulot xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarini, tegishli ekspertiza o‘tkazish zarur bo‘lganida esa oziq – ovqat mahsulotining namunalarini taqdim etadi.

Chetdan olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti, texnologiyalar va uskunalar qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti, texnologiyalar va uskunalar qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti sifati va xavfsizligining normalar va qoidalarga mosligi davlat nazorati organlari tomonidan bojxona organlari bilan belgilangan tartibda aniqlanadi.

Yaroqlilik muddati o‘tgan; sifatsizligi belgi berib turgan; taqqoslash va ishlab chiqaruvchisini aniqlash mumkin bo‘lmagan, shuningdek davlat sanitariya va veterinariya nazorati organlari tomonidan gigiyena va veterinariya ekspertizasi va sertifikatlash sinovlari natijalari bo‘yicha ovqatga ishlatish uchun yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarish va realizatsiya qilishdan olib tashlanadi, u belgilangan maqsadda ishlatilmasligi hamda qayta ishlanishi yoki yo‘q qilib tashlanishi kerak.

Oziq-ovqat mahsulotini qayta ishlash yoki yo‘q qilib tashlash usullari va shartlari uning egasi tomnidan tegishli davlat nazorati organlari bilan kelishib olinadi. Yo‘q qilib tashlash uchun komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga davlat hokimiyati mahalliy organlarining, dvlat nazorati organlarining, soliq organlarining va jamoatchilikning vakillari kiradi.

Oziq-ovqat mahsulotini ekspertiza qilish, yo‘q qilib tashlash usullari va shartlarini belgilash, qayta ishlash, saqlash, tashish va yo‘q qilib tashlash bilan bog‘liq harajatlarni uning egasi to‘laydi.

Oziq-ovqat mahsulotining egasi davlat sanitariya va veterinariya nazorati organlariga mahsulotdan foydalanilganligi yoki u yo‘q qilib tashlanganligi haqida dalolatnoma taqdim etadi.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik

sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?
2. Qonundagi asosiy atamalarning mazmunini tushuntirib bering.
3. «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli nimadan iborat?
4. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlash borasida qanday davlat boshqaruvi organlari mavjud?
5. O‘zbekiston Respublikasi hududiga chetdan tovar keltirish tartibi qanday?
6. Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari kim tomonidan nazorat qilinadi?
7. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik ko‘rsatkichlari kim tomonidan nazorat qilinadi?
8. Normalar, qoidalarga mos kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini yo‘q qilib tashlash tartibi qanday?

Mavzu 10. Fuqarolar sog‘ligini saqlash va xizmatlar sohasida qabul qilingan Qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati

Reja:

1. Fuqarolar sog‘ligini saqlash sohasida qabul qilingan Qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati
2. Xizmatlar sohasida qabul qilingan Qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati
3. Aholi sog‘ligi huquqiy muhofazada

1. Fuqarolar sog‘ligini saqlash sohasida qabul qilingan Qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati

Iste’molchilarning huquqlari buzilish holatlari tez-tez uchrab turadigan sohalardan yana biri sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq soha hisoblanadi. Respublikamiz mustaqillika erishgan kundan boshlaboq sog‘lom avlodni tarbiyalashga katta e’tibor berila boshladi. Natijada, fuqarolar sog‘ligini saqlashga qaratilgan qator qonunlar tizimi ishlab chiqildi va hayotimizga joriy etildi. Shunday Qonunlardan biri 1996 yil 29 aprelda qabul qilingan «Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risida»gi Qonuni hisoblanadi. Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risidagi Qonun hujjatlarining asosiy vazifalari fuqarolarning sog‘ligini saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minlash, fuqarolarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog‘ligini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish hisoblanadi.

Ushbu Qonunning «Fuqarolarning sog‘liqni saqlash huquqi» deb ataluvchi 13-moddasida xususan shunday deyilgan: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari sog‘liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy movqeidan qat’i nazar fuqarolarning sog‘ligi saqlanishini ta’minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat’i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Ko‘pchilik hollarda tibbiyot muassasalarida bemorlarning huquqlarining buzilish hollarining guvohi bo‘lamiz. Bemorning huquqlari ushbu Qonunning 24-moddasida o‘z aksini topgan.

24-modda. Bemorning huquqlari.

Bemor tibbiy yordam so‘rab murojaat qilingan va tibbiy yordam olayotgan paytda quyidagi huquqlarga ega:

a) tibbiyot xodimlari va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning hurmat va mehr-muruvvat ko‘rsatishlari;

b) shifokorni va davolash-profilaktika muassasasini tanlash;

v) sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan sharoitda tekshiruvdan o‘tish, davolanish va parvarish qilinishi;

g) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilab qo‘ygan tartibda o‘z iltimosiga ko‘ra boshqa mutaxassislarning konsilium qilish va ulardan maslahatlar olish;

d) tibbiy yordam so‘rab murojaat qilganligi, sog‘ligining holati, qo‘yilgan tashhis to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda uni tekshirish va davolash chog‘ida olingan boshqa ma’lumotlar sir saqlanishi;

s) tibbiy aralashuvga o‘z ixtiyori bilan rozilik berish yoki uni rad etish;

j) o‘z huquq va burchlari xususida hamda sog‘ligining holati haqida ma’lumot olish, shuningdek sog‘ligining holatiga doir ma’lumotlarini uning manfaatini ko‘zlagan holda bersa bo‘ladigan shaxslarni tanlash;

z) tibbiy yordam ko‘rsatish vaqtida sog‘ligiga zarar yetkazilgan taqdirda ko‘rilgan zararning o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi;

k) huquqni himoya qilishi uchun huzuriga advokat yoki boshqa qonuniy vakil qo‘yilishi.

Huquqlari buzilgan taqdirda bemor yoki uning qonuniy vakili bevosita davolash-profilaktika muassasasining rahbari yoki boshqa mansabdor shaxsiga, yuqori boshqaruv organiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

Shuningdek qonunda fuqarolarning sog‘ligiga yetkazilgan zararni qoplash masalasi ham o‘z aksini 46-moddada topgan.

46-modda. Fuqarolarning sog‘ligiga yetkazilgan zararni qoplash.

Fuqarolarning sog‘ligiga zarar yetkazilgan hollarda aybdorlar jabrlanganlar ko‘rgan zarar o‘rnini qonun hujjatlarida belgilangan hajm va tartibda qoplashlari shart.

G‘ayriqonuniy xatti-harakatlardan jabr ko‘rgan fuqarolarga tibbiy yordam ko‘rsatishga sarflangan mablag‘lar ularning sog‘ligiga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladi.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari o‘z kasb-kor vazifalarini malakali bajarmaganliklari oqibatida fuqarolarning hayoti va sog‘ligiga zarar yetgan hollarda yetkazilgan zarar o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Zararning o‘rnini qoplash tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini Qonunga muvofiq intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Ko‘pchilik hollarda iste’molchilarning huquqlari dori vositalarini sotib olish jarayonida ham buziladi. Ba’zi hollarda muddati o‘tgan yoki qalbaki dori vositalarining iste’molchilarga sotilayotganligining ham guvohi bo‘lamiz. Ana shularning oldini olish uchun Respublikamizda 1997 yil 25-aprelda «Dori vositalari va farmotsevtika faoliyati to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Bu Qonunning 13-moddasi aynan dori vositalarini sotish qoidalarini belgilaydi.

13-modda. Dori vositalarini sotish.

Dori vositalari faqat dorixona muassasalari orqali sotiladi. Dorixonalar ishi dorixona amaliyoti uchun xos bo‘lgan standartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Dorixonalar ishini boshqarish oliy farmatsevtika ma’lumotiga ega shaxslargagina ruxsat etiladi.

Barcha dorixona muassasalari sanitariya me’yorlari va qoidalariga javob berishi lozim. O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining qalbakisi yoki g‘ayriqonuniy nusxasi bo‘lgan dori vositalarini realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Muddati o‘tgan dori vositalarini sotish va ulardan foydalanish taqiqlanadi. Dorixonalarning farmatsevtika faoliyatini nazorat qilishna davlatning vakolatli organlari amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida o‘z kasb vazifalarini lozim darajada bajarmagan (116-modda), mansabga sovuqqonlik bilan qarash (207-modda), hayoti yoki sog‘ligi havf ostida bo‘lgan shaxslarni yordamsiz qoldirganlarga nisbatan javobgarlik ko‘zda tutilgan. Bunda o‘zining bevosita xizmat vazifasini sovuqqonlik yoki vijdonsizlik bilan bajaruvchilarning javobgarligi nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 988 va 1022-moddalarida ko‘zda tutilgan holatlar, ya’ni mijoz (jabrlanuvchi) ning sog‘ligiga ziyon yetkazilgan hollarda, unga sababchi bo‘lgan tibbiyot xodimlarini jinoiy javobgarlikka tortish bilan birgalikda davolash-profilaktika muassasasiga moddiy javobgarlik yuklatiladi. Ushbu Kodeksning 1021 va 1022-moddalarida yetkazilgan ma’naviy zararni sud qaroriga asosan pullik qoplash nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning sog‘ligini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan mijozlar o‘z sog‘ligiga yetkazilgan za-rarni undirish huquqiga ega. Buning uchun u tibbiyot muassasasi rahbariga o‘z noroziligini xat orqali bildirishi, agar natija bo‘lmasa yuqori turuvchi – Sog‘liqni saqlash vazirligigacha bo‘lgan boshqaruv organlariga murojaat etishi mumkin. Agar bunda ham natijasi bo‘lmasa, u holda sudga da’vo arizasi kiritiladi. Xat ham, da’vo arizasi ham asoslangan bo‘lishi – ya’ni ma’lumotnoma, tibbiy xizmat uchun haq to‘langanlik to‘g‘risidagi kvitansiya, dori va tibbiy vositalar uchun to‘langan

schetlar (kassa cheklari), kasallik tarixi (ambulatoriya) kartasidan ko‘chirma ilova qilinishi lozim.

«Fuqarolarning sog‘ligini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 24 va 46-moddalarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda mijozning sog‘ligiga yetkazilgan zararni undirish, 47-moddasida esa davlat organlari hamda mansabdor shaxslar fuqarolarning sog‘liqni saqlash sohasidagi huquq va erkinliklariga tajovuz qilgan hollarda ular ustidan shikoyat qilishlari belgilab qo‘yilgan.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma yoki ixtiyoriy tibbiy sug‘urta tizimi asosida aholiga ko‘rsatiladigan pullik tibbiy xizmatlar O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni bevosita amal qiladigan soha hisoblanadi. Qonunning 4-moddasi ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tegishli sifatga ega bo‘lishligini, 12-moddasi esa xavfsiz bo‘lishini taqozo etadi. Mijoz xizmatning bajarilmagan qismini tekinga bajartirish, xizmat haqini kamaytirish yoki qaytadan bajarish, yohud yetkazilgan zarar to‘liq qoplagan holda shartnomani bekor qilishni talab qilishi mumkin.

Ijrochining sifatsiz xizmati tufayli kishi hayoti va sog‘ligiga yetkazilgan moddiy zararni qoplanishi Qonunning 20-moddasida, ma’naviy zararni qoplashi 22-moddasida ko‘rsatib berilgan. Qonunning 29-moddasiga binoan, iste’molchi o‘z huquqlari buzilgan hollarda sudga murojaat etganda undan sud to‘lovlari undirilmaydi.

2. Xizmatlar sohasida qabul qilingan Qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati

Iste’molchilarning huquqlari buzilishi mumkin bo‘lgan sohalardan yana biri xizmatlar sohasi hisoblanadi. Biz iste’molchilar har kuni qandaydir xizmat turlaridan foydalanamiz. Lekin, har doim ham xizmatlar yuqori saviyada qilinmaydi va ularning darajasi iste’molchilar talabini qondirmaydi. Ana shu xizmatlar darajasini ko‘tarish va iste’molchilarning bu borada huquqlarini himoya qilish maqsadida bir necha xil qonunlar yaratildi va bu qonunlar hayotimizda qo‘llanilmoqda. Masalan, 1996 yil 25-aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunini olaylik. Bu Qonunning aynan 39-moddasi (Banklarning o‘z mijozlari oldidagi javobgarligi) iste’molchilarni himoyalashga qaratilgan. Bunda shunday deyiladi: «Banklar mablag‘larning saqlanishi hamda omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun, shu jumladan, to‘lovlar bir bankdan boshqa banka o‘z vaqtida o‘tishi hamda mablag‘larning korxonalar va tashkilotlar hisob-kitob varaqlariga kiritilishi uchun o‘z mijozlari va omonatchilari oldida javobgardirlar».

Bank tugatilganda uning jismoniy shaxs bo‘lgan omonatchilar bankni tugatishdan keladigan tushumlar hisobidan o‘z omonatlarini olishda imtiyozga egadirlar. Banklar depozit va kredit operatsiyalarga doir muddatlar va shartlar, shu jumladan, Markaziy bank chiqargan qoidalarga muvofiq hisoblab chiqilgan yillik foiz stavkalari, mukofotlar va yig‘ilimlar to‘g‘risida o‘z mijozlariga muntazam ravishda axborot berib borishlari shart.

Ana shunday Qonunlar qatoriga «Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida»gi Qonunni ham kiritish mumkin. Bu Qonunning 24-moddasi yo‘lovchilar huquqlarini himoya qiladi.

24-modda. Yo‘lovchilar huquqlari.

Yo‘lovchilar:

- shahar yo‘lovchilar transportining har qanday turidan foydalanish;
- bekatlar va to‘xtab o‘tish manzillaridan foydalanish;
- o‘zlari bilan birgalikda yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarini bepul olib yurish;
- belgilangan tariflar bo‘yicha haq to‘lab bagaj olib yurish;
- hayoti va sog‘ligini shaxsiy sug‘urta qilish haqida ixtiyoriy ravishda shartnoma tuzish;
- bekatlar va oxirgi dispetcherlik manzillari dispetcherlaridan shahar yo‘lovchilar transportining ishi to‘g‘risida aborot olish.

Qonun hujjatlarida berilgan boshqa huquqlardan foydalanish huquqiga egadirlar. Bugungi kunda iste’molchilarning huquqlari buzilayotgan sohalardan yana biri tabiat bilan bog‘liq. Shu munosobat ,bilan ham 1992 yil 9 dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Qonun o‘n bir bo‘lim, 53-moddadan iborat. U tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o‘rtasidagi munosobatlar uyg‘un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim ob’ektlar muhofaza qilinishini ta’minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitiga ega bo‘lish huquqini kafolatlashdan iboratdir. Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad quyidagilardan iborat (3-modda).

- inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, Respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo‘lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;
- ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat ob’ektlari xilma-xilligini saqlab qolish;
- tabiat ob’ektlari bilan bog‘liq madaniy merosni asrab qolishdir.

Bu boradagi Qonunlarimizdan yana biri 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonun hisoblanadi.

Respublikamiz, ayniqsa Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy rayonlari aholisi atmosfera havosining buzilishidan aziat chekmoqda. Buning sababi qo‘shni Tojikiston Respublikasining Mirzo Tursunzoda rayonida joylashgan Alyuminiy zavodi hisoblanadi.

Taniqli yozuvchi-shoir Sirojiddin Sayidning 2005 yil 13 sentyabr xalq so‘zi gazetasida «Tajovus yoxud yana Tojikiston Alyuminiy zavodi haqida» nomli maqolasida keltirilishicha zavod mo‘rilaridan har yili yigirma bir ming tonna zaharli chiqindi tutunlar havoga chiqariladi. Shuning bir yuz o‘n to‘qqiz tonnasi ftor vodorodidir. Korxona tog‘lar etagida joylashganligi sababli, shamol janubga,

Surxondaryoga qarab esadi va bu zaharning asosiy miqdori, tabiiyki, shu hududga kelib tushadi.

Surxondaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi laboratoriyasi boshlig‘i Davron Tangriyevning ma’lumotiga ko‘ra ftorli vodorodning (HF) havodagi me’yoriy miqdori 0,012 mg metr kub bo‘lishi kerak. Denov, Oltinsoy hududlarida uning miqdori 1,6 – 1,7 mg metr kubni tashkil etgan. Bu degani uning miqdori havodagidan 130 baravardan ortiqroq ekan degan ma’noni anglatadi. Mutaxassaslarning fikricha ftor vodorodi insonning a’zoyi badanida ko‘p yetishmovchiliklar keltirib chiqaradi. Organizmdagi yetishmovchilik esa tanadagi endokrin bezlar faoliyatining buzilishiga olib keladi. Bu bezlarning faoliyatiga putur yetdimi, bir-biridan og‘ir, asoratlari ham bir umr ketmaydigan xastaliklar, kasalliklar yuzaga keladi. Bu muammoning yechimini topish masalasida mamlakatimizda e’tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Yaqindagina O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasida, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markasining Respublikamizdagi vakolatxonasi, Barqaror rivojlanish bo‘yicha davlatlararo komissiyasining ilmiy-tadqiqot vakillari, olimlar va mutaxassislar ishtirokida jiddiy muhokoma qilindi.

Ana shunday muammolarni hal etishda jamoat tashkilotlari ham faol harakat qilishlari lozim.

3. Aholi sog‘ligi huquqiy muhofazada

Aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, kishilar sog‘ligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tovarlarning ichki bozorga noqonuniy yo‘llar bilan kirib kelishining oldini olish, qolaversa, qonun asosida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlar va tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan keyingi yillarda mamlakatimizda ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi, mavjud huquqiy baza jiddiy takomillashtirildi.

Shu o‘rinda, yaqindagina mamlakat parlamenti yuqori palatasining to‘qqizinchi sessiyasida ma’qullangan va bugungi kunda kuchga kirgan «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoat-protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonunning mazmun-mohiyatiga biroz to‘xtalmoqchimiz.

Ushbu qonunning qabul qilinishiga qanday omillar sabab bo‘lgan, degan tabiiy savol tug‘iladi.

Qonunchilik ahvolining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘rilayotgan choralarga qaramasdan, sifatsiz spirt, alkagolli va tamaki mahsulotlarni respublikaga kontrabanda yo‘li bilan olib kelish, bunday mahsulotlarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish va muomalaga kiritish hollari barham topmayapti. Xususan, birgina 2006 yilda Bosh prokuratura xuzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona va soliq qo‘mitalari idoralari tomonidan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirlar natijasida etil spirti, alkagol va

tamaki mahsulotlarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 7,5 mingdan ortiq qonunbuzarliklar aniqlangan va ular yuzasidan 2 mlrd. so‘mdan ziyod sifatsiz mahsulotlar olib qo‘yilgan.

Achinarlisi shundaki, yengil yo‘llar bilan boylik orttirish ilinjida yurgan bunday «tadbirkorlar»ning kirdikorlari natijasida sifatsiz mahsulotlarni iste’mol qilgan oddiy fuqarolar aziyat chekishmoqda, aholi salomatligiga jiddiy putur yetkazilmoqda.

Tabiiyki, bunday jinoyatlarga barham berish, nafs girdobiga botgan, xalq manfaatini unutib qo‘ygan «ishbilarmonlar»ning faoliyatiga qat’iyan chek qo‘yish zarurati jinoyat qonunchiligini takomillashtirishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan jinoyat kodeksining 186^1-moddasi yangi tahrirda bayon qilinib, etil spirti, alkagolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Xususan, ushbu moddaning birinchi qismi bo‘yicha qilmishlarni sodir etganlik uchun ilgari eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha jarima yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan bo‘lsa, endilikda jarima miqdori ikki yuz baravardan to‘rt yuz baravargacha, ozodlikdan mahrum qilishning muddati besh yilgacha belgilandi. O‘sha harakatlar ko‘p miqdorda yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoxud takroran yoki xavfli residivist tomonidan yoki xizmat lavozimini suiste’mol qilish yo‘li bilan sodir etilgan taqdirda, ushbu moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra, eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahorum qilish jazosi ko‘zda tutilgan edi. Bundan buyon ushbu qilmishlarni sodir etganlik uchun eng kam oylik ish haqining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha jarima yoki besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilandi.

Shu tariqa mazkur moddaning uchinchi qismiga ko‘ra, qayd etilgan qilmishlarni aybni og‘irlashtiruvchi holatlarda, ya’ni juda ko‘p miqdorda yoki uyushgan guruh tomonidan yoxud uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilganda yetti yildan o‘n yilgacha belgilangan ozodlikdan mahrum qilish jazosi yetti yildan o‘n ikki yilgacha deb o‘zgartirildi.

Mamlakatimizda paxta yog‘i iste’molbop mahsulot ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Aynan shu holat ayrim nopok shaxslarni g‘araz maqsadlarni ko‘zlashga chorlamoqda. Ular xufyona sexlarda texnik chigitdan paxta yog‘i tayyorlab, aholiga sotishga urinishmoqda. Qo‘lbola usulda tayyorlangan bunday mahsulotlar sanitariya-gigiyena va texnologik normalarga mutlaqo zid bo‘lib, odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga jiddiy taxdid solmoqda.

Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, «O‘zpaxtasanoat» uyushmasiga qarashli paxta tozalash korxonalarida 2006 yilda 625,7 mln. so‘mlik 30,5 ming tonna texnik chigit talon-taroj qilingan. Bu chigitlardan esa ayrim «ucharlar» uy sharoitida sifatsiz yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarishmoqda.

Paxta yog‘i ishlab chiqarish sanoatining texnologik jarayonlariga nazar tashlasak, zavodda chigit mag‘zi qozonlarda yuqori issiqlik haroratida qizdirilib pishiriladi va siquvdan o‘tkazilib yog‘i olinadi. Yog‘ tindirilib, filtrdan o‘tkaziladi va tozalanadi. Xullas, chigit tarkibidagi o‘ta zaharli hisoblangan «gosipol»

moddasi va turli nitratlardan tozalangan paxta yog‘ini ishlab chiqarish uchun o‘ttizdan ortiq murakkab texnologik ishlovlar zarur. Iste’molga yaroqli paxta yog‘i shundan so‘nggina savdo peshtaxtalariga yetkazib beriladi.

Tabiiyki, uy sharoitida tayyorlangan paxta yog‘ini zaharli moddalardan tozalash imkoni yo‘q. Demak, bunday mahsulotni iste’mol qilgan fuqarolar sog‘lig‘iga jiddiy xavf va zarar bor. Bundan tashqari masalaning boshqa muhim jihati ham mavjud. Avvalo, fuqarolarimiz bunday sifatsiz yog‘ni harid qilib, o‘zi va oila a’zolarining salomatligini tahdid ostiga oladi, qolaversa, nopok «tadbirkorlar»ning faoliyatini ham rag‘batlantiradi. Natijada, ularning bozori yanada chaqqonlashadi.

Aynan shu nuqtai nazardan, ya’ni faqat o‘z foydasini o‘ylab, odamlar sog‘lig‘iga hech ikkilanmay zarar yetkazishdan o‘zlarini tiymaydigan noinsof shaxslarning qilmishlariga chek qo‘yish maqsadida Jinoyat kodeksi Yangi 186^2-moddasi bilan to‘ldirildi. Ushbu moddada paxta chigitidan olinadigan mahsulotni noqonuniy ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Moddaning birinchi qismiga ko‘ra, bunday qilmish uchun eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko‘zda tutilgan.

Xuddi shunday harakatlar ko‘p miqdorda yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoxud takroran yoki xavfli residivist tomonidan yoxud mansab vakolatini suiste’mol qilgan holda sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi.

O‘sha harakatlar juda ko‘p miqdorda yoki uyushgan guruh tomonidan yoxud uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilsa, yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

O‘ylaymizki, jinoyat qonunchiligiga kiritilgan ushbu normalar iste’mol bozoriga sifatsiz mollar kirib kelishining oldini olib, aholi sog‘lig‘ini muhofaza etishning qonuniy asoslarini yaratadi.

Tayanch iboralar: iste’molchi, ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, shartnoma, tovar, normativ hujjat, tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi, muvofiqlik sertifikati, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni, kafolat muddati, xizmat muddati, yaroqlilik (saqlash) muddati, kassa cheki, tovar cheki.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntirib bering.
2. Qonun bo‘yicha bemor qanday huquqlarga ega?
3. Qonun bo‘yicha fuqarolar sog‘ligiga yetkazilgan zarar qanday qoplanadi?
4. «Dori vositalari va farmotsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntiring.
5. Qonunda dori vositalarini sotish tartibi qanday ko‘rsatilgan?

6. «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntiring.
7. «Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida»gi Qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi rolini tushuntirib bering.
8. Xizmatlar sohasida qabul qilingan boshqa qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyatini tushuntirib bering.

Mavzu 11: «Fuqarolar sog‘ligini saqlash» va «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» gi Qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli

Reja:

1. «Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risida»gi qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli.
2. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli.

1. Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risidagi qonunning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli

Sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam olish huquqi – insonning asosiy huquqlaridan bo‘lib, ularsiz boshqa boylik va qadriyatlar o‘z qimmatini yo‘qotadi.

Shuni qayd etish lozimki, sog‘liq insonning shaxsiy boyligigina bo‘lib qolmasdan, o‘ta muhim ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Agar jamiyatda sog‘ligini yo‘qotgan kishilarning soni ko‘p bo‘lsa, samarali rivojlanish bo‘lmaydi, chunki «boqimandalik»ning yuki aholining sog‘lom va ishga yaroqli qismi zimmasiga tushadi. Demak, har bir kishi o‘z sog‘ligi to‘g‘risidagi qayg‘urishi boshqalarning sog‘ligiga putur yetkazmasligi, davlat esa sog‘liqni saqlash tizimining sifatli, samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib berishi lozim.

O‘zbekistonda fuqarolarning sog‘ligini muhofaza qilish va tibbiy xizmat olish huquqi konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilgan. Respublika qonunchiligi tomonidan barcha fuqarolar uchun bepul va kafolatlangan asosiy, hamda aholining ayrim qatlamlari uchun qo‘shimcha tibbiy yordam ko‘rsatilishi belgilab berilgan.

Ammo respublika fuqarolari bu haqiqat qanchalik achchiq bo‘lsada, avvalambor o‘zlarining sustkashligi tufayli bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishning mavjud shartlari va imkoniyatlari haqida yetarlicha ma’lumotga ega emaslar.

Shu sababli bugungi kunda sog‘liqni saqlash sohasi, tibbiy xizmatlar iste’molchilari huquqlariga rioya qilish nuqtai nazaridan eng muammoli sohalardan bo‘lib qolmoqda. Shu sababli ham Respublikamizda «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonun iste’molchilar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratib berdi. Bu qonun 1996 yil 29-avgustda qabul qilingan bo‘lib, 47-moddadan iborat.

Bu qonunning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

a) fuqarolarning sog‘ligini saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minlash;

b) fuqarolarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;

v) davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Bu qonunning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining fuqarolar sog‘ligini saqlash sohasidagi vakolatlari keltirilgan. Umuman olganda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi fuqarolari sog‘liqni saqlash borasida dahlsiz huquqqa egadirlar.

Davlat yoshi, jinsi, millati, irqi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar fuqarolar sog‘ligi saqlanishini ta’minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat’iy nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi.Ushbu qoidani buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Ushbu qonunning 5-moddasida esa O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining vakolatlari keltirilgan.

Bunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi o‘z vakolatlari doirasida davolash-profilaktika, sanitariya, epidemiyaga qarshi, radiatsiya, ekologiya masalalari yuzasidan chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi hududidaga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning sog‘ligini muhofaza qilish to‘g‘ri-sida»gi qonunning 27-moddasiga binoan mijoz quyidagi huquqlarga ega:

a) tibbiyot xodimlari va xizmat ko‘rsatuvchi hurmat va mehr-muruvvat ko‘rsatishlari;

b) shifokorni va davolash-profilaktika muassasasini tanlash;

v) sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan sharoitda tekshiruvdan o‘tish, davolanish va parvarish qilinish;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilab qo‘ygan tartibda o‘z iltimosiga ko‘ra boshqa mutaxassislarning konsilium qilishi va ulardan maslahat olish;

- ma’lumotlarning sir saqlanishini;

- tibbiy aralashuvga o‘z ixtiyori bilan rozilik berish yoki uni rad etish;

- tibbiy yordam ko‘rsatish vaqtida sog‘ligiga zarar yetkazilgan taqdirda ko‘rilgan zararning o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi;

- huquqini himoya qilishi uchun huzuriga advokat yoki boshqa qonuniy vakil qo‘yilishi.

Huquqlari buzilgan taqdirda bemor yoki uning qonuniy vakili bevosita davolash-profilaktika muassasasining rahbari yoki boshqa mansabdor shaxsiga, yuqori boshqaruv organiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

2. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi roli.

«Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi qonun 1997 yil 25-aprelda qabul qilingan, 7-moddadan tashkil topgan.

Asosiy tushunchalar

Dori vositalari – kelib chiqishi tabiiy va sun’iy bo‘lgan bir yoki bir necha dori moddalari hamda yordamchi moddalar asosida hosil qilingan, kasallikning oldini olish, tashhis qo‘yish va davolash uchun qo‘llashga ruxsat etilgan vositalar.

Dori moddalari – kelib chiqishi tabiiy va sun’iy bo‘lgan, qo‘llashga ruxsat etilgan biologik faol moddalar.

Farmakologik vositalar – belgilangan farmakologik faollikka ega bo‘lib, klinik sinov ob’ektlari hisoblanadigan muayyan dorivor shaklidagi moddalar yoki moddalar aralashmasi.

Farmakopeya – dori vositalari sifatini, ularni tayyorlash, sifat-miqdor jihatidan nazorat qilishni, saqlash shart-sharoitlarini va nomlashini belgilaydigan davlat standartlari to‘plami.

Dorixona – dori vositalari tayyorlash, qadoqlash va ularning sifatini nazorat qilish, shuningdek dori vositalari, tibbiy buyumlarni, sanitariya va gigiyena ashyolarini harid qilish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi tibbiyot muassasasi.

Bu qonunning 3-moddasi «Aholini dor vositalari bilan ta’minlash sohasidagi davlat kafolatlari» deb yuritiladi.

Uning mazmuni quyidagicha: davlat dori vositalarining asosiy turlarini bemalol olishni va ular sifatli bo‘lishini kafolatlaydi. tibbiy maqsadda qo‘llanishga ruxsat etilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ish ko‘rishning barcha shakllari ta’qiqlanadi.

Tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalarining tibbiy buyumlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati dori vositalari bilan ta’minlash sohasidagi siyosatni belgilaydi va ro‘yobga chiqaradi, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlashga doir sog‘liqni saqlash dasturlarini tasdiqlaydi va mablag‘ bilan ta’minlaydi, ularning narxlarni nazorat qiladi.

6-modda. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Quyidagilar majburiy tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak:

a) davolash, kasallikning oldini olish, tashhis qo‘yish vositalari, shifobaxsh oziq-ovqat va parafarmatsiya mahsulotlari;

b) dorilarni tayyorlashda qo‘llaniladigan dori vositalari subsansiyalari va yordamchi moddalar;

v) ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining yangi kombinatsiyalari;

g) yangicha qadoqlangan, yangi shakl va tarkiblardagi yoki yangi texnologiya bo‘yicha tayyorlanayotgan dori vositalari;

d) tibbiy buyumlar.

13-modda. Dori vositalarini sotish

Dori vositalari faqat dorixona muassasalari orqali sotiladi.

Dorixonalar ishi dorixona amaliyoti uchun xos bo‘lgan standartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Dorixonalar ishini boshqarish oliy farmatsevtika ma’lumotlarga ega shaxslargagina ruxsat etiladi.

Barcha dorixona muassasalari sanitariya me’yorlari va qoidalariga javob berishi lozim.

Muddati o‘tgan dori vositalarini sotish va ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Dorixonalarning farmatsevtika faoliyatini nazorat qilishning davlatning vakolatli organlari amalga oshiradi.

Tayanch iboralar: dori vositalari, dori moddalari, dorixona, farmakologik vositalar.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun qachon qabul qilingan va necha moddadan iborat?
2. Qonunning maqsadi nimadan iborat?
3. tibbiyot amaliyotida qo‘llaniladigan dori vositalarining ro‘yxatini Kim belgilaydi?
4. Kimlarga dorixona ochishga ruxsat etiladi?
5. Mazkur Qonunga binoan dori vositalarini sotish qanday amalga oshiriladi?
6. Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risidagi Qonunning asosiy maqsadi nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Asosiy Qonun. T.: O‘zbekiston, 1992, 45-bet.
2. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun.
3. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.: O‘zbekiston, 2005.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonuniga sharh. T.: «O‘zbekiston» nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005, 288 b.
5. «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan Qonun.
6. «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan Qonun.
7. «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi 1997 yil 30 avgustda qabul qilingan Qonun.
8. «Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risida»gi 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan Qonun.
9. «Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi 1997 yil 3 iyulda qabul qilingan Qonun.
10. «Dori vositalari va farmotsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan Qonun.
11. «Bank va bank faoliyati to‘g‘risida»gi 1996 yil 25 aprelda qabul qiligan Qonun.
12. «Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida»gi 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan Qonun.
13. «Pochta aloqalari to‘g‘risida»gi 2005 yil 31 avgustda qabul qilingan Qonuni.
14. Shodimetov K. Tovar yorliqlari va shtrixli kodlash. Toshkent, «Yangi ars avlodi», 2005.
15. Normaxmatov R. Standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari. Samarqand, SamISI, 2002.

ILOVA

ISTE’MOLCHILARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TO‘G‘RISIDA

Mazkur qonunga quyidagilarga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan
O‘zR 05.04.2002 y. 364-II-son qonuni,
O‘zR 25.04.2003 y. 482-II-son qonuni.

1-modda. Ushbu qonunda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar
2-modda. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari
3-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar
4-modda. Iste’molchilarning asosiy huquqlari
5-modda. Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi), savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalari to‘g‘risidagi ma’lumot
6-modda. Tovar (ish, xizmat)lar to‘g‘risidagi ma’lumot
7-modda. Tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri ma’lumot berilgan taqdirda iste’molchilarning huquqlari
8-modda. Iste’molchining savdo va boshqa xizmat ko‘rsatish sohasida shartnoma tuzish hamda sotib olinayotgan tovar (ish, xizmat) sifatini tekshirish huquqi
9-modda. Oldi sotdi shartnomalarining ayrim turlari to‘g‘risidagi qoidalari
10-modda. Tovar (ish, xizmat)lar uchun haq to‘lash shakli hamda tartibi
11-modda. Ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari
12-modda. Iste’molchining tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo‘lishiga talab qo‘yish huquqi
13-modda. Iste’molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari
14-modda. Nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibi
15-modda.Tovar nuqsonlarini bepul bartaraf etish tartibi
16-modda. Iste’molchining nuqsonli tovarning harid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilishni talab qilishni talab qilish huquqi
17-modda. Iste’molchiga nuqsonli tovar sotilgan taqdirda u bilan hisob-kitob qilish
18-modda. Iste’molchining maqbul sifatli tovarni almashtirib olish huquqi
19-modda. Ishni bajarish, xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste’molchining huquqlari
20-modda. Tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli yetkazilgan zararlar uchun mulkiy javobgarlik
21-modda. Shartnomaning iste’molchi huquqlarini cheklab qo‘yadigan shartlari haqiqiy emasligi
22-modda. Ma’naviy zarar uchun haq to‘lash
23-modda. Iste’molchilar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash
24-modda. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan iste’molchilar huquqlarining himoya qilinishi

25-modda. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari vakolatlari
26-modda. Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishini va ularning sifatini nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari
27-modda. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik
28-modda. Moliyaviy xizmatlar sohasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish
29-modda. Iste’molchilarning huquqlarini sud orqali himoya qilish
30-modda. Iste’molchilarning jamoat birlashmalari

1-modda. Ushbu qonunda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar

Ushbu qonunda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

iste’molchi – foyda chiqarib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsiy iste’mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan fuqaro (jismoni shaxs);

ishlab chiqaruvchi – iste’molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor;

ijrochi – maishiy xizmat, uy-joy-kommunal, ta’mirlash-qurilish, transport xizmati va xizmat ko‘rsatishning boshqa sohalarida shartnoma bo‘yicha iste’molchi uchun ishlab bajaradigan yoki xizmatlar ko‘rsatadigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor;

sotuvchi – oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha iste’molchiga tovar realizatsiya qilinadigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor;

shartnoma – tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to‘g‘risida iste’molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o‘rtasidagi og‘zaki yoki yozma kelishuv;

tovar – ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste’molchiga shartnoma bo‘yicha sotish uchun mo‘ljallangan mahsuli, shu jumladan import mahsuloti;

normativ hujjatlar – standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (qurilish normalari va qoidalari, dori darmonlar xususidagi davlat farokopiyasi hamda muvaqqat farmokopeya qoidalari va boshqalar) texnik shartlar, texnik tavsiflar, reseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsiizligiga nisbatan belgilangan talablarni o‘z ichiga oluvchi boshqa hujjatlar;

tovar (ish, xizmat) ning xavfsizligi – tovarlarni iste’mol qilish va undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida ise’molchining xayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga va atrof muhitga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog‘liq xavf-xatarning yo‘qligi;

muvofiqlik sertifikati – sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni – tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarining majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo‘yiladigan talablarga nomuvofiqligi;

tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni – tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bo‘lmaydigan qilib qo‘yadigan yoxud bartaraf etish uchun ko‘p mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik;

kafolat muddati – tovardan (xizmatdan) foydalanishning (oylar hisobidagi) normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, nechta ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o‘tib va hokazo) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddati bo‘lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish (xizmatdan foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bo‘lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta’minlaydi;

xizmat muddati – tovardan foydalanishning belgilangan muddati bo‘lib, u tamom bo‘lgach, tovarning texnik holatidan qatiy nazar, undan foydalanish to‘xtalishi lozim;

yaroqlilik (saqlash) muddati – muayyan davr bo‘lib,bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo‘ladi va u tamom bo‘lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog‘ligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin;

kassa cheki – tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to‘langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to‘langan sana va kassa apparatining nomeri ko‘rsatilgan hujjat;

tovar cheki – tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to‘langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to‘langan sana ham sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma’lumot ko‘rsatilgan hujjat.

2-modda. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Qonun hujjatlarini ushbu qonunda belgilangan iste’molchilarning huquqlarini cheklab qo‘yishi, ularni himoya qilishning kafolatlarini kamaytirish mumkin emas.

3 – modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar

Agar O‘zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnoma yoki bitimda iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo‘llaniladi.

4-modda. Iste’molchilarning asosiy huquqlari

Iste’molchilar quyidagi huquqlarga ega:

tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot olish;

tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo‘lishi;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi;

hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulk uchun xavfli nuqsoni bo‘lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g‘ayri qonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma’naviy zararning to‘liq hajmda qoplanishi;

buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so‘rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

iste’molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste’molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlari uchun qonun hujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko‘rsatishning boshqa turlari bo‘yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

5-modda. Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi), savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalari to‘g‘risidagi ma’lumot

Ishlab chiqaruvchi o‘z korxonasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili haqida iste’molchini xabardor qilishi shart. Bunday ma’lumot ishlab chiqarish markasi yoki tovar belgisida ko‘ratilgan bo‘lishi yoxud boshqa usulda taqdim etilishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) o‘z tashkilotining firma nomi, uning joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibini iste’molchiga ma’lum qilishi shart. Bunday m’lumot lavhada aks ettirilishi lozim.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma’lumot savdo va xizmat ko‘rsatish muvaqqat binolar, yarmarkalar, ko‘chma do‘konchalar orqali amalga oshirilgan yoki savdo va xizmat ko‘rsatish sotuvchi (ijrochi)ning doimiy joylashgan manzilidan tashqarida amalga oshirilgan boshqa hollarda ham iste’molchilar e’tiboriga yetkazilishi kerak.

Sotuvchi (ijrochi) iste’molchiga tovarlar savdosi, maishiy vaboshqa turdagi xizmat ko‘rsatishning qoidalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berishi shart.

6-modda. Tovar (ish, xizmat)lar to‘g‘risidagi ma’lumot

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste’molchiga o‘zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o‘z vaqtida zarur, to‘g‘ri va tushunarli ma’lumot berishi shart.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma’lumotda quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

tovar (ish, xizmat) majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo‘lgan normativ hujjatning nomi;

tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste’mol xususiyatlari, shu jumladan o‘ziga xos xususiyatlari ro‘yxati;

bahosi va sotib olish shartlari;

ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari;

tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;

tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning nomi va mulkchilik shakli, ro‘yxatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek ta'mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko‘rsatadigan korxonalarning manzillari;

tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari;

teatr-konsert tadbirlari o‘tkazilayotganda fonogrammadan foydalanishi to‘g‘risidagi axborot.

Sertifikatlanishi shart bo‘lgan tovar haqida iste'molchiga uning sertifikatlanganligi to‘g‘risida ma'lumot taqdim etilishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi zarur axborotning yo‘qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma'lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko‘rsatmasi bo‘yicha to‘xtatib turilishiga sabab bo‘ladi.

7-modda. Tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri ma'lumot berilgan taqdirda iste'molchining huquqlari

Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto‘g‘ri yoki yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma'lumot berilganligi:

zarur iste'mol xossalariga ega bo‘lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olinishiga sabab bo‘lsa, ise'molchi shartnomani bekor qilishga va o‘ziga yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir;

sotib olingan tovar (ish, xizmat) dan ko‘zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo‘lsa, iste'molchi tegishli ma'lumot oqilona qisqa (ko‘pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir;

iste'molchining hayotiga, sog‘ligiga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo‘yishga haqlidir;

Iste'molchining tovar (ish, xizmat) haqidagi noto‘g‘ri yoki yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan ma'lumot tufayli yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi talablarni sotib olingan tovar (ish, xizmat)ning xossalari va jihatlari haqida iste'molchi maxsus bilimga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

Noto‘g‘ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi lozim.

8-modda. Iste’molchining savdo va boshqa xizmat ko‘rsatish turlari sohasida shartnoma tuzish hamda sotib oinayotga tovar (ish, xizmat) sifatini tekshirish huquqi

Iste’molchi shartnoma tuzish yo‘li bilan tovarni (ish, xizmatni) erkin sotib olish huquqiga ega bo‘lib, bu shartnomaga ko‘ra sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) iste’molchiga muayyan miqdordagi va maqbul sifatli tovarni mulk qilib topshirish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish) majburiyatini, iste’molchi esa, shartlashilgan pulni to‘lash majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar.

Narxnoma bilan qo‘yilgan tovarlar hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida keluvchilar e’tiboriga havola etiladigan ma’lumot tegishli shartnomani tuzish uchun taklif deb hisoblanadi.

Tomonlar o‘rtasida shartnoma narsasi, miqdor, narx va boshqa muhim shartlar to‘g‘risida kelishuvga erishilsa, iste’molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o‘rtasida shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Tuzilgan zahoti bajariladigan shartnoma, qoida tariqasida, og‘zaki shaklda tuziladi, qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan hollar bundan mustasno. Tuzilgan vaqtdan boshqa paytda (oldindan beriladigan buyurtmalar bo‘yicha, jo‘natma savdoda va boshqa hollarda) bajariladigan shartnoma yozma shaklda tuziladi.

Iste’molchi sotib olingan tovar (ish, xizmat) sifatini, butligini, vazni va narxini tekshirish huquqiga ega, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) esa, nazorat-o‘lchov asboblarini, narxga doir hujjatlarni taqdim etishi, tovarni ishlatib ko‘rsatishi, undan xavfsiz va to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatishi, zarurat bo‘lsa, tovarni ekspertizaga yuborishi shart.

9-modda. Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to‘g‘risidagi qoidalar

Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to‘g‘risidagi qoidalar, shuningdek ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish qoidalari O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlanadi.

10-modda. Tovar (ish, xizmat)lar uchun haq to‘lash shakli hamda tartibi

Tovar (ish, xizmat)lar uchun haq to‘lash shakli hamda tartibi iste’molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Tovarlarni kreditga sotish O‘zbekiston Respublikasi hukumati hukumati tomonidan tasdiqlanadigan tovarlarni kreditga sotish qoidalari bilan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Oldi-sotdi amalga oshirilganda iste’molchiga kassa yoki tovar cheki beriladi. Tovarni kassa yoki tovr chekini bermasdan sotish taqiqlanadi.

11-modda. Ishlab .chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari

Uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdagi tovarlar va xizmatlarga ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati belgilashi lozim. Kafolat muddati tovar iste’molchiga sotilgan yoki xizmat ko‘rsatilgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar

tovar sotilgan kunni aniqlashning imkoni bo‘lmasa,bu muddat tovar ishlab chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati mobaynida tovar (xizmat)ning, shu jumladan butlovchi buyumlarning normal ishlashi (qo‘llanilishini, ulardan foydalanishini) ta’minlashi shart.

Butlovchi buyumlarning kafolat muddati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, asosiy buyumning kafolat muddatidan kam bo‘lmasligi lozim.

Kafolat muddati tovr (xizmat)ning pasportida yoki tovarni sotish yoxud xizmat ko‘rsatish paytida tovar bilan birgalikda iste’molchiga beriladigan boshqa hujjatlarda ko‘rsatiladi.

Ishlab chiqaruvchi tovardan kafolat muddati va xizmat muddati mobaynida foydalanish imkoniyatini ta’minlashi, tovarning ta’minlanishi va unga texnik ko‘rsatilishini tashkil etishi, tovarni ishlab chiqarish muddati mobaynida hamda u ishlab chiqarishdan olib tashlanganidan keyin tovrning xizmat muddati mobaynida, bunday muddat bo‘lmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarishning olib tashlangan paytlaridan e’tiboran o‘n yil mobaynida yetarli hajmda va turda ehtiyot qismlari ishlab chiqarishi hamda savdo va ta’mirlash tashkilotlariga yetkazib berishi shart.

Dori-darmon, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida ular ishlab chiqarilgan sana va yaroqlilik muddati hamda saqlash shartlari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Sotuvchilarning yaroqlilik muddati ko‘rsatilmagan yoki bu muddati o‘tib ketgan tovrlarni qabul qilishi va realizatsiya qilish man etiladi.

12-modda. Iste’molchilarning tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo‘lishiga talab qo‘yish huquqi

Iste’molchi sotib olgan tovar (ish, xizmat) sanitariya-gigiyena, shu jumladan radiologiya, epidemiyaga qarshi talablarga va amaldagi boshqa normalar hamda qoidalarga rioya etgan holda ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan bo‘lishiga va uning hayoti, sog‘lig‘i, atrof muhit uchun xavfsiz bo‘lishiga, shuningdek uning mol-mulkiga zarar yetmasliliga kafolat berilishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar (ish, xizmat)ning iste’molchilar hayoti, sog‘ligi, mol-mulki va atrof muhit uchun xavfsiz bo‘lishiga doir talablar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tovar (ish, xizmat)ning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo‘lsa, tovar iste’molchiga sotilgan (ish bajarilgan) kundan e’tiboran o‘n yil mobaynida uning xavfsiz bo‘lishini ta’minlashi shart.

Iste’molchilarning hayoti, sog‘ligi, mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavf tug‘diruvchi tovar ishlab chiqarganlik (ish bajarganlik, xizmat ko‘rsatganlik) uchun qonun hujjatlariga muvofiq;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi);

normativ hujjatlarni tasdiqlagan organ;

muvofiqlik sertifikati bergan organ;

sog‘liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, veterinariya xizmati organlari yoki xavfli tovar (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoxud realizatsiya qilishga ruxsat bergan boshqa organlar javobgar bo‘ladi.

Tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi ta’minlanmaganligi oqibatida iste’molchining hayotiy, sog‘ligi yoki mol – mulkiga yetkazilgan zarar ushbu qonunning 20 – moddasiga muvofiq qoplanishi lozim.

Agar tovar (ish, xizmat) dan xavfsiz foydalanish yoki uni shu tarzda tashish va saqlash uchun maxsus qoidalarga rioya etish zarur bo‘lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday qoidalarni ishlab chiqishi, sotuvchi (ijrochi) esa, ularni ise’molchilar e’tiboriga yetkazishi shart.

Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish, ish (xizmat) natijalari ise’molchining hayoti, sog‘lig‘i, mol mulkiga yoki atrof muhitga zarar yetkazalayotganligi yoxud zarar yetkazilishi mumkinligi aniqlansa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etilgunga qadar ularni ishlab chiqarishni (bajarishni, uni realizatsiya qilishni) darhol to‘xatishi, muomaladan chiqarish va iste’molchilardan qaytarib olish choralarini ko‘rishi shart.

Zararning sabablarini bartaraf etish mumkin bo‘lmagan taqdirda, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlashi, ishni bajarishni va xizmat ko‘rsatishni to‘xtatishi shart, shu bilan birga oziq-ovqat mahsuloti sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan albatta utilizatsiya qilinishi kerak. Bu majburiyatlar ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan bajarilmagan taqdirda tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, ishni bajarishni va xizmat ko‘rsatishni to‘xtatib qo‘yish, muomaladan chiqarish va iste’molchilardan qaytarib olish tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi va sifati ustidan nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining ko‘rsatmasi bilan amalga oshiriladi.

Iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga hamda atrof-muhit uchun xavfli bo‘lgan tovarlarning partiyalarini muomaladan chiqarish, ishlarni bajarishni va xizmatlar ko‘rsatishni taqiqlab qo‘yish tartibi O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi.

Tovarni qaytarib olish, ishni bajarishni va xizmat ko‘rsatishni taqiqlab qo‘yish munosabati bilan iste’molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi lozim.

Agar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) xavfli xossalarga ega bo‘lgan tovarni qaytarib olish yuzasidan barcha zarur choralarni ko‘rgan bo‘lsa, u iste’molchi mazkur tovardan foydalanishni davom ettiraverishi tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

13-modda. Iste’molchiga nuqsonli tovar soilganda uning huquqlari

Nuqsonli tovar soilgan iste’molchi, agar bu hol shartnoma tuzish paytida aytib o‘tilmagan bo‘lsa, o‘z hohishiga qarab quyidagilardan birini talab qilishga haqli:

tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli tovrga almashtirib berish;

tovarnii boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning harid narxini tegishlicha qayta hisob-kitob qilish;

tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste’molchining yoxud uchinchi shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan harajatlarini qoplash;

harid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish;

shartnomani bekor qilib, ko‘rilgan zararni qoplash.

Agar nuqsonlar:

tovarning kafolat muddati yoxud yaroqlilik muddati mobaynida;

kafolat muddati va yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar bo‘yicha olti oy mobaynida;

ko‘chmas mulk iste’molchiga o‘tkazilgan kundan e’tiboran ikki yil mobaynida, agar shartnomada bundan uzoqroq muddat nazarda tutilmagan bo‘lsa;

mavsumiy tovarlar uchun O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan muddat mobaynida aniqlangan bo‘lsa, iste’molchi mazkur huquqlarini ruyobga chiqarishi mumkin.

Iste’molchi o‘ziga sotilgan, to‘plamlar, garniturlar, komplektlar va komplekslarning musaqil tarkibiy qismi bo‘lgan va mustaqil narxga ega bo‘lmagan buyumlarda nuqsonlar borligini aniqlagan taqdirda, butun to‘plam, garnitur, komplekt va kompleksga nisbatan ham, ularning nuqsonlari bor mustaqil tarkibiy qismlariga nisbatan ham ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan talablarni qo‘yishga haqlidir.

Ushbu moddaning birinchi qismida bayon etilgan talablarni iste’molchi sotuvchiga qo‘yadi.

Iste’molchining talablari u kassa yoki tovar chekini, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo‘yicha esa, tegishlicha rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o‘rninin bosuvchi boshqa hujjatni tarqdim etgan taqdirda ko‘rib chiqiladi.

Iste’molchi texnik pasportni yo‘qotib qo‘ygan taqdirda, uni qayta tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovarda aniqlangan nuqsonlar ishlab chiqaruvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ishlab chiqaruvchi bilan sotuvchining o‘zaro mnosabatlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

14-modda. Nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibi.

Iste’molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlangan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini qo‘shimcha ravishda tekshirish zarur bo‘lganida esa, iste’molchi talab qo‘ygan paytdan e’tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo‘lmagan taqdirda, iste’molchining almashtirib berish xususidagi talabi da’vo qilingan paytdan e’tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho‘l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste’molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o‘tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste’molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to‘laydi.

Iste’molchining roziligi bilan sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovrga almashtirib berib, harid narxini tegishlicha qayta hisob-kitob qilishi shart.

15-modda. Tovar nuqsonlarini bepul bartaraf etish tartibi

Tovarda kafolat muddatida topilgan nuqsonlarni sotuvchi iste’molchi tegishli talab qo‘ygan paytdan e’tiboran yigirma kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, o‘n kun ichida bepul bartaraf etishi lozim.

Iste’molchi kafolat muddati tugagandan keyin tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish to‘g‘risida ishlab chiqaruvchiga talab qo‘yishga haqli. Bunday talab, basharti tovarda ishlab chiqaruvchining aybi bilan yo‘l qo‘yilgan jiddiy nuqsonlar aniqlangan bo‘lsa, belgilangan xizmat muddati mobaynida, agar xizmat muddati belgilanmagan bo‘lsa, o‘n yil mobaynida qo‘yilishi mumkin.

Uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarni ta’mirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste’molchining talabiga binoan nuqsonli tovar qaytarib berilganidan keyin uch kun ichida unga ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar berib turiladi (sotuvchining hisobidan uning o‘zi yoki vakili eltib beradi). Buning uchun ishlab chiqaruvchi sotuvchi bilan birgalikda shartnoma asosida tovarlarning almashuv fondini nazarda tutishlari shart. Mazkur talablar tatbiq etilmaydigan uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarlar ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasi belgilaydi.

Tovardagi nuqsonlarni bararaf etish xususida talab qo‘yilgan taqdirda, undan foydalanishning kafolat muddati iste’molchining tovardan foydalana olmagan davrga teng muddatga uzaytiriladi. Mazkur muddat ise’molchi nuqsonlarni bartaraf etish talabi bilan murojaat etgan kundan e’tiboran hisoblana boshlaydi.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste’molchining ta’mirlashga ketadigan vaqtda foydalanish uchun shunday tovarni berib turish haqidagi talabini bajarish kechiktirilgan har bir kun uchun, shuningdek nuqsonlarni bararaf etishning shartnomadan kelib chiqadigan muddatlaridan ortiq kechiktirilgan har bir kun uchun tovar narxining bir foizi miqdorida iste’molchiga neustoyka (penya) to‘laydi.

16-modda. Iste’molchining nuqsonli tovarning harid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilishni talab qilish huquqi

Agar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste’molchining tovarni almashtirib berish yoki undagi nuqsonlarni bararaf etish haqidagi talablarii bajarmagan bo‘lsa, iste’molchi tovarning harid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilib, yetkazilgan ziyon va zararni ushbu qonunning 20 va 22-moddalariga muvofiq qoplashni talab qilishga haqli.

17-modda. Iste’molchiga nuqsonli tovar sotilgan taqdirda u bilan hisob-kitob qilish

Nuqsonli tovar ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilgan vaqtda tovarning nurxi o‘zgargan bo‘lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Nuqsonli tovar boshqa markali (modelli, artikulli) tovrga almashtirib berilayotganda, agar almashtirilishi kerak bo‘lgan tovar nurxi uning o‘rniga berilayotgan tovar narxidan past bo‘lsa, iste’molchi narxlardagi farqni qo‘shimcha ravishda to‘lashi lozim, almashtirilishi kerak bo‘lgan tovar narxi uning o‘rniga berilayotgan tovr narxidan yuqori bo‘lsa, iste’molchiga narxlardagi farq qaytariladi. Bunday hisob-kitob chog‘ida almashtirilishi kerak bo‘lgan tovar narxi oshgan taqdirda, uning talab qo‘yilgan paytdagi narxi, narxi pasaygan taqdirda esa, harid qilingan paytdagi narxi qo‘llaniladi.

Shartnoma bekor qilinayotganda tovar narxi oshgan bo‘lsa, iste’molchi bilan hisob-kitob tovarning tegishli talab qo‘yilgan paytdagi qiymatiga qarab, narxi pasaygan taqdirda esa, harid qilingan paytdagi qiymatiga qarab amalga oshiriladi.

Tovar iste’molchilarga kreditga sotilgan bo‘lsa, pul summasi tovar qaytarilayotgan paytga qadar uzilgan kredit miqdori qaytarib beriladi, shuningdek kredit berganlik haqi to‘lanadi.

Hajmi katta yoki vazni besh kilogrammdan ziyod tovarni ta’mirlash, narxini tushirish, almashtirish uchun eltish va iste’molchiga qaytarib keltirib berish sotuvchining (ishlab chiqaruvchining) kuchi bilan va uning hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu majburiyat bajarilmagan taqdirda tovarni eltish va qaytarib olib kelish iste’molchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda ise’molchining tovarni eltish va qaytarib olib ketish bilan bog‘liq harajatlarini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) qoplashi shart.

18-modda. Iste’molchining maqbul sifatli tovarni almashtirib olish huquqi

Iste’molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini harid qilgan kunidan e’tiboran o‘n kun ichida ushbu tovar soib olingan joydagi sotib oluvchidan uni ayni shunday tovrga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo‘lmasa, pulini qaytarib olishga haqli.

Almashtirib olish tartibi va almashtirib berilmaydigan tovarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi hukumati tasdiqlaydigan qoidalar bilan belgilanadi.

19-modda. Ishni bajarish, xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste’molchining huquqlari

Ijrochi ayrim turdagi ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) qoidalarida yoki shartnomada belgilangan muddatda, hajmda va sifatda ishni bajarishi (xizmat ko‘raishi) shart.

Ishni bajarish (xizmat ko‘rsatish) muddati ish bajarilishi (xizmat ko‘rsatilishi) lozim bo‘lgan sanaga (davrga), shuningdek ijrochi ishni bajarishga (xizmat ko‘rsatishga) kirishishi lozim bo‘lgan sanaga (davrga) qarab belgilanishi mumkin. Agar ish bajarish, xizat ko‘rsatish shartnomaning amal qilish muddati davomida qismlarga bo‘lib-bo‘lib ado etiladigan bo‘lsa, (vaqtli matbuotni yetkazib berish, texnik xizmat ko‘rsatish va boshqalar), ishlar bajarish (xizmatlar ko‘rsatish)ning bosqichma-bosqich muddatlari (davrlari) nazarda tutilishi kerak.

Agar ijrochi shartnomani ijro etishga o‘z vaqtida kirishmasa yoki shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo‘lib qolsa, iste’molchi

ishni bajarish, xizma ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomadan voz kechishga va yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Agar ijrochi shartnoma shartlarini ish (xizmatda) boshqa jiddiy nuqsonlarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, yoxud ishda (xizmatda) boshqa jiddiy nuqsonlarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, iste’molchi o‘z xohishiga ko‘ra nuqsonlar bepul bartaraf etilishini, bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat) bahosi nuqsonlarga mutanosib ravishda kamaytirilishini, xuddi shunday sifatli, shu xildagi materialdan boshqa buyum bepul tayyorlab berilishini yoxud ishning takroran bajarilishini yoinki shartnoma bekor qilinib, ko‘rilgan zarar tsho‘liq qoplanishini talab qilishga haqli.

Iste’molchi ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan huquqlarini:

ishni (xizmatni) qabul qilib olish vaqtida yoki uning bajarilishi jarayonida nuqsonlar aniqlangan taqdirda;

kafolat muddati davomida, kafolat muddati bo‘lmagan taqdirda esa, ish (xizmat) qabul qilib olingan kundan e’tiboran olti oy davomida;

imorat yoki boshqa ko‘chmas mulkda nuqsonlar aniqlangan kundan e’tiboran ikki yil davomida ruyobga chiqarishi mumkin.

Ish bajarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish muddatlari shartnomada bo‘lgilab qo‘yiladi. Bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)dagi nuqsonlar, agar shartnomada bir muncha qisqaroq muddat belgilangan bo‘lsa, iste’molchi talab qilgan kundan e’tiboran yigirma kun ichida ijrochi tomonidan bartaraf etilishi kerak. Nuqsonlar belgilangan muddatda bararaf etilmagan, shuningdek ish bajarishni (xizmat ko‘rsatishni) boshlash va tugallash kechiktirilgan taqdirda, ijrochi iste’molchiga har bir kechiktirilgan kun, soat (agar muddat soatlarda belgilangan bo‘lsa) uchun ish (xizmat) qiymatining yoki buyurtma qiymatining (agar uning qiymat alohda belgilanmagan bo‘lsa) bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to‘laydi.

Iste’molchi undirib olgan neustoyka (penya) summasi ish bajarish (xizmat ko‘rsatish)ning alohida turi bahosidan yoki buyurtmaning umumiy bahosidan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Bajarilgan ishdagi nuqsonlarni bartaraf etish kechiktirilganligi uchun ijrochi to‘lagan neustoyka (penya) qoplanishi lozim bo‘lgan zarar hisobiga kirmaydi.

Ijrochining majburiyatni umuman yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka (penya) to‘lashi va zararni qoplashi uni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi.

Iste’molchidan qabul qilib olingan ashyo (material) yo‘qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda yoki iste’molchining materialidan foydalanib bajarilgan ishda nuqsonlar bo‘lsa yoki u buzib bajarilgan taqdirda ijrochi ise’molchiga aynan o‘xshash sifatli ashyoni qaytarilishi (o‘zining aynan o‘xshash sifatli materialdan ish bajarishi yoki xizmat ko‘rsaishi), buning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa, ashyoning (materialning) talab qo‘yilgan paytdagi qiymatini ikki barobar qilib to‘lashi shart.

Ijrochi tomonidan ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun qabul qilib olinayotgan ashyo (material) qiymati shartnoma tuzish paytida tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Ishda (xizmatda) jiddiy nuqsonlar mavjud bo‘lganida yoki shartnoma talablari jiddiy buzilganida, shuningdek ashyo (material) yo‘qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda iste’molchi bilan hisob-kitob ishining (xizmatning) yoki materialning shartnomani beaor qilish paytida oshgan narxini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Sifatsiz bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat) tufayli ise’molchiga yetkazilgan zarar uchun ijrochi ushbu qonunning 20, 22, 27, 29-moddalariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha iste’molchilar bilan ijrochi o‘rtasidagi munoabatlarning o‘z mohiyatiga ko‘ra ushbu moddaga mos kelmaydigan xususiyatlari, shuningdek shartnomalarning umuman yoki lozim darajada ijro etilmaganligi kelib chiqadigan oqibatlar bunday shartnomalarning alohida turlari to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladigan qoidalar bilan aniqlanadi.

20-modda. Tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik

Tovar (ish, xizmat)ning tuzilishiga, ishlab chiqarilishiga, tarkibiga bog‘liq bo‘lgan va boshqa nuqsonlari, shuningdek iste’molchiniing hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkining xavfsizligini ta’min eta olmaydigan material-lar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo‘llanilishi oqibatida iste’molchining xayotiga, sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan-kirishmaganidan qatiy nazar, har qanday iste’molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e’tiboran o‘n yil mobaynida yuzaga kelgan bo‘lsa, qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) zarar bararaf qilib bo‘lmaydigan kuch yoki foydalanish, saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari ise’molchi tomnidan buzilishi tufayli yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

21-modda. Shartnomaning iste’molchi huquqlarini cheklab qo‘yadigan shartlari haqiqiy emasligi

Shartnomaning iste’molchi huquqlarini cheklab qo‘yadigan va qonun hujjatlariga zid bo‘lgan talablari haqiqiy emas deb hisoblanadi. Agar ularni qo‘llanish natijasida iste’molchiga zarar yetkazilgan bo‘lsa, bu zarar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) iste’molchini haq evaziga qo‘shimcha tovrlar sotib olishga yoki qo‘shimcha xizmatlardan foydalanishga qistashga haqli emas.

22-modda. Ma’naviy zarar uchun haq to‘lash

Iste’molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma’naviy zarar uchun uni yetkazgan shaxs, basharti u aybdor bo‘lsa, haq to‘lashi lozim. Ma’naviy zarar uchun to‘lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi.

Ma’nuviy zarar uchun haq to‘lash mulkiy ziyon va iste’molchi ko‘rgan zararning o‘rni qoplanishidan qat’iy nazar, amalga oshiriladi.

23-modda. Iste’molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash

Davlat iste’molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog‘idagi huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste’molchilarnnig huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek sudlar ta’minlaydilar. Quyidagilar iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir:O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi; O‘zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash-tirish agentligi; O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi; O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi; iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o‘z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari.

24-modda. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan iste’molchilar huquqlarining himoya qilinishi

Iste’molchilar huquqlari himoya qilinishi uchun mahalliy hokimiyat organlari:

iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini tashkil etadilar;

iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan davlat organlar va iste’molchilarning jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladilar;

iste’molchilarning shakoyatlari, arizalari va takliflarini ko‘riib chiqadilar;

iste’molchilarning (iste’molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib sudlarga murojaat etadilar;

o‘z huquqlari doirasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

25-modda. O‘zbkiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Monopolyadan chiqarish va raqobatni rivojlantrish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari ise’molchilarini himoya qilish maqsadida:

iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar;

ise’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llanish masalalari yuzasidan rasmiy tushuntirishlar beradilar;

iste’molchilarning huquqlarini buzayotgan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida ishlab chiqaruvchilarga (ijrochilarga, sotuvchilarga) ko‘rsatmalar yo‘llaydilar;

iste’molchilarning (iste’molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat etishga haqlidir;

qonun hujjatlariga muuvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

26-modda. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo‘lishini va ularning sifatini nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishini va ularning sifatini ta’minlash maqsadida «O‘zstandart» agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Soliqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa davlat boshqaruv organlari o‘z vakolatlari doirasida:

tovar (ish, xizmatlar)lar xavfsiz bo‘lishiga va ularning sifatiga doir majburiy talablarni belgilaydilar hamda bu talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishiga va ularning sifatiga doir talablar buzilishini bartaraf etish, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, chiqarish va realizatsiya qilishni to‘xtatish (ishlar bajarilishini, xizmatlar ko‘rsatilishini to‘xtatish), ularni iste’molchilardan qaytarib olish to‘g‘risida ishlab chiqaruvchilarga (ijrochilarga, sotuvchilarga) ko‘rsatmalar yo‘llaydilar, shuningdek bu haqda iste’molchilarni xabar qiladilar;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)lar tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo‘lishi va ularning sifatiga doir talablarni buzganlari taqdirda ularning ustidan sudlarga da’vo qo‘zg‘atadilar.

Tovar (ish, xizmatlar)lar xavfsiz bo‘lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari faoliyatini O‘zbekitston Respublikasi hukumati muvofiqlashtirib boradi.

27-modda. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari, agar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste’molchilar huquqlarining buzilishini bartaraf etish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarni bajarishdan bo‘yin tovlasa yoki o‘z vaqtida bajarmasa, unga jarima solishga haqli.

«O‘zstandart» agentligi va ushbu qonun 26-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan davlat boshqaruvining boshqa organlari:

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) majburiy sertifikatlash qoidalari ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan buzilsa;

o‘zlarining ko‘rsatmalarini ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bajarishdan bo‘yin tovlasa, o‘z vaqtida yoki lozim darajada bajarmasa;

normativ hujjat talablariga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat) tufayli iste’molchilarga zarar yetkazilsa, jarimalar solishga haqlidir.

Jarima miqdori va uni undirish tartibini qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Jarima so‘zsiz undirib olinadi.

Jarima solish ishlab chiqaruvchini (ijrochini, sotuvchini) yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarliklarni bartaraf qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) davlat boshqaruvi organining ko‘rsatmasini to‘liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish yoxud jarima solish haqidagi qarorni bekor qilish yoki o‘zgartirish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir.

Ariza berish, agar sud ko‘rsatmalarning yoki jarima solish haqidagi qarorning ijro etilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida ajrim chiqarmagan bo‘lsa, unin sudda ko‘rib chiqish davrida bu hujjatlarning bajarilishini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishi haqidagi talablarga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)lar tufayli iste’molchilarga zarar yetkazilsa, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo‘lishi va ularning sifati usidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

28-modda. Moliyaviy xizmatlar sohasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan ijrochi o‘zining tugatilishi yoki bankrot bo‘lishi ehtimolini nazarda tutgan holda iste’molchilarning talablarini qondirish maqsadida o‘z javobgarligini sug‘urta qildirishi shart.

Moliyaviy xizmatlar ijrochisi iste’molchiga yetkazilgan zarar uchun o‘zining javobgarligi to‘g‘risida sug‘urta shartnomasi borligi haqida iste’molchiga axborot berishi shart.

29-modda. Ise’molchilarning huquqlarini sud orqali himoya qilish

Iste’molchilarning huquqlari buzilgan taqdirda, u sudga murojaat qilishga haqlidir. Da’volar, agar qonunlarda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, javobgar, iste’molchi joylashgan yerdagi yoki zarar yetkazilgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Iste’molchilar o‘z huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq da’volar bo‘yicha, shuningdek tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste’molchilarning (iste’molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko‘zlab qo‘zg‘atiladigan da’volar bo‘yicha davlat boji to‘lashdan ozod qilinadilar.

30-modda. Iste’molchilarniing jamoat birlashmalari

Iste’molchilar o‘z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida ixtiyoriy ravishda iste’molchilar birlashmalarini tuzishlari mumkin.

Iste’molchilarning birlashmalari o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiruvchi jamoat birlashmalaridir.

O‘zbekiston
Respublikasi
Prezidenti **I.A. Karimov**

Toshkent shahri
1996 yil 26 aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTINING SIFATI VA XAVFSIZLIK TO‘G‘RISIDA

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi.

Ushbu qonun aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan ta’minlashning haqiqiy asoslarini belgilab beradi.

Ushbu qonunning talablari atir-upa, pardoz-andoz mollari va tamaki mahsulotlariga ham taaluqlidir.

2-modda. Asosiy tushunchalar.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- bolalarbop oziq-ovqat mahsulotlari – bolalar organizmining (uch yoshgacha) fiziologik xususiyatlariga javob beradigan maxsus oziq-ovqat mahsulotlari;
- gigiyena sertifikati – oziq-ovqat mahsuloti, texnologiya, uskuna va boshqa jarayonlar amaldagi sanitariya normalari va qoidalariga mos ekanligini tasdiqlaydigan hujjat;
- ovqatga qo‘shiladigan biologik faol qo‘shimchalar – oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlash yo‘li bilan yoki sun’iy usulda qilingan hamda bevosita ovqat bilan birga iste’mol qilishga yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo‘shishga mo‘ljallangan tabiiy aynan o‘xshaydigan biologik faol moddalarning konsentratlari;
- oziq ovqat – oziq-ovqat xom ashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holida iste’mol qilinadigan mahsulotlar;
- oziq-ovqat mahsuloti – oziq-ovqat xom ashyosi, (shu jumladan, etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, materiallar yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar birga;
- oziq-ovqat mahsuloti muomalasi – oziq-ovqat mahsulotlarini ma’lum shartlar bilan sotish, yetkazib berish va topshirishning boshqa shakllari;
- oziq-ovqat mahsulotining sifati – oziq-ovqat mahsulotlarining iste’mol xossalarini belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog‘ligi uchun xavfsizligini ta’minlaydigan me’zonlar majmui;
- oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi – oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalari va qoidalariga mosligi;
- oziq-ovqat xom ashyosi – oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan o‘simlik, hayvonot, mikrobiologiya, shuningdek, minarallar ob’ektlari, suv;
- oziq-ovqatlarni hamda oziq-ovqat xom ashyosini taqqoslash - oziq-ovqatlar hamda oziq-ovqat xom ashyosi aniq turdagi va nomdagi mahsulotga doir normativ va (yoki) texnikaviy hujjatda belgilab qo‘yilgan muhim mezonlarga mos kelishini aniqlash;

- oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati) – bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, realizatsiya qilish chog‘ida xavfsizlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilgan taqdirda u foydalanishga yaroqli bo‘lib turadi, bu muddat tamom bo‘lganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli bo‘lib qolishi mumkin;
- oziq-ovqat mahsulotini qalbakilashtirish - oziq-ovqat xom ashyosining hamda oziq-ovqatlarning xossalari va mezonlarini ataylab qo‘shiladigan tabiiy holdagi yoki sintez qilingan moddalar, birikmalar;
- toksikologiya-gigiyena ekspertizasi - oziq-ovqat mahsuloti ustidan amalga oshiriladigan bir turkum laboratoriya tadqiqotlari bo‘lib, ular mavjud normalar va qoidalar bilan qiyoslashga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Qadoqlash materiallari, yordamchi materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar oziq-ovqat mahsulotini muomala jarayonida tashqi ta’sirlardan himoyalash maqsadida ishlatiladigan vositalar.

3-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonunda va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog‘iston Respubli kasida oziq-ovqat mahsulotining sifati xavfsizligi Qoraqalpog‘iston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ushbu Qonunda nazarda tutiladigan boshqacha qoidalar belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

4-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya epidemiologiya xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi xuzuridagi O‘zbekiston davlat standartlash, markazi hamda qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa organlar (bundan keyin matnda davlat nazorati organlari deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

- davlat tomonidan normalash;
- oziq-ovqat mahsulotini hamda uni tayyorlashga mo‘jallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlash;

- davlat nazorati va tekshiruvi;
- oziq-ovqat mahsulotining sifatini va xavfsizligini ta’minlash tadbirlarini rejalashtirish.

5-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat tomonidan normalash.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat tomonidan normalash oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizliligi, uni ishlab chiqarish, tayyorlash, harid qilish shart-sharoitlariga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladigan sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalarini, qoidalarini va gigiyena normativlarini, davlat standartlarini, texnikaviy shartlarni (bundan keyin matnda normalar va qoidalar deb yuritiladi) belgilash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ular oziq-ovqat mahsuloti muomalasi sohasida ish olib borilayotgan yuidik hamda jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

6-modda. Oziq-ovqat mahsulotini hamda uni tayyorlashga mo‘ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Oziq-ovqat mahsuloti hamda uni tayyorlashga mo‘ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalar oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar talablariga xosligi baholanganidan hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin ishlab chiqarilishi, O‘zbekiston Respublikasi xududida olib kirilishi, realizatsiya qilinishi va intilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan va uning xududiga olib kirilayotgan, O‘zbekiston Respublikasi xududida muomalaga ruxsat berilgan oziq-ovqat mahsulotini va uskunalarni davlat ro‘yxatidan o‘t kazish O‘zbekiston Respubli kasi Vazirla Mahkamasi xuzuridagiO‘zbekiston davlat standartlash, metrologiya va sertifikatsiya markazi tomonidan davlat sanitariya nazorati organlari beradigan gigiyena sertifikati asosida amalga oshiriladi.

Quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

- oziq-ovqat mahsulotining har xil turlarini bir xil nomda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- ayni bir turdagi oziq-ovqat mahsulotini bir xil yoki har xil nomlar bilan qayta-qayta ro‘yxatdan o‘tkazish.
- tarkibida giyohvandlik moddalari bo‘lgan oziq-ovqatni, ovqatga qo‘shiladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari, yembop qo‘shimchalar va biologik faoli qo‘shimchalarni ro‘yxatdan o‘t kazish.

7-modda. Oziq-ovqat mahsuloti, uni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va u bilan savdo qilishga mo‘ljallangan texnologiyalar, uskunalar, buyumlar va vositalarni sertifikatlash.

Oziq-ovqat mahsuloti, uni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va u bilan savdo qilishga mo‘ljallangan texnologiyalar, uskunalar, buyumlar va vositalar ularning normalar va qoidalarga mosligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlanishi lozim.

Majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar ro‘yxati hamda sertifikatlashdan o‘tkazish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini nazorat qilish va tekshirish.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi ushbu Qonunning 4-moddasida ko‘rsatilgan davlat nazorati organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida nazorat qilinadi va tekshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, harid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar belgilangan norma va qoidalarga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini ta’minlaydilar. Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish tartibi oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalarga, normativ hamda texnologiya hujjatlari talablariga muvofiq yurdik va jismoniy shaxslar bajaradigan ishlar va xizmatlarning xususiyatlarini va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda belgilanadi hamda tegishli nazorati organlari bilan kelishildi.

Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiruvchi yuridik jismoniy shaxslar normalar va qoidalarning talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda ishlarni amalga oshirishni va xizmatlar ko‘rsatishni aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to‘xtatib qo‘yishlari shart.

Jamoat birlashmalari qonun hujjatlariga muvofiq Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlashga doir normalar va qoidalar bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga haqli.

9-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash tadbirlarini rejalashtirish.

Oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarishni, oziq-ovqat mollari bilan savdo qilishni, umumiy ovqatlanish tizimini rivojlantirishning respublika va mintaqaviy maqsadli dasturlarini ishlab chiqarish chog‘ida oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash tadbirlari nazarda tutilmog‘i kerak.

10-modda. Yangi oziq-ovqat mahsulotini yaratish va ishlab chiqarish.

Yuridik va jismoniy shaxsar yangi oziq-ovqat mahsulotini yaratish va ishlab chiqarish yoki uni takomillashtirish chog‘ida oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini, yaroqlilik muddatini, sifat ko‘rsatkichlarini va nazorat qilish usullarini asoslab berishlari shart.

Oziq-ovqat mahsulotining sifat koʻrsatkichlari, uning xavfsizligiga qoʻyiladigan talablar majburiy boʻlib, ushbu mahsulotning normativ hujjatlariga kiritiladi.

Sifat va xavfsizligi muayyan vaqt oʻtganidan keyin oʻzgarishi hamda odamlarning hayoti va salomatligiga xavf tugʻdirishi mumkin boʻladigan oziq-ovqat mahsulotiga yaroqlilik muddati belgilanadi.

Yangi oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishga, yangi texnologiya jarayonlarini, uskunalarni joriy etishga ula toksikologiya-gigiyena ekspertizasidan, xayvonlardan olinadigan oziq-ovqat xom ashyosi esa veterinariya ekspertizasidan oʻtkazilgandan hamda mahsulot belgilangan normalar va qoidalarga mosligi haqida davlat sanitariya nazorati organining gigiyena sertifikati yoki xulosasi yoxud veterinariya nazorati organining xulosasi olinganidan va oziq-ovqat mahsuloti davlat reestiriga kiritilganidan keyin yoʻl qoʻyiladi.

11-modda. Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish.

Oziq-ovqat mahsulotini yuridik va jismoniy shaxslar normalar va qoidalar talablariga muvofiq ishlab chiqaradilar.

Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishda belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilgan oziq-ovqat xom-ashyosidan, oziq-ovqat qoʻshimchalaridan, qadoqlash va yordamchi materiallardan va ulardan ishlangan buyumlardan, uskunalardan foydalanishga yoʻl qoʻyiladi.

Tarkibida giyohvandlik moddlari boʻlgan Oziq-ovqat qoʻshimchalari, yembop qoʻshimchalar va biologik faol qoʻshimchalarni ishlatish ta’qiqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotining sifati belgilangan normalar va qoidalar talablariga mos boʻlishi ushbu qonun 7-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan, mahsulotlarning sifati esa sertifikat bilan ham tasdiqlanishi kerak.

Xayvonlardan olinadigan oziq-ovqat xom ashyosini yetishtirish chogʻida yem-xashaklar, yem qoʻshimchalari, xayvonlarni parvarishlashda ishlatiladigan veterinariya dori vositalari va preparatlarini qoʻllanishga ular davlat veterinariya davlat nazorati organlari tomonidan davlat sanitariya nazorati organlari bilan kelishilgan holda roʻyxatdan oʻtkazilgandan keyin yoʻl qoʻyiladi.

Oʻsimliklardan olinadigan oziq-ovqat xom ashyosini yetishtirish chogʻida zagʻarli kimyoviy moddalar, mineral oʻgʻitlarni qoʻllanishga ular toksikologiya-gigiyena ekspertizasidan oʻtkazilgandan keyin yoʻl qoʻyiladi.

12-modda. Oziq-ovqatlarni qadoqlash, oʻrash va tamgʻalash.

Oziq-ovqatlar ishlab chiqaruvchi yuridik va jismoniy shaxslar ularni qadoqlangan, oʻralgan (barcha muomala bosqichlarida sifati va oziqlik qimmati saqlanib qolishini ta’minlaydigan) va qonun hujjatlariga muvofiq tamgʻalangan gʻolda chiqarishlari shart.

Qadoqlangan va oʻralgan oziq-ovqatlar, ovqatga qoʻshiladigan biologik faol qoʻshimchalar, ozaq-ovqat qoʻshimchalari yorliqlarga ega boʻlishi, ularda quyidagilar koʻrsatilishi kerak:

- oziq-ovqatning nomi;

- oziq-ovqatning nimaga mo‘ljallanganligi (bolalarga maxsus mo‘ljallangan mahsulotlar va parxez taomlar uchun);
- tayyorlovchi nomi;
- tovar belgisi (belgiga ega tashkilotlar uchun);
- oziq-ovqat tarkibiga kirgan narsalar, shu jumladan oziq-ovqat qo‘shimchalarining nomi;
- oziqlik qimmati, navi;
- saqlash shart-sharoitlari;
- tayyorlangan sanasi, yaroqlilik muddati;
- tayyorlash usuli (masalliqlar hamda maxsus bolalarbop va parxez oziq-ovqat mahsulotlari uchun);
- og‘irligi;
- foydalanish usuli (biologik faol qo‘shimchalar: oziq-ovqat qo‘shimchalari, maxsus bolalarbop va parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun);
- muvofiqlik belgisi (mahsulotini muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alash xuquqini bekradigan litsenziyasi bor korxonalar uchun);
- normativ yoki texnikaviy hujjatlarning nomerlari.

13-modda. Oziq-ovqatlarni saqlash va tashish.

Oziq-ovqatlarni saqlaydigan va tashiydigan yuridik va jismoniy shaxslar normalar va qoidalarga rioya etishlari, oziq-ovqat sifatini saqlanishini va xavfsizligini ta’minlashlari shart.

14-modda. Oziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish.

Majburiy sertifikatlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan oziq-ovqat mahsulotining siafti va xavfsizligini tasdiqlaydigan moslik sertifikati yoki muvofiqlik belgisi bo‘lgan taqdirda realizatsiya qilinadi.

Oziq-ovqat mahsulotini chakana sotish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsuloti bilan savdo qilishga mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shu maqsadlar uchun ajratilgan joylarda yo‘l qo‘yiladi.

Quyidagi hollarda oziq-ovqat mahsulotini realizatsiya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi

- mahsulot sifati belgilangan normalar va qoidalar talablariga muvofiq bo‘lmasa, majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar uchun esa moslik sertifikati bo‘lmasa;
- saqlash va realizatsiya qilish uchun tegishli sharoit bo‘lmasa;
- yaroqlilik muddati tugagan bo‘lsa;
- mahsulot qalbakilashtirilgan bo‘lsa;
- mahsulotni taqqoslash mumkin bo‘lmasa.

15-modda.O‘zbekiston Respublikasi xududiga oziq-ovqat mahsulotini olib kirish.

O‘zbekiston Respublikasi xududiga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti ushbu Qonunda qo‘rsatilgan normalar va qoidalarning talablariga muvofiq bo‘lishi shart.

Chetda olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsulotini yetkazib beruvchi uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ishlab chiqaruvchining va eksport qiluvchi mamlakat maxsus vakil qilgan organning ushbu mahsulot xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarini, tegishli ekspertiza o‘t kazish zarur bo‘lganida esa oziq-ovqat mahsuloti, texnologiyalar va uskunalar qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan oziq-ovqam mahsuloti sifati va xavfsizligining normalar va qoidalarga mosligi davlat nazorati organlari tomonidan bojxona organlari bilan birgalikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

16-modda. Oziq-ovqat mahsulotini olib qo‘yish.

Odimlar xayoti sog‘ligi uchun xavfli bo‘lgan oziq-ovqat mahsuloti tegishli davlat nazorati organlarining qaroriga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib qo‘yilishi kerak.

17-modda. Normalar va qoidalarga mos kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotidan va uni yo‘q qilib tashlash.

Yaroqlilik muddati o‘tgan, sifatsizligi belgi berib turgan, taqqoslash va ishlab chiqaruvchisini aniqlash mumkin bo‘lmagan, shuningdek davlat sanitariya va (yoki) veterinariya nazorati organlari tomonidan gigiyena va (yoki) veterinariya ekspertizasi va sertifikatlash sinovlari natijalari bo‘yicha ovqatga ishlatish uchun yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarish va realizatsiya qilishdan olib tashlanadi., u belgilangan maqsadda ishlatilmasligi hamda qayti ishlanishi yoki yo‘q qilib tashlash usullari va shartlari uning egasi tomonidan tegishli davlat nazorati organlari bilan kelishib olinadi.

Oziq-ovqat mahsulotidan foydalanish (uni qayta ishlash) yoki yo‘q qilib tashlash, uning egasi tomonidan shu ishlarni bajarishni shartnoma bo‘yicha topshiradigan tashkilotlar tomonidan komissiya ishtirokida amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga davlat xokimiyati, mahalliy organlarining, davlat nazorati organlarining soliq organlarining va jamoatchilikning vakillari kiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlari xayvonlarga yem sifatida ishlatilgunicha yoki yo‘q qilib tashlangunicha alohida joyda (rezervuarda), alohida hisobda, miqdorini, ishlatish (qayta ishlash) yok yo‘q qilib tashlash usullari va shartlari aniq qo‘rsatilgan holda saqlanishi kerak. Bunday mahsulotning but saqlanishi uchun uning egasi javobgar bo‘ladi.

Oziq-ovqat mahulotini ekspertiza qilish, yo‘q qilib tashlash usullari va shartlarini belgilash, qayta ishlash,saqlash, tashish va yo‘q qilib tashlash bilan bog‘liq harajatlarni uning egasi to‘laydi.

Oziq-ovqat mahsulotining egasi davlat sanitariya va (yoki) veterinariya nazorati organlariga mahsulotdan foydalanilganligi yoki u yo‘q qilib tashlanganligi haqida dalolatnoma taqdim etadi.

18-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘ldgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **I.A. Karimov**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

YOD YETISHMASLIGI KASALLIKLARI PROFILAKTIKASI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 27 dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2007 yil 29 martda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnosidan O‘zbekiston Respublikasining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tug‘ilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

yod yetishmasligi kasalliklari – organizmda yodning yetishmasligi oqibatida qalqonsimon bez kasalliklari ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan kasalliklar;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi – yod yetishmasligi kasalliklarining oldini olishga qaratilgan chora – tadbirlar tizimi;

yodlangan oziq – ovqat mahsulotlari – ishlab chiqarish jarayonida yod bilan boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari;

yodlangan tuz – ishlab chiqarish jarayonida yod bilan boyitilgan osh tuzi.

2-bob. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasining davlat tomonidan tartibga solishi

4-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati yod yetishmasligi kasalliklari kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan bo‘lib, quyidagilar orqali ro‘yobga chiqariladi:

yod yetishmaligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;

iste’mol bozorini yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligi, ularni saqlash sharoitlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

yod yetishmasliklari kasalliklari profilaktikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

bolalarni va tug‘ish yoshidagi ayollarni tarkibida yod bo‘lgan preparatlar bilan profilaktik ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish;

yodlangan tuz, yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari va yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi hamda ularni davolash uchun foydalaniladigan dori vositalari va preparatlarni ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari ishlab chiqarish sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasiga doir tadbirlar samaradorligining monitoringi;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida hisobga olishning axborot-tahlil va statistik tizimlarini takomillashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet el yuridik va jismoniy shaxslarining mablag‘larini yod yetishmasligi kasalliklari muammolariga, mazkur kasalliklarning profilaktikasi hamda davolash usullariga jalb etish;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

5-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvi

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradi.

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi davlat boshqaruvi:

profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari o‘tkazish, yod yetishmasligi kasalliklariga tashhis qo‘yish va ularni davolashni tashkil etishni;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi va ularni davolash uchun dori vositalari hamda preparatlarni, yodlangan tuz va yodlangan oziq – ovqat mahsulotlarini standartlashtirish hamda sertifikatlashtirishni;

tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlashni davlat tomonidan normalashtirishni;

davlat boshqaruvi organlarining, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib borishni;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ularning muomalasi ustidan davlat nazoratini o‘z ichiga oladi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va ro‘yobga chiqarilishi ta’minlaydi;

davlat boshqaruvi organlarining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi masallariga doir faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi:

yod yetishmaligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarining bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarini ro‘yobga chiqaradi;

tuzni va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash bo‘yicha sanitariya-epidemiologiya talabalarini belgilaydi;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, ishlab chiqarilishi saqlanishi monitoringini olib boradi;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etadi;

aholi o‘rtasida yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib boradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

8-modda. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikalashtirish agentligi;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qayta ishlangan taalluqli davlat standartlarini tasdiqlaydi;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qayta ishlashda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan standartlarning majburiy talabalariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

9-modda. Mahalliy davlat xokimiyati organlarining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat xokimiyati organlari:

yod yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi xududiy dasturlarning ishlab chiqilish, tasdiqlanishi va ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi;

tegishli davlat organlarining aholini yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash bozorasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda vakolatlari doirasida davlat nazoratini amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3-bob. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi doir chora-tadbirlar

10-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi turlari

Inson organizmining yodga bo‘lgan zaruriy ehtiyojini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududida yod yetishmasligi kasalliklarining ommaviy va yakka tartibdagi profilaktikasi amalga oshiriladi.

11-modda. Yod yetishmasligi kasalliklarining ommaviy profilaktikasi

Yod yetishmasligi kasalliklarining ommaviy profilaktikasi oziq-ovqat yodlangan tuz ishlatish va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilishi qilish orqali amalga oshiriladi.

Yodlangan tuz iste’mol qilish tibbiy jihatdan yoki boshqa jihatdan yoki boshqa jihatdan to‘g‘ri kelmaydigan shaxslar uchun yodlanmagan tuz olish imkoniyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ta’minlanadi.

12-modda. Yod yetishmasligi kasalliklarining yakka tartibdagi profilaktikasi

Yod yetishmasligi kasalliklarining yakka tartibdagi profilaktikasi, profilaktikasi va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari, tibbiy ko‘riklar o‘tkazish, tashhis qo‘yish va davolash orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liq saqlash vazirligi yod yetishmasligi kasalliklarining yakka tartibda profilaktikasini ta’minlash maqsadida profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari, tibbiy ko‘riklar o‘tkazish, yod yetishmasligi kasalliklariga tashqis qo‘yish va ularni davolash tartibini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi.

13-modda. Aholini yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi masalalariga doir axborot bilan ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligi va Mahalliy davlat xomiyati organlari aholiga yod yetishmasligi kasalliklarining kelib chiqishi va tarqalishi omillari, bunday kasalliklarning profilaktikasi doir choralar to‘g‘risida ishonchli va o‘z vaqtida axborot berilishini ta’minlaydi.

14-modda. Yod yetishmaslik kasalliklar profilaktikasiga doir tadbirlarni moliyalashtirish

Yod yetishmaslik kasalliklari profilaktikasiga doir tadbirlarni moliyalashtirish byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari mablag‘lar va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

4-bob. Yodlangan tuzga va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar

15-modda. Tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqaraladigan va realizatsiya qilinadigan osh tuzi albbata yodlanishi kerak, ushbu qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

16-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligiga doir talablar

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari davlat standartlari, qoidalari hamda normalar talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan, tartibida yod bo‘lgan preparatlaridan foydalaniladi. Tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash, yodlangan tuz va oziq-ovqat mahsulotlari sifati hamda xavfsizligi, ularni saqlash sharoitlari ustidan davlat nazorati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

17-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish davlat standartlari, qoidalari hamda normalari talablariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Belgilangan yaroqlilik muddati o‘tgan yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari utilizatsiya qilinishi, sanoat yo‘li bilan qayta ishlanishi yoki qayta yodlanishi kerak.

18-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

19-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash, o‘rash va tamg‘alash

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari qadoqlangan, o‘ralgan hamda tamg‘alangan holda ishlab chiqarilishi kerak.

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash, o‘rash hamda tamg‘alashga nisbatan qonun hujjatlariga oziq – ovqat mahsulotlarini qadoqdan, o‘rash va tamg‘alash borasida nazarda tutilgan qoidalar qo‘laniladi.

20-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar ularni tashish, saqlash hamda realizatsiya qilishni qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar va normalarga rioya etgan holda amalga oshirishlari shart.

Muvofiqlik sertifikati bo‘lmagan va yaroqlilik muddati o‘tgan yodlangan tuz hamda yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish taqiqlanadi.

21-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini olib kirish shartlari

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari O‘zbekiston Respublikasi hududiga faqat o‘ralgan tarzda hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga rioya etilgan holda olib kirilishi mumkin.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

22-modda. Nizolarni hal etish

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

23-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘qrisidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

24-modda. Qonun hujjatlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Xukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

Davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

25-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining
Prezidenti

I.A.Karimov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
25.04.1997 y. N 415-1

DORI VOSITALARI VA FARMATSEVTIKA FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA

Mazkur qonunga O‘zR 15.04.1999 y. 7721-son Qonuniga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan.

1- modda. O‘zbekiston Respublikasining dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.
2- modda. Asosiy tushunchalar.
3- modda. Aholini dori vositalari bilan ta’minlash sohasidagi davlat kafolatlari.
4- modda. Davlat organlarining dori vositalari bilan ta’minlash sohasidagi vakolatlari.
5- modda. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining vakolatlari.
6- modda. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish.
7- modda. Dori vositalarini ishlab chiqarish.
8- modda. Dorixonalarda dori vositalarini tayyorlash.
9- modda. Dori vositalarini markalash, idishga joylash-o‘rash va ularning tashqi bezagi.
10- modda. Farmakologik vositalarni klinik sinovlardan o‘tkazish.
11- modda. Klinik sinovda ixtiyoriy qatnashayotgan mijozning xuquqlari.
12- modda. Sanoat korxonalari va ulgurji savdo tashkilotlari tomonidan dori vositalari va tibbiy buyumlarning sotilishi.
13- modda. Dori vositalarini sotish.
14- modda. Doir vositalarini eksport va import qilish tartibi.
15- modda. Tibbiyot muassasalarining dori vositalarining qo‘shimcha salbiy ta’siri to‘g‘risida xabardor qilish borasidagi majburiyati
16- modda. Dori vositalari va tibbiy buyumlar haqida axborot berish va ularni reklama qilish.
17- modda. Qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasining dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida Qonun hujjatlari ushbu Qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ushbu Qonundagidan blshqacha qoidalar belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

2-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi tushunchalar qo‘llanilmoqda:

dori vositalari - kelib chiqishi tabiiy va sun’iy bo‘lgan bir yoki bir neta dori moddalari (substansiyalari) hamda yordamchi moddalar asosida hosil qilingan, kasallikning oldini olish, tashhis qo‘yish va davolash uchun qo‘llashga ruxsat etilgan vositalar. Ular jumlasiga immunobiologik, radiofarmatsevtik va parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik, tashhis qo‘yish va sterilizatsiya vositalari kiradi;

dori preparatlari – tozalangan, idishga joylangan-o‘ralgan, qo‘llashga tayyor dori vositalari;

dori moddalari (substansiyalari) – kelib chiqishi tabiiy va sun’iy bo‘lgan, qo‘llashga ruxsat etilgan biologik faol moddalar;

farmakologik vositalar – belgilangan farmakologik faollikka ega bo‘lib, klinik sinov ob’ektlari hisoblanadigan muayyan dorivor shaklidagi moddalar yoki moddalar aralashmasi;

farmakopeya – dori vositalari sifatini, ularni tayyorlash, sifat-miqdor jihatidan nazorat qilishni, saqlash shart-sharoitlarini va nomlanishini belgilaydigan davlat standartlari to‘plami;

farmakopeya maqolasi – dori vositasi uchun farmakopeya qo‘mitasi tomonidan tasdiqla ngan normativ-texnik hujjat;

farmakopeya qo‘mitasi – dori vositalari, tibbiy buyumlar sifatiga va ularni nazorat qilish usullariga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan normativ-texnik hujjatlarni tasdiqlovchi rasmiy ekspert organi;

ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasi – dori vositalarini tibbiy qo‘llanish xuquqi uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi ruxsatini tasdiqlovchi hujjat;

dori vositalarining, tibbiy buyumlarning davlat reestri – rasmiy hujjat bo‘lib, u tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar ro‘yxatidan iborat;

generik dori vositalari (generiklar) – patent berilganlaridan qolishmaydigan, lekin boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan tayyorlangan dori preparatlari;

gomeopatik vositalar – gomeopatik qoidalarga binoan qo‘llaniladigan va davlat reestrining maxsus bo‘limiga kiritilgan dorilar;

farmatsevtik faoliyat – dori vositalarini, tibbiy buyumlarni yaratish bo‘yicha izlanishlarni, tadqiqotlarni, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, sifatini nazorat qilish, standartlash, ro‘yxatdan o‘tkazish, saqlash, axbort berish, yetkazib berish va realizatsiya qilishshni qamrab oladigan faoliyat;

dorixona – dori vositalarini tayyorlash, qadoqlash, ularning sifatini nazorat qilish, shuningdek, davolash, hamda kasallikning oldini olishga mo‘ljallangan dori vositalari, tibbiy buyumlarni, sanitariya va gigiyena ashyolarini, shifobaxsh oziq-ovqatlarni, ma’danli suvlarni, davolash-kosmetika mahsulotlarini harid qilish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi tibbiyot muassasasi. Dorixona muassasalari jumlasiga dorixonalar va ularning filiallari, davolash va kasallikning oldini olish muassasalarining dorixonalari kiradi;

resept – shifokorning farmatsevtga dori tayyorlash va berish haqidagi yozma ko‘rsatmasi bo‘lib, unda dorini qo‘llash usuli qayd etilgan bo‘ladi;

standart yozuv – dori preparatlarining davolash xususiyatlari samaradorligi tekshirilganidan so‘ng tuzilgan tarkibi;

tibbiy buyumlar – kasallikning oldini olish, tashhis qo‘yish va davolash uchun tibbiyotda qo‘llaniladigan buyumlar. Ular jumlasiga bog‘lash va tikish materiallari, shpritslar, qon va infuzion eritmalarni quyishga mo‘ljallangan sistemalar, bemorlarni parvarishlashda qo‘llaniladigan ashyolar va materiallar kiradi. (O‘zR 15.04.1999 y. 772-1- son Qonuni tahriridagi modda)

3-modda. Aholini dori vositalari bilan ta’minlash sohasidagi davlat kafolatlari

Davlat dori vositalarining asosiy turlarini bemalol olishni va ular sifatli bo‘lishini kafolatlaydi.

Tibbiy maqsadda qo‘llanishga ruxsat etilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ish ko‘rishning barcha shakllari ta’qiqlanadi.

Tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalarining,tibbiy buyumlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

4-modda. Davlat organlarining dori vositalari bilan ta’minlash sohasidagi vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati dori vositalari bilan ta’minlash sohasidagi siyosatni belgilaydi va ro‘yobga chiqaradi, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlashga doir sog‘liqni saqlash dasturlarini tasdiqlaydi va mablag‘ bilan ta’minlaydi, ularning narxlarini nazorat qiladi.

Davlat xokimiyati mahalliy organlari dori vositalari, tibbiy buyumlar muomalasini nazorat qiladi, dori vositalari bilan ta’minlash davlat dasturlarini mablag‘ bilan ta’minlaydi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligining vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi:

davlat buyurtmasini tuzadi va davlat tibbiyot muassasalarida dori vositalari, tibbiy buyumlarning asosiy turlari mavjud bo‘lishi ustidan nazoratni ta’minlaydi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar ishlab chiqarish va ular bilan ta’minlashga doir faoliyat turlari uchun litsenziya beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan tartibga muvofiq ayrim toifadagi shaxslarga dori vositalarining imtiyozli berilishini ta’minlaydi;

laboratoriya, ishlab chiqarish va dorixona amaliyoti uchun xos bo‘lgan standartlarni tasdiqlaydi;

milliy farmokopeyani tasdiqlaydi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifati nazorat qilinishini, ular ro‘yxatdan o‘tkazilishi, standartlashtirilishi va sertifikatsiyala-nishini ta’minlaydi;

narkotik, zaharli, psixotrop, radiofarmatsevtik (radioaktiv), kuchli ta’sir etuvchi dori vositalari va etil spirtini sotish, saqlash, hisobga olish, ularning zaxiralarini hosil qilish tartibini belgilaydi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning davlat reestrini yuritadi hamda vaqti-vaqti bilan e’lon qilib boradi;

dori vositalarining zararli ta’sirini tasdiqlovchi faktlar mavjud bo‘lgan taqdirda ularni tayyorlash, ishlab chiqarish, olib kelish va sotishni to‘xtatib qo‘yadi.

6-modda. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma egasi ushbu guvohnomani bergan muassasani dori vositasining farmakologik samaradorligi va xavfsizligiga doir yangi ma’lumotlardan xabardor qilib turishi shart.

Quyidagilar majburiy tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak:

davolash, kasallikning oldini olish, tashhis qo‘yish vositalari, shifobaxsh oziq-ovqat va parafarmatsiya mahsulotlari;

dorilarni tayyorlashda qo‘llaniladigan dori vositalari (substansiyalari) va biologik faol yordamchi moddalar; (O‘zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining yangi kombinatsiyalari;

yangicha qadoqlangan, yangi shakl va tarkiblardagi yoki yangi texnologiya bo‘yicha tayyorlanayotgan dori vositalari;

generik dori vositalari (generiklar);

tibbiy buyumlar.

Reseptlar va standart yozuvlar bo‘yicha dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish talab etilmaydi.

7-modda. Dori vositalarini ishlab chiqarish

Dori vositalarini ishlab chiqarish – dori vositalarini ularni ishlab chiqarish hamda sifatini nazorat qilishni tashkil etish qoidalariga muvofiq ko‘plab hosil qilish, shu jumladan to‘liq texnologik turkum yoki uning ayrim bosqichlari: dori vositalarini sintez (biosintez) qilish, ekstraksiyalash, tozalash, ularga ishlov berish, ularni qadoqlash, idishga joylash-o‘rash va ularni markalash bosqichlari bo‘yicha hosil qilish.

O‘zbekiston Respublikasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan dori vositalarini ishlab chiqarish taqiqlanadi.

Dori vositalarini ishlab chiqarish litsenziyaga ega bo‘lgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalari davlat reestridan chiqarilgan taqdirda ishlab chiqarilgan hamda dorixonalar, omborlar va davolash-kasallikning oldini olish muassasalaridan mavjud bo‘lgan mazkur dori vositalarining qoldiqlari masalasi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan hal qilinadi.

Dori vositalarini yaratish, ularni sinash, ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, yo‘q qilishni amalga oshiruvchi korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar dori vositalarining sifatini nazorat qiluvchi ichki idoraviy xizmatga ega bo‘lishlari kerak. (O‘zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuni taxriridagi modda)

8-modda. Dorixonalarda dori vositalarini tayyorlash

Dori vositalari litsenziyaga ega bo‘lgan dorixonalarda, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalaridan (substansiyalaridan) va yordamchi moddalardan tayyorlanadi. (O‘zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuni taxriridagi qism)

9-modda. Dori vositalarini markalash, idishga joylash-o‘rash va ularning tashqi bezagi

Dori vositalarini markalash, idishga joylash-o‘rash va ularning tashqi bezagiga doir qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

10-modda. Farmokologik vositalarni klinik snovlardan o‘tkazish

Farmakologik vositalarning klinik sinovlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomnidan ro‘yxati tasdiqlanadigan ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda klinika muassasalarida o‘tkaziladi.

Farmakologik vositalarni odamda klinik sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga beriladi.

Qaror qabul qilish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:

sinovlarda ixtiyoriy qatnashuvchi mijozning roziligi;

klinikada qo‘llashgacha bo‘lgan davrda farmakologik vositalarning xavfsizligi va samaradorligini o‘rganish natijalari;

farmokologik vosita qo‘llanilishidan kutish mumkin bo‘lgan qo‘shimcha ta’sirning xavfi kutilayotgan ijobiy samaradan ancha past bo‘lishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning mavjudligi.

Sinovlar chog‘ida odatdan tashqari reaksiyalar ro‘y bergan yoki jamiyat uchun yoxud sinovda ixtiyoriy qatnashayotgan mijozning salomatligi va hayoti uchun xavf-xatar tug‘ilgan taqdirda klinik sinovlar rahbari sinovlarni to‘xtatishi hamda bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligini xabardor qilishi shart.

Farmokologik vositalarni sinovdan o‘tkazishni mablag‘ bilan ta’minlash sinalayotgan farmokologik vositani tag‘dim etgan yuridik va jismoniy shaxslar hisobidan amalga oshiriladi.

11-modda. Klinik sinovda ixtiyoriy qatnashayotgan mijozning huquqlari

Farmakologik vositaning klinik sinovida ishtirok etishga yozma rozilik bergan ixtiyoriy qatnashayotgan mijoz sinovni o‘tkazuvchi shifokordan bu uslubning ahamiyati, mohiyati va bunday sinov keltirib chiqarishi ehtimol tutilgan

xavf to‘g‘risida oldindan batafsil tushuntirish olishi, shuningdek u istalgan bosqichda sinovda qatnashishini rad etish huquqiga ega ekanligidan xabardor qilinishi lozim.

Sinov voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz mijoz ishtirokida o‘tkaziladigan bo‘lsa, uning ota-onasidan yoki boshqa qonuniy vakillaridan yozma tarzda rozilik olinishi kerak. Voyaga yetmagan mijozlar ishtirokida o‘tkaziladigan sinovdan oldin, qoida tariqasida, sinov voyaga yetganlarda o‘tkazilgan bo‘lishi kerak.

Farmokologik vositaning klinik sinovini boshlashdan oldin sinovni o‘tkazayotgan davolash-kasallikning oldini olish muassasasi sug‘urta tashkiloti bilan mijozning salomatligi va hayotini sug‘urta qilish yuzasidan shartnoma tuzishi shart.

12-modda. Sanoat korxonalari va ulgurji savdo tashkilotlari tomonidan dori vositalari va tibbiy buyumlarning sotilishi

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sotish huquqiga ega.

Ulgurji savdo korxonalari va tashkilotlari dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ularni tayyorlash huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan ishlab chiqaruvchilardan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori-darmonlarni yetkazib beruvchi boshqa ulgurji savdo korxonalari va tashkilotlaridan, shuningdek xorijiy firmalardan sotib olish huquqiga ega.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilar, ulgurji savdo korxonalari va tashkilotlari dori vositalarini, tibbiy buyumlarni namunalar sifatida ham dorixonalarga, davolash-kasallikning oldini olish muassasalariga, boshqa korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga, shuningdek tibbiyot va farmatsevtika o‘quv yurtlariga berish huquqiga ega. Namunalarni berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

13-modda. Dori vositalarini sotish

Dori vositalari faqat dorixona muassasalari orqali sotiladi.

Dorixonalar ishi dorixona amaliyoti uchun xos bo‘lgan standartlarga muvofiq amaliyoti uchun xos bo‘lgan standartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Dorixonalar ishini boshqarish oliy farmotsevtika ma’lumotiga ega shaxslargagina ruxsat etiladi.

Barcha dorixona muassasalari sanitariya me’yorlari va qoidalariga javob berishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining qalbakisi yoki g‘ayriqonuniy nusxasi bo‘lgan dori vositalarini realizatsiya qilish taqiqlanadi. (O‘zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuni taxriridagi qism).

O‘zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuniga muvofiq beshinchi va oltinchi qismlar tegishincha oltinchi va yettinchi qismlar deb hisoblansin.

Muddati o‘tgan dori vositalarini sotish va ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Dorixonalarning farmatssevtika faoliyatini nazorat qilishni davlatning vakolatli organlari amalga oshiradi.

14-modda. Dori vositalarini eksport va import qilish tartibi

O‘zbekiston Respublikasida dori vositalarini, tibbiy buyumlarni eksport va import qilishning O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan yagona tartibi amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining qalbakisi yoki g‘ayriqonuniy nusxasi bo‘lgan dori vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilish taqiqlanadi. (O‘zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuni taxriridagi qism)

15-modda. Tibbiyot muassasalarining dori vositalarining qo‘shimcha salbiy ta’siri to‘g‘risida xabardor qilish borasidagi majburiyati

Davolash-kasallikning oldini olish, dorixona muassasalari hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va qo‘llovchi korxonalar dori vositalarini qo‘llash vaqtida aniqlangan barcha qo‘shimcha ta’sir hollari, shuningdek ilgari kuzatilmagan salbiy ta’sir hollari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligini xabardor qilishlari shart.

16-modda. Dori vositalari, tibbiy buyumlar haqida axborot berish va ularni reklama qilish

(O‘zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuni taxriridagi modda nomi)

Dori vositalari va tibbiy buyumlar haqida axborot berish O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilab qo‘yiladigan tartibda amalga oshiriladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni reklama qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. (O‘zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuni taxiridagi qismi)

17-modda. Qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Dori vositalari va farmotsevtika faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. KARIMOV

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi 1997 yil, N 4-5 120-modda)

FUQAROLAR SOG‘LIG‘INI SAQLASH TO‘G‘RISIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING

1996 yil 29 avgust

QONUNI

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi,
1996 yil, 9-son, 128-modda)

1. UMUMIY QOIDALAR

1-modda.Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.

Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi huquqiy munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Basharti xalqaro shartnomada fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, u holda xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanadi.

2-modda. Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari.

Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minlash;

fuqarolarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ;

davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

3-modda. Fuqarolar sog‘ligini saqlashning asosiy prinsiplari.

Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
sog‘liqni saqlash sohasidagi inson huquqlariga rioya qilinishi;
aholining tibbiy qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo‘la olishi;
profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;
sog‘lig‘ini yo‘qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlari himoya qilinishi;
fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi davlat siyosatini;

sog‘liqni saqlash va tibbiyot fanini rivojlantirish dasturlari tasdiqlanishi va mablag‘ bilan tasdiqlanishi;

sog‘liqni saqlash davlat tizimini boshqarishi;

sanitariya-epidimiologiya xotirjamligini ta’minlash ustidan nazoratni;

favqulotda vaziyatlarda odamlarning hayotini saqlab qolish va ularning sog‘lig‘ini muhofaza etish chora-tadbirlari ko‘rilishini, fuqarolarning favqulotda vaziyat zonasidagi ahvol va ko‘rilayotgan chora-tadbirlardan xabardor qilishni;

fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasida statistika hisobi va hisobotning yagona tizimi o‘rnatilishini;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy sug‘urtasining tayanch dasturlarini tasdiqlashni;

fuqarolarning ayrim guruhlariga tibbiy yordam ko‘rsatishda va ularni dori-darmon bilan ta’minlashda imtiyozlar belgilashni;

davlat boshqaruv organlari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi faoliyatlarni muvofiqlashtirib borishni va nazorat qilib turishni;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

5-modda.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi:

fuqarolar sog‘liqni saqlashni hamda tibbiyot fanini rivojlantirish yo‘lida moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanishning ustun yo‘nalishlarini belgilaydi;

sog‘liqni saqlash davlat boshqaruv organlari, tibbiy va ilmiy muassasalar, tibbiyot va farmatsevtika o‘quv yurtlari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

tibbiyot hamda farmatsevtika xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturini ishlab chiqadi;

sog‘liqni saqlash muassasalari uchun tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatining davlat standartini va qiymatining normativlarini belgilaydi;

sog‘liqni saqlash tizimidagi davolash muassasalarining, shuningdek tibbiyot farmatsevtika faoliyati bilan xususiy tartibda shug‘ullunuvchi shaxslarning aholiga o‘z vaqtida malakali va sifatli tibbiy yordam ko‘rsatishlarini nazorat qilib boradi;

tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyalar beradi;

dori-darmonlar va dizenfeksiya vositalari, immunobiologik preparatlar va tibbiyotda ishlatiladigan mahsulotlar, kuchli ta’sir etuvchi va zaharli moddalar, giyohvandlik vositalari va psixotrop vositalarni sertifikatlashtirishni amalga oshiradi, ularning ishlab chiqarilishi va qo‘llanilish tartibini nazorat qilib boradi;

sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlarini ishlab chiqadi, hamda tasdiqlaydi, davlat sanitariya-epidemiologiya nazoratini ta’minlaydi;

profilaktik yordam yo‘nalishlari va hajmlari, profilaktika maqsadlarida emlashlar o‘tkazishning muddat va usullar to‘g‘risidagi qarorlar qabul qiladi, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi;

boshqa davlat hududida yuqumli va karantindagi kasalliklar olib kirilishini oldini olish ishlarini manfaatdor organlar bilan birgalikda tashkil etadi va nazorat qilib boradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘z vakolatlari doirasida davolash-profilaktika, sanitariya, epidemiyaga qarshi, radiatsiya, ekologiya masalalari yuzasidan chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi hududidagi davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

6-modda. Mahalliy davlat hokimiyati or ganlarining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlsh sohasidagi vakolatlari.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tasarrufiga quyidagilar kiradi:

sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlarini himoya qilish;

fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash ssohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini ta’minlash;

sog‘liqni saqlash tizimining boshqaruv organlarini shakllantirish, uning muassasalari tarmog‘ini rivojlantirish;

birlamchi tibbiy-sanitariya va tibbiy-ijtimoiy yordamni tashkil etish, ulardan hammaning bahramand bo‘lishini ta’minlash, tibbiy yordam sifatining klinik statistik standartlariga rioya etilishini nazorat qilish, tasarrufdagi hududda fuqarolarni dori-darmonlar va tibbiyot mahsulotlari bilan ta’minlash;

sog‘liqni saqlash harajatlarini moliviy ta’minlashning o‘z manbalarini shakllantirish;

fuqarolarning sanitariya-epidimiologiya jihatidan xotirjamligini ta’minlash, profilaktika, sanitariya-gigiyena, epidemiyaga qarshi va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish;

atrof muhitni muhofaza etish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash;

favqulotda vaziyatlarda odamlarning hayotini saqlab qolish va ularning sog‘lig‘ini muhofaza etish chora-tadbirlarini ko‘rish, fuqarolarni favqulotda vaziyat zonasidagi ahvol va ko‘rilayotgan chora-tadbirlardan xabardor qilish;

sog‘liqni saqlash tizimi organlari, muassasalari va korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish, sog‘liqni saqlash muassasalarida ko‘rsatilayotgan tibbiyot-ijtimoiy yordam sifatini nazorat qilib borish;

nogironlar va tibbiy-ijtimoiy himoyaga mo‘htoj shaxslarning kuch-quvvatini tiklaydigan muassasalar tashkil etish va ular faoliyatini ta’minlash;

oilali, onalik va bolalikni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

fuqarolarga sanitariya-gigiyena va ekologiya ta’limi berishni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

7-modda. Sog‘liqni saqlash tizimi.

O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlari yig‘indisidan iborat yagona sog‘liqni saqlash tizimi amal qiladi.

8-modda. Davlat sog‘liqni saqlash tzimi.

Davlat sog‘liqni saqlash tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari, ularning shahar va tuman bo‘linmalari kiradi. Davlat sog‘liqni saqlash tizimiga davlat mulki bo‘lgan va davlat sog‘liqni saqlash tizimining boshqaruv organlariga bo‘ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda ularni qayta tayyorgarlikdan o‘tkazadigan o‘quv yurtlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari, tibbiy dori darmonlar va tibbiyot texnikasi ishlab chiqaradigan korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash bilan bog‘liq boshqa korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash bilan bog‘liq boshqa korxona, muassasa va tashkilotlar kiradi.

Ilmiy-tadqiqot institutlarining klinikalari, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari, muassasa va tashkilotlari barpo etadigan davolash-profilaktika va dorixona muassasalari davlat sog‘liqni saqlash tizimiga kiradi.

Davlat byudjeti hisobidan ta’minlanadigan davlat sog‘liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari aholiga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatadi.

9-modda. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini mablag‘ bilan ta’minlash.

Davlat sog‘liqni saqlash tizimini mablag‘ bilan ta’minlash manbalari quyidagilardan iborat:

davlat byudjeti mablag‘lari;

tibbiy sug‘urta mablag‘lari;

fuqarolarning sog‘ligini saqlashga mo‘ljallangan maqsadli fondlarning mablag‘lari;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda jismoniy shaxslarning sog‘liqni saqlash muassasalariga ixtiyoriy va xayriya badallari;

banklarning kreditlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

10-modda. Sog‘liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari.

Sog‘liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari jumlasidan xususiy tabobat amaliyoti yoki xususiy farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar, xususiy korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari tomonidan, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalarda mablag‘ bilan ta’minlanadigan davolash –profilakika, dorixona muassasalari hamda tabobat va farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

11-modda. Sog‘liqni saqlash korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga, shuningdek tabobat hamda farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga litsenziyalar berish tartibi va shartlari.

Sog‘liq saqlash korxonalari, muassasalari va tashkilotlari, shuningdek jismoniy shaxslar litsenziyaga ega bo‘lgan taqdirdagina tabobat va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Davlat, xususiy va boshqa xil sog‘liqni saqlash tizimlarining korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga litsenziyalar berish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

12-modda. Aholining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi.

Aholining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi qonun hujjatlariga muvofiq davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, sanitariya-gigiyena yo‘sinidagi hamda epidemiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilishi orqali ta’minlanadi.

II. Fuqarolarning sog‘lig‘ini huquqiy jihatdan muhofaza qilish

13-modda. Fuqarolarning sog‘liqni saqlash huquqi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari sog‘liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar.

Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar fuqarolarning sog‘lig‘i saqlanishini ta’minlaydi.

Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat’i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishdan aybdor bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

14-modda. Ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning sog‘liqni saqlash huquqi.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi ajnabiy fuqarolarning sog‘liqni saqlash huquqi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, basharti O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o‘zgacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sog‘liqni saqlashda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng huquqdan foydalanadilar.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslarga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilaydi.

15-modda. Fuqarolarning sog‘liqqa ta’sir etuvchi omillar haqida axborot olish huquqi.

Fuqarolar sog‘liqqa ta’sir etuvchi omillar haqida, shu jumladan yashash hududining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi to‘g‘risida, ovqatlanishning oqilona normalari xususida, tovarlar, ishlar, xizmatlar, ularning xavfsizligi, sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqligi to‘g‘risida o‘z vaqtida va aniq axborot olish huquqiga ega.

16-modda. Fuqarolarning tibbiy – ijtimoiy yordam olish huquqi.

Kasal bo‘lib qolganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda va boshqa hollarda fuqarolar profilaktik, tashhis qo‘yish-davolash, kuch – quvvatni tiklash, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordami va boshqa xil yordamni, shuningdek bemorlarni, mehnatga layoqatsiz va nogiron kishilarni boqish-parvarishlash yuzasidan ijtimoiy chora-tadbirlarni, shu jumladan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to‘lashni o‘z ichiga oladigan tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega.

Tibbiy-ijtimoiy yordam tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar tomonidan ko‘rsatiladi.

Fuqarolar o‘zlarini ixtiyoriy ravishda tibbiy sug‘urta qildirish asosida, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag‘lari, o‘z shaxsiy mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlangan boshqa manbalar hisobidan qo‘shimcha tibbiy va boshqa xil xizmatlardan foydalanish huquqiga ega.

Fuqarolarning ayrim toifalari protezlar, ortopedik va moslama buyumlar, eshitish apparatlari, harakatlanish vositalari va boshqa maxsus vositalar bilan imtiyozli tarzda ta’minlanish huquqiga ega. Bunday huquqqa ega bo‘lgan fuqarolarning toifalarini, shuningdek ularni ta’minlash shartlari va tartibini O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Fuqarolar ixtisoslashgan sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot muassasalarida tibbiy ekspertizadan o‘tish huquqiga ega.

17-modda. Ayrim turdagi kasb-kor bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarning sag‘lig‘ini saqlash.

Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash, yuqumli va kasb kasalliklarining oldini olish maqsadida ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ishlab chiqarishlar hamda ayrim kasblarning xodimlari ishga kirish vaqtida dastlabki majburiy tibbiy ko‘rikdan hamda keyinchalik vaqti-vaqti bilan tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar.

Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra fuqaro ayrim turdagi kasb-kor hamda yuqori darajali xavf manbai bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanishga vaqtincha yoki doimiy layoqatsiz deb topilishi mumkin. Bunday qaror tibbiyot nuqtai nazaridan shug‘ullanish nomaqbul deb topilgan faoliyatlari ro‘yxatiga muvofiq holda tibbiy komissiyalar chiqargan xulosa asosida qabul qilinadi va uning ustidan sudda shikoyat qilinishi mumkin.

Tibbiyot nuqtai nazaridan shug‘ullanish nomuqbul deb topilgan ayrim turdagi kasb-kor va yuqori darajada xavfli manba bilan bog‘liq faoliyatlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan O‘zbekiston

Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi bilan birgalikda belgilanadi hamda besh yilda kamida bir marta qayta ko‘rib chiqiladi.

Ish beruvchilar o‘z xodimlarining majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi uchun va majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan shaxslarni ishga qo‘yish natijasida fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararli oqibatlar uchun javobgar bo‘ladilar.

18-modda. Oila sog‘lig‘ini saqlash.

Xar bir fuqaro davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida oilaga taaluqli masalalar, o‘zida ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavfli bo‘lgan kasalliklar bor yo‘qligi yuzasidan, nikoh va oila munosabatlarining tibbiy – ruhiy jihatlari yuzasidan bepul maslahatlar olish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar olish va tekshiruvdan o‘tish huquqiga ega.

Bolali oilalar fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasida qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlarda foydalanish huquqiga ega.

Uch yoshga to‘lmagan bolalar, shuningdek shifokorlarning xulosasiga ko‘ra qo‘shimcha qarovga muhtoj bo‘lgan katta yoshdagi kasali og‘ir bolalar statsionar shifoxonada davolanayotganida ularning otasi yoki onasiga yoxud oilaning bolani bevosita parvarishlayotgan boshqa a’zosiga davolash muassasasida uning yonida birga bo‘lishi uchun imkoniyat yaratiladi va mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

19-modda. Voyaga yetmaganlarning huquqlari.

Davlat voyaga yetmaganlarning sog‘liqni saqlash huquqlarini ularning jismoniy, ma’naviy rivojlanishi uchun, kasalliklarning oldini olish uchun eng qulay sharoit yaratish, shuningdek maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar va boshqa muassasalarda tibbiy xizmatni yo‘lga qo‘ysh orqali ta’minlaydi.

Voyaga yetmaganlar quyidagi huquqlarga ega:

Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda dispanser nazoratida bo‘lish hamda bolalar va o‘smirlarning davolash-profilaktika muassasalarida davolanish;

sanitariya-gigiyena ta’limi olish, o‘qish hamda o‘zlarining fiziologik xususiyatlari va sog‘lig‘iga mos sharoitda mehnat qilish;

kasbga yaroqliligini aniqlash chog‘ida byudjet mablag‘lari hisobidan bepul tibbiy maslahatlar olish;

sog‘liqlari to‘g‘risida o‘zlari uchun qulay tarzda zarur axborot olish.

O‘n besh yoshdan oshgan voyaga yetmaganlar ma’lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlantirishda nuqsoni bor voyaga yetmaganlar ota-onalarining yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarning arizasiga ko‘ra byudjet mablag‘lari, xayriya jamg‘armalari va boshqa fondlarning mablag‘lari, shuningdek ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning mablag‘lari hisobidan ijtimoiy himoya tizimi muassasalarida yashashlari mumkin.

Ota-onalar yoki boshqa shaxslarning o‘z tarbiyasidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlari, voyaga yetmaganlar bilan ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazadigan darajada shafqatsiz munosabatda bo‘lishlari qonun belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi.

20 – modda. Xarbiy xizmatchilar, harbiy va muqobil xizmatga chaqiriladigan hamda harbiy xizmatga kontrakt bo‘yicha kiradigan fuqarolarning huquqlari.

Xarbiy xizmatchilar harbiy xizmatga yaroqli yoki yaroqsiz ekanliklarini aniqlash uchun tibbiy tekshiruvdan o‘tish hamda harbiy xizmat-tibbiy komissiyaning xulosasi asosida harbiy xizmatdan muddatidan ilgari bo‘shatilish huququga ega.

Xarbiy va muqobil xizmatga chaqiriladigan yoki harbiy xizmatga kontrakt bo‘yicha kiradigan fuqarolar tibbiy tekshiruvdan o‘tadi hamda sog‘lig‘iga ko‘ra harbiy xizmatga chaqiruvni kechiktirish yoki chaqiruvdan ozod etilish huquqini beradigan tibbiy ma’lumotlar to‘g‘risida to‘liq axborot olish huquqiga ega.

21-modda. Pensiya yoshidagi fuqarolarning huquqlari.

Pensiya bilan ta’minlanish huquqini beradigan yoshga yotgan fuqarolarga davlat sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot tizimi muassasalarida tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi.

Tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish o‘z ichiga statsionar – ambulatoriya yo‘li bilan davolashi, sanatoriy va dam olish uylarida sog‘lomlashtirishni, yolg‘iz keksalarga ularning o‘z uyida hamda internat-uylarda xizmat ko‘rsatishni qamrab oladi.

Pensiya yoshidagi fuqarolar tibbiy xulosa asosida qonun hujjatlariga muvofiq ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari, aholini ijtimoiy himoya qilish organlarining mablag‘lari hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag‘lari hisobidan kuch-quvvatni tiklash huquqiga ega.

22-modda. Nogironlarning huquqlari.

Nogironlar, shu jumla nogiron bolalar va bolalikdan nogironlar tibbiy-ijtimoiy yordam olish, kuch – quvvatni tiklashning barcha turlaridan foydalanish, dori-darmonlar, protez-ortopediya moslamalari, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli asoslarda ta’minlanish, shuningdek kasb-kor egallash va qayta tayyorgarlikdan o‘tish huquqga ega.

Nogironlar davlat sog‘liqni saqlash tizimi va ijtimoiy ta’minot muassasalarida bepul tibbiy-ijtimoiy yordam olish, o‘z uylarida parvarish qilish, o‘zganing parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz nogironlar va surunkali ruhiy xastaliklarga chalingan nogironlar esa ijtimoiy ta’minot muassasalarida yashash huquqiga ega.

Nogironlarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tartibi va ularga beriladigan imtiyozlar ro‘yxati qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi.

23-modda. Favqulodda vaziyatlar tufayli jabr ko‘rgan fuqarolarning huquqlari.

Favqulotda vaziyat tufayli jabr ko‘rgan fuqarolar bepul tibbiy yordam olish va sog‘liqni tiklash tarzida davolanish, favqulotda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish hamda hayoti va sog‘liqlariga tahdid solayotgan xavfni kamaytirishga qaratilgan gigiyena chora-tadbirlari va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkazish huquqiga ega.

Favqulotda vaziyat sharoitida odamlarni qutqarish va tibbiy yordam ko‘rsatish chog‘ida jabr ko‘rgan fuqarolar bepul davolash, shu jumladan sanatoriy va kurortlarda davolash, kuch-quvvatni tiklashning barcha turlarida foydalanish, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moddiy kompensatsiya olish kafolatlanadi.

24-modda. Bemorning huquqlari.

Bemor tibbiy yordam so‘rab murojaat qilgan va tibbiy yordam olayotgan paytda quyidagi huquqlarga ega:

tibbiyot xodimlari va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning hurmat va mehr-muruvvat ko‘rsatishlari;

shifokorni va davolash-profilaktika muassasasini tanlash;

sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan sharoitda tekshiruvdan o‘tish, davolash va parvarish qilinish;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilab qo‘ygan tartibda o‘z iltimosiga ko‘ra boshqa mutaxassislarning konsilium qilishi va ulardan maslahat olish;

tibbiy yordam so‘rab murojaat qilganligi, sog‘ligining holati, qo‘yilgan tashhis to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda ularni tekshirish va davolash chog‘ida olingan ma’lumotlar sir saqlanishi;

tibbiy aralashuvga o‘z ixtiyori bilan rozilik berish yoki uni rad etish;

o‘z huquq va burchlari xususida hamda sog‘lig‘ining holati haqida ma’lumot olish, shuningdek sog‘lig‘ining holatiga doir ma’lumotlarni o‘z manfaatini ko‘zlagan holda bersa bo‘ladigan shaxslarni tanlash;

ixtiyoriy tibbiy sug‘urta doirasida va boshqa xil xizmatlardan foydalanish;

tibbiy yordam ko‘rsatish vaqtida sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan taqdirda ko‘rilgan zararning o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi;

huquqini himoya qilinishi uchun huzuriga advokat yoki boshqa qonuniy vakil qo‘yilishi.

Xuquqlari buzilgan taqdirda bemor yoki uning qonuniy vakili bevosita davolash-profilaktika muassasasining rahbari yoki boshqa mansabdor shaxsiga, yuqori boshqaruv organiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

25-modda. Fuqarolarning o‘z sog‘lig‘ining holati to‘g‘risida ma’lumot olish huquqi.

Xar bir fuqaro o‘z sog‘lig‘ining holati to‘g‘risidagi ma’lumot shu jumladan tekshirish natijalari, qanday kasali borligi, qanday tashhis qo‘yilganligi, kasallikning bundan buyon qanday kechishiga oid taxminlar, davolash usullari va

bu usullar bilan bog‘liq havf-xatar, tibbiy aralashuvning ehtimol tutilgan turlari va ularning oqibatlari, amalga oshirilgan davolashning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish huquqiga ega.

Fuqaroning sog‘lig‘i haqidagi ma’lumotni uning o‘ziga o‘n besh yoshga to‘lmagan shaxslar hamda qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar sog‘lig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni esa ularning qonuniy vakillariga davolash-profilaktika muassasasining davolovchi shifokori, bo‘lim mudiri yoki tekshirish va davolashda bevosita qatnashayotgan boshqa mutaxassislar beradi.

Kasallikning kechishi nomaqbul deb taxmin qilingan hollarda bu haqda fuqaroga va basharti uning o‘zi oila a’zolariga xabar qilishni ta’qiqlamagan va (yoki) bunday ma’lumot berilishi uchun biror shaxsni tayinlamagan bo‘lsa, bemorning oila a’zolariga tibbiy-odob me’yorlariga rioya qilgan holda xabar qilinishi kerak.

Fuqaroning talabiga muvofiq uning sog‘lig‘ining holatini aks ettiruvchi tibbiy hujjatlardan nusxa beriladi.

Fuqaroning tibbiy hujjatlarida aks etgan ma’lumotlar shifokorlik siri bo‘lib, u faqat ushbu Qonun 45-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan asoslardagina fuqaroning roziligisiz taqdim etilishi mumkin.

26-modda. Tibbiy aralashuvga rozilik berish.

Fuqaroning o‘z kasalligiga doir ma’lumotlarni bilgan holda o‘z ixtiyori bilan rozilik berishi tibbiy aralashuvning dastlabki zarur shartidir.

Fuqaroning ahvoli o‘z-xohish irodasini izhor etishga imkon bermaydigan, tibbiy aralashuvni esa kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda fuqaroning manfaatini ko‘zlab tibbiy aralashuvni amalga oshirish masalasini konsilium hal qiladi, basharti konsiliumga yig‘ilishning iloji bo‘lmagan taqdirda esa, keyinchalik davolash-profilaktika muassasasining mansabdor shaxslarini xabardor qilish sharti bilan bevosita davolovchi (navbatchi) shifokor hal etadi.

O‘n besh yoshga to‘lmagan shaxslarga va qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarga nisbatan tibbiy aralashuvga ularning qonuniy vakillari rozilik beradi. Ota-ona yoki boshqa qonuniy vakillar yo‘qligida tibbiy aralashuv to‘g‘risidagi qarorni konsilium qabul qiladi, basharti konsiliumga yig‘ilishning iloji bo‘lmagan taqdirda esa, keyinchalik davolash-profilaktika muassasasining mansabdor shaxslari va bemorning qonuniy vakillarini xabardor qilish sharti bilan bevosita davolovchi (navbatchi) shifokor qabul qiladi.

27-modda. Tibbiy arlashuvni rad etish.

Fuqaro yoki uning qonuniy vakili tibbiy aralashuvni rad etish yoki uning to‘xtatilishini talab qilish huquqiga ega, ushbu Qonunning 28-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bunday hollarda shifokor yozma tasdiqnoma olishga, agar tasdiqnoma olishning iloji bo‘lmasa-tibbiy aralashuvni rad etishni guvohlar ishtirokida tegishli dalolatnoma bilan guvohlantirib olishga haqlidir.

Basharti tibbiy aralashuvni bemorning qonuniy vakili rad etsa va bu hol bemor uchun og‘ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lsa, shifokor bu haqda vasiylik va homiylik organlarini xabardor qilishi shart.

28-modda. Fuqarolarning roziligisiz tibbiy yordam ko‘rsatish.

Atrofdagilar uchun xavfli kasallikka chalingan shaxslarga fuqarolar yoki ular qonuniy vakillarining roziligisiz tibbiy yordam ko‘rsatilishiga (tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, kasalxonaga yotqizish, kuzatish va yakkalab qo‘yishga) qonun hujjatlarida belgilangan asoslarda yoki tartibda yo‘l qo‘yiladi.

III. FUQAROLARGA TIBBIY-IJTIMOIY YORDAM KO‘RSATISH

29-modda. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami.

Davlat sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoy-ta’minot, jamoat birlashmalarining muassasalari ko‘rsatadigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tibbiy xizmat ko‘rsatishning asosiy, qulay va bepul turi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

eng ko‘p tarqalgan kasalliklar, shikastlanish, zaharlanish va shoshilinch yordam talab etiladigan boshqa holatlarni davolashni;

sanitariya-gigiyenaga doir va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, eng muhim kasalliklarning tibbiy profilaktikasini o‘tkazishni;

oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tadbirlarini, turar joylarda fuqarolarga tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa chora-tadbirlar ko‘rishni.

Xususiy va boshqa xil sog‘liqni saqlash tizimlarning muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan birlamchi tibbiy sanitariya yordami shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishning hajmi va tartibini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilaydi.

30-modda. Shoshilinch va tez tibbiy yordam .

Fuqarolar sog‘liqni saqlash tizimining har qanday davolash-profilaktika muassasasida shoshilinch tibbiy yordam olish huquqiga ega.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari fuqarolarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishlari shart. Ular shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishdan bo‘yin tovlaganlik, shuningdek fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Tez tibbiy yordam xizmati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilangan tartibda ko‘rsatiladi.

Fuqaroning hayoti xavf ostida bo‘lgan tartibda tibbiyot xodimlari uni davolash-profilaktika muassasasiga olib borish uchun har qanday transport turidan foydalanish huquqiga ega.

Militsiya, yong‘indan saqlash, avariya xizmatlari, transport tashkilot-lari xodimlari, shuningdek boshqa kasb-kor vakillari tibbiyot xodimlari yetib kelgunga qadar voqea sodir bo‘lgan joyda qonun hujjatlariga binoan zimmalariga yuklatilgan birlamchi shoshilinch yordamni ko‘rsatishlari shart.

31-modda. Ixtisoslashgan tibbiy yordam.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam profilaktika, tashhis qo‘yish, davolashning va murakkab tibbiy texnologiyalardan foydalanishning maxsus usullarini taqozo etuvchi kasalliklarga chalingan fuqarolarga ko‘rsatiladi.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam mazkur faoliyat turi bilan shug‘ullanish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalarida mutaxassis shifokorlar tomonidan ko‘rsatiladi.

Sog‘liqni saqlash muassasalarida ko‘rsatiladigan ixtisoslashgan tibbiy yordamning turlari hajmi va sifat standartlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

32-modda. Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish.

Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan fuqarolarga davlat sog‘liqni saqlash tizimining tegishli davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi va doimiy tibbiy kuzatuv ta’minlanadi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklar ro‘yxati va bunday kasalliklarga chalingan shaxslar uchun imtiyozlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan fuqarolarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordam turlari va hajmini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda belgilaydi.

33-modda. Atrofdagilar uchun xavfli bo‘lgan kasalliklarga chalingan fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish.

Atrofdagilar uchun xavfli bo‘lgan, ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan kasalliklarga chalingan fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish davlat sog‘liqni saqlash tizimining ana shunday maqsadga mo‘ljallangan muassasalarida bepul amalga oshiriladi.

Atrofdagilar uchun xavfli bo‘lgan kasalliklarga chalingan fuqarolarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamning turlari va hajmi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda belgilanadi.

34-modda. Profilaktika, tashhis qo‘yish, davolashning yangi usullarini, dori-darmonlar, immunobiologiya preparatlari va dezinfeksiya vositalarini qo‘llanish hamda biologik-tibbiy tadqiqotlar o‘tkazish tartibi.

Sog‘liqni saqlash amaliyotida faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo‘llanishga ruxsat etilgan profilaktika, tashhis qo‘yish, davolash usullaridan, tibbiyot texnologiyalari, dori-darmonlar, immunobiologiya preparatlari va dezinfeksiya vositalaridan foydalaniladi.

Qo‘llanishga ruxsat etilmagan, lekin belgilangan tartibda ko‘rib chiqilayotgan tashhis qo‘yish, davolash usullari va dori-darmonlardan bemorni

davolash manfaatini ko‘zlab faqat uning ixtiyoriy ravishdagi yozma roziligi olinganidan keyin, o‘n besh yoshga to‘lmagan shaxslarni davolashda esa faqat ularning hayoti bevosita xavf ostiga qolgan taqdirda va qonuniy vakillarning yozma roziligi bilangina foydalanish mumkin.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan tashhis qo‘yish, davolash usullari va dori-darmonlarni, immunobiologiya preparatlari va dezinfeksiya vositalarini, shu jumladan chet elda foydalaniladiganlarini qo‘llanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Insonni ob’ekt sifatida jalb etib, biologik tibbiy tadqiqot o‘tkazishga faqat laboratoriya tajribalari o‘tkazilganidan va fuqaroning yozma roziligi olinganidan keyingina davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida yo‘l qo‘yiladi. Fuqaroni biologik tibbiy tadqiqotlarda qatnashishga majburlash mumkin emas.

Biologik-tibbiy tadqiqot o‘tkazishda fuqarodan rozilik olinayotganda unga tadqiqotning maqsadi, usullari, qo‘shimcha oqibatlari, ehtimol tutilgan xavfi, tadqiqotning qancha davom etishi va kutilayotgan natijalariga oid ma’lumotlar berilishi lozim. Fuqaro tadqiqotning istalgan bosqichida unda qatnashishdan bosh tortish huquqiga ega.

Belgilangan tartibda tekshiruv sinovlaridan o‘tmagan profilaktika, tashhis qo‘yish, davolash usullari va dori-darmonlarni targ‘ib qilish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilish ta’qiqlanadi. Ushbu normani buzish qonunda belgilanganidek javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi.

35-modda. Fuqarolarni dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash.

Shifokorning doriqog‘ozi bo‘yicha va doriqog‘ozsiz beriladigan dori-darmonlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Dori-darmonlar va yakka trtibda foydalaniladigan tibbiyot buyumlari bilan imtiyozliasoslarda ta’minlanadigan fuqarolarning toifalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tomonidan belgilab qo‘yiladi. Davlat sog‘liqni saqlash tizimining davolovchi shifokorlari fuqarolarning dori-darmonlar bilan imtiyozli asoslarda ta’minlanishi uchun doriqog‘oz yozib berish huquqiga ega.

IV. TIBBIY EKSPERTIZA

36-modda. Mehnatga vaqtincha layoqatsizlikni ekspertizalash.

Fuqarolarning kasallik, shikastlanganlik, xomiladorlik, tuqqanlik, oilaning betob a’zosini parvarishlaganlik, protez qo‘ydirganlik, sanatoriy kurortda davolanganlik munosabati bilan va boshqa hollardagi mehnatga vaqtincha layoqatsizligini ekspertizalash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Mehnatga vaqtincha layoqatsizlikni ekspertizalash davlat sog‘liqni saqlash tizimining davolovchi shifokorlari tomonidan o‘tkaziladi va ular fuqarolarga mehnatga layoqatsizlik varaqasini beradi. Xususiy va boshqa hil sog‘liqni saqlash

tizimlarida davolangan fuqarolarga mehnatga layoqatsizlik varaqalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilab qo‘yadigan tartibda beriladi.

Mehnatga vaqtincha layoqatsizlik ekspertizalanganida xodimning sog‘ligining holatiga qarab vaqtincha yoki doimiy ravishda boshqa ishga o‘tkazish zarurati va muddati aniqlanadi, shuningdek fuqaroni belgilangan tartibda, shu jumladan unda nogironlik belgilari mavjud bo‘lgan taqdirda tibbiy-mehnat ekspert komissiyasiga yo‘llash to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi.

37-modda. Tibbiy-mehnat ekspertizasi.

Tibbiy-mehnat ekspertizasi fuqarolar nogironligining sababi va guruhini, ularning mehnat layoqatini yo‘qotganlik darajasini, ular sog‘ligini tiklash turlari, hajmi va muddatini hamda ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini belgilaydi, tegishli xulosalar beradi. Ushbu xulosalar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma’muriyati uchun majburiydir.

Tibbiy-mehnat ekspertizasini tashkil qilish va o‘tkazish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi.

Tibbiy-mehnat ekspertizasining xulosasi ustidan fuqaroning o‘zi yoki uning qonuniy vakili sudga shikoyat qilishi mumkin.

38-modda. Harbiy-tibbiy ekspertiza.

Xarbiy-tibbiy ekspertiza harbiy yoki muqobil xizmatga chaqiriladigan, harbiy xizmatga kontrakt bo‘yicha kiradigan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlarining zahirasida (rezervida) turgan fuqarolarning hamda harbiy xizmatchilarning salomatligi jihatidan harbiy xizmatga yaroqli va yaroqsiz ekanligini, kasallik, yaradorlik, shikastlanganlik harbiy xizmat (harbiy yig‘inlarni o‘tash) bilan bog‘liqligini aniqlaydi, harbiy xizmatchilarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ularning sog‘ligini tiklashning turlari, hajmi va muddatini belgilaydi.

39-modda. Sud-tibbiyot va sud-psixatriya ekspertizalari.

Sud-tibbiyot ekspertizasi davlatni sog‘liqni saqlash tizimining tibbiy muassasalarida ekspert tomonidan, uning yo‘qligida esa ekspertiza o‘tkazishga jalb etilgan shifokor tomonidan surishtiruv o‘tkazayotgan shaxs, tergovchi, prokurorning karori yoki sudning ajrimi asosida o‘tkaziladi.

Sud-psixatriya ekspertizasi davlat sog‘liqni saqlash tizimining shu maqsadga mo‘ljallangan muassasalarida o‘tkaziladi.

Sud-tibbiyot va sud-psixatriya ekspertizalarini o‘tkazgan muassasalarning xulosalari ustidan fuqaroning o‘zi yoki uning qonuniy vakili sudga shikoyat qilishi mumkin.

40-modda. Patologik-anatomik tadqiqotlar o‘tkazish va odamning o‘lgan vaqtini aniqlash.

Patologik-anatomik tadqiqotlar sog‘liqni saqlash muassasalarida odam hayoiligida va o‘lgandan so‘ng tashhis qo‘yish (biopsiya va autopsiya), shuningdek, klinik sharoitda tashhis qo‘yish va kasallikni davolash ishlarining

to‘g‘ri olib borilganligini nazorat qilish, o‘lim sabablari haqida aniq ma’lumotlar olish maqsadida o‘tkaziladi.

Patologik-anatomik tadqiqotlar o‘tkazish va odamning o‘lgan vaqtini aniqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

V. TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI

41-modda. Tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi.

O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga oliy yoki o‘rta maxsus tibbiyot bilim yurtini tamomlaganlik to‘g‘risida diplom olgan shaxslar, ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan muayyan tibbiyot va farmatsevtika faoliyati turlari bilan shug‘ullanish huquqiga esa diplom va litsenziya olgan shaxslar ega bo‘ladilar.

Tibbiyot va farmatsevtika ma’lumoti to‘g‘risidagi diplomni horijiy davlatlarda olgan shaxslarning tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

O‘z kasbi bo‘yicha uch yildan ko‘p ishlamagan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining tegishli faoliyat bilan shug‘ullanishiga tegishli o‘quv yurtlarida qayta tayyogarlikdan o‘tgandan keyin yoki O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining attestatsiya komissiyalari o‘tkazadigan attestatsiya asosida yo‘l qo‘yiladi.

Tibbiyot yoki farmatsevtika sohasida tugallanmagan oliy ma’lumoti bo‘lgan shaxslarning tibbiyot sohasida o‘rta ma’lumoti bo‘lgan xodimlar ishlaydigan lavozimlarda tibbiyot yoki farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanishiga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Oliy va o‘rta maxsus tibbiyot o‘quv yurtlari talabalarining fuqarolarga tibbiy yordam ko‘rsatishda ta’lim dasturlariga muvofiq qatnashishiga tibbiyot xodimlari nazorati ostida, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

G‘ayriqonuniy ravishda tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

42-modda. Xususiy tibbiyot amaliyot bilan shug‘ullanish huquqi.

Oliy yoki o‘rta maxsus tibbiy ma’lumot to‘g‘risida diplom va tanlangan faoliyat turi bilan shug‘ullanish uchun litsenziya olgan shaxslar xususiy tibbiyot amaliyoti, shu jumladan tabiblik (xalq tabobati) bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini professional tibbiyot uyushmalari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek ruxsatnoma (litsenziya) bergan organ nazorat qilib boradi.

Xususiy tibbiyot amaliyoti bilan shug‘ullanish xususiy tibbiyot amaliyoti bilan shug‘ullanishga ruxsatnoma bergan organning yoki sudning qarori bilan to‘xtatilishi mumkin.

43-modda. Professional tibbiyot va farmatsevtika uyushmalari.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari o‘z huquqlarini himoya qilish, tibbiyot va farmatsevtika amaliyotini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarga ko‘maklashish, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasb faoliyati bilan bog‘liq boshqa masalalarini hal etish maqsadida ixtiyoriy asosda tarkib topadigan professional uyushmalar hamda boshqa jamoat birlashmalari tuzish huquqiga ega.

Professional tibbiyot, farmatsevtika uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalari o‘z faoliyatlarini ustavlar asosida va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

44-modda. O‘zbekiston Respublikasi shifokorining qasamyodi.

Shifokor diplomini olayotgan shaxslar quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi:

«Shifoor degan yuksak unvonni olib, tibbiyot faoliyatiga kirishar ekanman:

o‘zimning bor bilim va mahoratimni bemorni davolashga hamda inson sog‘ligini saqlashga bag‘ishlashga;

yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, har bir bemorga kuch-g‘ayratim va vaqtimni ayamay tibbiy yordam ko‘rsatishga;

bemorning sog‘ligini shaxsiy manfaatlarimdan yuqori qo‘yishga, kamtar va halol bo‘lishga, o‘z bilim va mahoratimni doimo oshirib borishga;

shifokor sirini saqlashga;

kishilarga hamisha mehr-muruvvat va shifo topishlariga ishonch hadya etishga;

Buqrot, Abu Ali ibn Sino singari ulug‘ tabiblarning shonli an’analarini davom ettirishga tantanali qasamyod qilaman.

Ushbu qasamyodga umrimning oxirigacha sodiq qolishga qasamyod qilaman».

Shifokorlar qasamyodni buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

45-modda. Shifokor siri.

Fuqaroning tibbiy yordam so‘rab murojaat qilganligi, uning sog‘ligining holati, kasalligiga qo‘yilgan tashhis xususidagi hamda uni tekshirish va davolash yordamida olingan boshqa ma’lumotlar shifokor sirini tashkil etadi.

Shifokor siri hisoblangan ma’lumotlardan o‘qish hamda kasb-korga, xizmatga doir va boshqa hil vazifalarni bajarish paytida xabardor bo‘lib qolgan shaxslarning bu ma’lumotlarni fuqaro yoki uning qonuniy vakilining roziligisiz

oshkor qilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan hollar bundan mustasno.

Shifokor siri hisoblangan ma’lumotlarni fuqaro yoki uning qonuniy vakilining roziligisiz berishga quyidagi sabablarga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi:

ahvoli og‘irligi sababli o‘z-xohish irodasini bildira olmaydigan fuqaroni tekshirish va davolash maqsadida ;

yuqumli kasalliklar tarqalishi, yalpi zaharlanish va zaharlanish xavfi tahdid solganida;

tergov yoki sud tekshiruvi o‘tkazilishi munosabati bilan surishtiruv va tergov organlarining, prokuratura va sudning so‘rovi bo‘yicha;

o‘n besh yoshga to‘lmagan, voyaga yetmagan shaxsga yordam ko‘rsatilayotganda uning ota-onasi yoki qonuniy vakillarini xabardor qilish uchun;

fuqaroning sog‘ligiga g‘ayriqonuniy hatti-harakatlar yoki baxtsiz tasodif natijasida zarar yetkazilgan deb gumon qilishga asoslar mavjud bo‘lganida.

Shifokor siri hisoblangan ma’lumotlar qonunda belgilangan tartibda berilgan shaxslar shifokor sirini oshkor qilganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan bab-barobar javobgar bo‘ladilar.

46-modda. Fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash.

Fuqurolarning sog‘ligiga zarar yetkazilgan hollarda aybdorlar jabrlanganlar ko‘rgan zarar o‘rnini qonun hujjatlarida belgilangan hajm va tartibda qoplashlari shart.

G‘ayriqonuniy hatti-harakatlardan jabr ko‘rgan fuqarolarga tibbiy yordam ko‘rsatishga sarflangan mablag‘lar ularning sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladi.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari o‘z kasb-kor va vazifalarini malakali bajarmaganliklari oqibatida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Zararning o‘rnini qoplash tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qonunga muvofiq intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi.

47-modda. Sog‘liqni saqlash sohasida fuqarolar huquq va erkinliklarini kamsituvchi davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning hatti-harakatlari ustidan fuqarolarning shikoyat qilish huquqi.

Davlat organlir va mansabdor shaxslarning ushbu qonunda belgilangan fuqarolar huquq va erkinliklarini kamsituvchi hatti-harakatlari ustidan yuqori davlat organlariga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining
Prezidenti **I.A.Karimov**

SHAHAR YO‘LOVCHILAR TRANSPORTI TO‘G‘RISIDAGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING

1997 yil 25 aprel

QONUNI

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy MajlisiningAxborotnomasi,
1997 yil, 4-5 son, 124-modda)

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi.

Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirishdan iboratdir.

2-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va Qonunning amal qilish sohasi.

Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan va boshqa qonun hujjatlardan iboratdir.

Ushbu Qonun Toshkent shahrida, viloyat va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarda, shuningdek shaharchalarda shahar yo‘lovchilar transporti sub’ektlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida shahar yo‘lovchilar tranporti sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

3-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti tushunchasi.

Shahar yo‘lovchilar transporti deganda O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatga olingan, shahar doirasida yo‘lovchilar hamda bagaj tashishga mo‘ljallangan avtomobil va elektr transporti tushuniladi.

4-modda. Shahar yo‘lovchilar transpotining mulk shakllari.

Shahar yo‘lovchilar transporti ommaviy yoki xususiy mulk asosida ishlashi mumkin.

5-modda. Shahar yo‘lovchilar transportining turlari.

Shahar yo‘lovchilar transporti jumlasiga avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten, yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilar kiradi.

Avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten va yo‘nalishli taksilar belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha, harakat jadvaliga muvofiq, belgilangan ta’rifdagi haq evaziga yo‘lovchilar tashiydi.

Yo‘nalishsiz taksilar yo‘lovchilarning talablari asosida taksometr (hisoblagich) ko‘rsatishi bo‘yicha haq evaziga tashish xizmatlari ko‘rsatadi.

6-modda. Idoralarga qarashda yo‘lovchilar transporti.

Idoralalarga qarashli yo‘lovchilar transporti jumlasiga korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning o‘z xodimlarining muayyan yo‘nalish va harakat jadvali bo‘yicha mazkur korxona, muassasa yoki tashkilot tomonidan belgilangan tartibda yoxud tashish shartnomasi bo‘yicha tashish xizmatlari ko‘rsatuvchi avtobuslari va mikroavtobuslari kiradi.

Idoralarga qarashli yo‘lovchilar transportidan shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organi bilan tuzilgan tashish shartnomasi bo‘yicha yo‘lovchilar tashish uchun foydlanishi mumkin. Bu holda shahar yo‘lovchilar transportiga nisbatan tatbiq etiladi.

7-modda. Yo‘lovchi tashish shartnomasi.

Shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar tashish ishi tashish sharnomasi asosida amalga oshiriladi.

Yo‘lovchi tashish shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi.

Quyidagilar tashish shartnomasining taraflaridir:

tashuvchi- mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda transport vositasiga ega bo‘lgan, shaharda tijorat asosida yo‘lovchilar tashish xizmati ko‘rsatadigan va bunga maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

yo‘lovchi-tashuvchining xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxs.

Tashish shartnomasi bo‘yicha tashuvchi yo‘lovchini va uning bagajini belgilangan mnzilga eltib qo‘yishi shart. Yo‘lovchi belgilangan yo‘l haqini, bagaji bo‘lsa, bagaj tashish haqini ham to‘lashi shart.

8-modda. Tashuvchining asosiy vazifalari.

Qo‘yidigalar tashuvchining asosiy vazifalaridir:

fuqarolarning tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish;

shahar yo‘lovchilar transportining bir maromda ishlashini tashkil qilish;

yo‘lovchlarga xizmat ko‘rsatish sifati va madaniyatini oshirish;

yo‘lovchilarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilish talablari bajarilishini ta’minlash.

9-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatini litsenziyalash, soliq solish, kreditlash, moliyalash va narx belgilash, investitsiya, yagona ilmiy texnika siyosatini amalga oshirish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vositalar bilan tartibga soladi.

10-modda. Shahar yo‘lovchilar transportining davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasi maxsus vakolat bergan shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organi tomonidan amalga oshiriladi.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatini tartibga solish va boshqarish sohasidagi vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

rivojlantirish va ilmiy-texnika tadqiqotlari o‘tkazish masalalarida davlat siyosatini amalga oshirish;

litsenziyalash tartibini belgilash;

kreditlash, moliyalash va investitsiyalar sohasida ustun yo‘nalishlarni aniqlash;

metropoliten va boshqa muhim ob’ektlar qurilishini moliyalash masalalarini hal etish;

davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni izchil ro‘yobga chiqarish;

xalqaro shartnomalar bajarilishini ta’minlash va davlatlararo aloqalarni rivojlantirish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

12-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari.

Mahalliy davlat hoqimiyati organlarining shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatini tartibga solish va boshqarish sohasidagi vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash va kompleks mintaqaviy dasturlarni tasdiqlash;

aholiga transpot xizmati ko‘rsatish haqida shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organi bilan shartnoma tuzish va transport harakatini tashkil etish rejasini tasdiqlash;

yo‘l qo‘yiladigan doiradagi ta’riflarni belgilash va ularga rioya etilishi ustidan nazoratni uyushtirish;

bekatlar, to‘xtab o‘tish va dispetcherlik manzillarini, boshqa ob’ektlarni joylashtirish, qurish va obodonlashtirish masalalarini hal etish;

yo‘lovchilar tashish ishining sifati ustidan nazorat qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

13-modda. Shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organining vakolatlari.

Shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organining vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi;

tashuvchilar bilan shartnomalar tuzish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

barcha turdagi shahar yo‘lovchilar transportining bir maromda ishlashini ta’minlash;

yagona texnika siyosati yuritish;

barcha turdagi shahar yo‘lovchilar transportini rivojlantirish va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, ularga ko‘rsatiladigan xizmatlarning hajmlari va turlarini kengaytirish yuzasidan kompleks tadbirlar ishlab chiqish va ularni ro‘yobga chiqarish;

yo‘lovchilarga xizmatlar ko‘rsatish tartibi va qoidalarini belgilovchi normativ hujjatlar ishlab chiqish;

avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, shuningdek yo‘nalishli taksilarda yo‘lovchilar tashish yo‘nalishlari va harakat jadvallarini tasdiqlash;

yo‘lovchilarning huquqlari ta’minlanishini nazorat qilish;

shahar yo‘lovchilar transporti sub’ektlari uchun yagona chipta tizimini joriy etish, yo‘l chiptalari, varaqalari, shuningdek, ayrim toifadagi fuqarolarga transportda imtiyozli yurish huquqini beradigan hujjatlar tayyorlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

14-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatini litsenziyalash.

Tashuvchi shaharda yo‘lovchilar tashishni maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshiradi.

Shaharda yo‘lovchilar tashish uchun litsenziya berish va uni qaytarib olish tartibi O‘zbekistn Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

15-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatini moliyalash.

Shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatini moliyalash tashuvchilarning daromadlari, o‘z investitsiyalari va chet el investitsiyalari, byudjet mablag‘lari va boshqa manbalar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Shaharda yo‘lovchilar tashish sohasidagi ilmiy-tdqiqot ishlar, metropoliten qurilishi, qoida tariqasida davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Bekatlarni, to‘xtab o‘tish va dispetcherlik manzillarini loyihalash, qurish, obodonlashtirish va saranjom saqlash, shuningdek yangi tramvay va trolleybus yo‘llari qurish mahalliy byudjet hisobidan amalga oshiriladi.

Shahar yo‘lovchilar transporti tashuvchilarning yo‘l qo‘yiladigan doiradagi tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagaj tashish xizmatlari ko‘rsatish munosabati bilan ko‘rgan zarari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tegishli mahalliy byudjet hisobidan qoplanadi.

Ayrim toifadagi fuqorolarni transportda imtiyozli tashish davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

16-modda. Shahar yo‘lovchilar transportida yo‘l haqi to‘lash.

Shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish haqini to‘lash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan doirada belgilangan tariflar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashishning yo‘l qo‘yiladigan doiradagi tariflari darajasi iqtisodiy asoslangan tashish harajatlaridan va yo‘lovchilar tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib belgilanadi.

Yo‘nalishsiz taksilarda bagaj tashish haqi olinmaydi.

17-modda. Soliqlar va imtiyozlar.

Shahar yo‘lovchilar transportining tashuvchisi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar to‘laydi va imtiyozlardan foydalanadi.

18-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti vositalarini boshqarish huquqi.

Shahar yo‘lovchilar transporti vositalarini boshqarish huquqi tegish-li malakaga ega bo‘lgan va tibbiy tekshiruvdan o‘tgan shaxslarga beriladi.

Yo‘lovchilar transportini boshqarishga doir malaka talbalari va tibbiy tekshiruvdan o‘tish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

19-modda. Yo‘nalishlarni tashkil etish. Bekatlar, to‘xtab o‘tish va dispetcherlik manzillari.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organlari, aholining ehtiyojlariga qarab yo‘nalish tarmoqlarini hamda shahar yo‘lovchilar transportining har xil turlarini ulardan samarli foydalanishni nazarda tutgan holda rivojlantirishni ta’minlaydilar.

Yo‘nalishlarni tashkil etish, shu jumldan yangi yo‘nalishlar ochish va ishlab turganlarini o‘zgartirish, bekatlarni, to‘xtab o‘tish va dispetcherlik manzillarini joylashtirish yerini aniqlash shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Yo‘lovchilarning, shu jumldan nogironlar va bolali yo‘lovchilarning transport vositasiga chiqishi va undan tushishining xavfsizligini ta’minlash maqsadida bekatlar va to‘xtab o‘tish manzillari hududida jihozlangan supachalar bo‘lishi lozim.

Bekatlar va to‘xtab o‘tish manzillarida mahalliy hokimiyati organlarining ruxsati bilan aholiga xizmatlar ko‘rsatish ob’ektlari joylashtirilishi mumkin. Bunda yo‘lovchilarning hayoti va sog‘ligi xavfsizligi hamda transport harakati xavfsizligi ta’minlanishi kerak.

Bekatlar, to‘xtab o‘tish va dispetcherlik manzillari mazkur turdagi inshootlarga qo‘yiladigan sanitariya va texnika talablariga mos, zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lishi lozim.

20-modda. Shahar yo‘lovchilar transportining harakat jadvali.

Shahar yo‘lovchilar transportining harakati tashuvchi tomonidan shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organi tasdiqlangan harakat jadvaliga muvofiq tashkil qilinadi.

Barcha bekatlarda, oxirgi va to‘xtab o‘tish manzillarida yo‘nalishning nomi, tartib raqami va harakatning oraliq vaqt to‘g‘risidagi ma’lumot lavhasi joylashtiriladi.

Metropoliten bekatlarida poyezdlar harakatining oraliq vaqti maxsus qoidalarga binoan belgilanadi.

21-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti vositalariga qo‘yiladigan talablar.

Shahar yo‘lovchilar transporti vositalari xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, ekologiya talablariga, shuningdek standartlar va texnikaviy shartlarga, tibbiy-sanitariya va yong‘inga qarshi normalarga muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lishi lozim. Transport vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak.

Sertifikatlashdan o‘tmagan va belgilangan tartibda ro‘yxatga olinmagan transport vositalari foydalanishga qo‘yilmaydi.

Yo‘lovchilar transportini sertifikatlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Shahar yo‘lovchilar transportining salonida harakat yo‘nalishi, yo‘lovchi va bagaj tashish haqi to‘g‘risidagi ma’lumot, shuningdek boshqa zarur axborot bo‘lishi lozim.

Tashuvchi shahar yo‘lovchilar transportida nogironlar va bolali yo‘lovchilar uchun zarur qulayliklarni yaratadi.

Yo‘nalishsiz taksilarda yo‘l haqini aniqlash uchun hisoblagich (taksomer), maxsus tanib olish belgilari va boshqa yengil avtomobillardan farqlanuvchi raqam belgilari bo‘lishi lozim.

Yo‘nalishsiz taksilar uchun umumiy belgilar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

22-modda. Shahar yo‘lovchilar transportida reklama.

Tashuvchilar yuridik va jismoniy shaxslarning reklamasini transport vositalarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtiradilar.

23-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti tashuvchisining majburiyatlari.

Tashuvchi:

shaharda yo‘lovchilarni tashish ishlarini bajarish uchun litsenziyaga ega bo‘lishi;

yo‘lovchilarni tashish yuzasidan belgilangan qoidalarga rioya etishi;

yo‘lovchilarning hayoti va sog‘lig‘i havfsizligini ta’minlash;

mehnatni muhofaza qilish, yong‘indan saqlash havfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi va ekologiya talablarini bajarishi;

harakat xavfsizligini, shahar yo‘lovchilar tansportidan texnik foydalanish va uni ishlatish qoidalariga rioya etilishini ta’minlashi;

fuqarolarning ayrim toifalarini imtiyozli tashishi;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bosha talablarni bajarishi shart.

Tashuvchilarning belgilangan yo‘nalishdan o‘zoshimchalik bilan chetga chiqishi, harakat jadvalini buzishi hamda yo‘lovchilarga qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan biron-bir talabni qo‘yishi man etiladi.

24-modda. Yo‘lovchilarning huquqlari.

Yo‘lovchilar:

shahar ylovchilar transportining har qanday turidan foydalanish; bekatlar va to‘xtab o‘tish manzillaridan foydalanish;

o‘zlari bilan birgalikda yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarini bepul olib yurish;

o‘lchamlari belgilangan kattalikdan oshmaydigan, vazni yigirma kilogrammgacha bo‘lgan qo‘l yukini bepul olib yurish:

hayoti va sog‘ligini shaxsiy sug‘urta qilish haqida ixtiyoriy ravishda shartnoma tuzish;

bekatlar va oxirgi dispetcherlik manzillari dispetcherlaridan shahar yo‘lovchilar transportining ishi to‘g‘risida axborot olish;

qonun hujjatlarida berilgan boshqa huquqarlardan foydalanish huquqiga egadir.

25-modda. Yo‘lovchilarning majburiyatlari.

Yo‘lovchilar:

yo‘lovchilarni tashish yuzasidan belgilangan qoidalarga rioya etishlari:

yo‘l haqi va bagaj tashish haqini o‘z vaqtida to‘lashlari, chiptni manzilga yetguncha qadar saqlashlari va uni nazorat qiluvchi shaxslarning talabiga binoan ko‘rsatishlari;

transportda imtiyozli yurish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatishlari;

shahar yo‘lovchilar transportidan foydalangan tozalik va tartibg rioya etishlari, tashuvchilarning asbob-uskunalari va mol-mulkini ehtiyot qilishlari;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarishlari shart.

Yo‘lovchilarning tez yonuvchan, portlovchi, zaharli, radiaktiv moddalar va ashyolarni, shuningdek g‘ilofsiz o‘qotar qurol, tig‘li va keskir ashyolarni olib borishlari man etiladi.

26-modda. Shahar yo‘lovchilar transportida imtiyozli yurish.

Ayrim toifadagi fuqorolarga qonun hujjatlari bilan shahar yo‘lovchilar transportida imtiyozi yurish huquqini belgilanadi.

Transportda imtiyozli yurish huquqidan foydlanadigan shaxslarning qo‘l yuki va bagaj olib brishi umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Transportda imtiyozli yurish huquqini beradigan hujjatlar bo‘yicha ketayotgan yo‘lovchilar transportida amal qilayotgan tashish qoidalari majburiydir.

27-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslar Qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Chiptalarni, yo‘l varaqalarini va shahar yo‘lovchilar transportida imtiyozli yurish huquqini beradigan hujjatlarni qalbakilashtirganlik uchun javobgarlik qonunda belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasining
Prezidenti **I.A.Karimov**

POCHTA ALOQASI TO‘G‘RISIDA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING

2000 yil 31 avgust

QONUNI

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi,
2000 yil, 7-8 son, 210-modda)

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi.

Ushbu qonunning maqsadi pochta aloqasini tashkil etish, uning faoliyati va rivojlanishi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

2-modda. Pochta aloqasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.

Pochta aloqasi to‘g‘risidagi Qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining pochta aloqasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

abonentlik pochta javoni – turar joy binosining kirish yo‘lagi (vestibyuli)da, shuningdek xat-xabarlar va davriy nashrlar yetkaziladigan uchastkada adresatlarning yozma xat-xabarlar va davriy nashrlarni olishlari uchun o‘rnatiladigan, qulflanadigan qutichalardan iborat maxsus javon;

adresat – pochta jo‘natmasi, pul mablag‘larining pochta o‘tkazmasi, telegraf xabarlari va boshqa xabarlar yo‘llangan yuridik yoki jismoniy shaxs;

yozma xat-xabarlar – oddiy, buyurtma va qimmatli xatlar, banderollar, oddiy va buyurtma pochta varaqchalari hamda sekogrammmalari (ko‘zi ojizlar uchun), shuningdek mayda paketlar;

milliy operator – pochta aloqasi milliy operatori, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan zimmasiga O‘zbekiston Respublikasining butun xududiga universal xizmatlarni majburiy ravishda ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan operator;

nomli buyum – hujjatlar va pochta jo‘natmalariga pochta aloqasi ob’ektining nomi, pochta jo‘natmasi qabul qilingan va yetkazilgan sana hamda boshqa ma’lumotlardan iborat tamg‘a tushiruvchi qurilma;

operator – pochta aloqasi operatori, ya’ni mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida pochta aloqasi tarmog‘iga egalik qiluvchi va pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

pochta aloqasi – pochta jo‘natmalari shuningdek pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalarini jo‘natish (qabul qilish, ishlov berish, tashish, o‘tkazish) ni va yetkazib berish (topshirish) ni ta’minlovchi texnik va transport vositalarining yagona ishlab chiqarish-texnologiya majmuini o‘zida mujassamlashtirgan aloqa turi;

pochta aloqasi vositalari – pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish uchun foydalaniladigan asbob-uskunalar, texnika va transport vositalari, shuningdek pochta konvertlari, varaqchalari va idishlar;

pochta aloqasi ob’ektlari – pochta aloqasi operatorlarining alohida bo‘linmalari, ya’ni pochtamplar, pochta aloqasi uzellari, bo‘limlari va punktlari, shuningdek temir yo‘l stansiyalari va aeroportlar qoshidagi pochta almashish punktlari;

pochta aloqasi tarmog‘i – pochta aloqasi ob’ektlari va pochta yo‘nalishlari majmui;

pochta aloqasi xizmatlari – operator yoki provayderning pochta jo‘natmalarini, shuningdek pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalarini jo‘natish bo‘yicha faoliyati;

pochta jo‘natmalari – manzili ko‘rsatilgan yozma xat-xabarlar, posilkalar, to‘g‘ri jo‘natiluvchi pochta konteynerlari va tegishlicha o‘rovdagi bosma nashrlar;

pochta indeksi – pochta aloqasi ob’ekti manzilining shartli belgisi;

pochta to‘lovining davlat belgilari – pochta jo‘natmalaridagi pochta aloqasi xizmatlari haqi to‘langanligini tasdiqlovchi pochta markasi va frankirlash mashinasining tamg‘a izi;

pochta qutisi – oddiy xatlar va pochta varaqchalarini yig‘ishga mo‘ljallangan, belgilangan shakl va o‘lchamdagi, operator yoki provayderning qulflanadigan maxsus qutisi;

provayder – pochta aloqasi xizmatlari provayderi, ya’ni foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini tijorat asosida pochta aloqasi operatorining tarmog‘i orqali ko‘rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

pul mablag‘larining pochta o‘tkazmasi – pochta aloqasi operatori yoki provayderining pochta aloqasi va pul mablag‘larini jo‘natishdan iborat xizmati;

tayanch punktining pochta javoni – pochta jo‘natmalarini yetkazish uchastkasida pochta jo‘natmalarini vaqtincha saqlash yoki adresat pochta jo‘natmalarini olishi uchun mo‘ljallangan, qulflanadigan maxsus javon;

umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi – barcha yuridik va jismoniy shaxslar foydalanishi uchun ommaviy shartnoma shartlari asosida ochiq bo‘lgan pochta aloqasining turi;

universal xizmatlar – pochta aloqasining universal xizmatlari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi xududida umumiy foydalanishdagi pochta aloqasining yozma xat-xabarlarini jo‘natish bo‘yicha barcha foydalanuvchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlari;

foydalanuvchi – pochta aloqasi xizmatidan foydalanuvchi, ya’ni pochta aloqasi xizmatlarining iste’molchisi hisoblangan yuridik yoki jismoniy shaxs;

frankirlash mashinasi – yozma xat-xabarlarga pochta aloqasi xizmatlari uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi pochta to‘lovining davlat belgilarini, ushbu

xat-xabarlarni qabul qilish sanasini va boshqa ma’lumotlarni tushirishga mo‘ljallangan mashina;

qimmatli pochta jo‘natmalari – foydalanuvchi tomonidan jo‘natish vaqtida joylanma qiymati e’lon qilingan pochta jo‘natmalari.

4-modda. Pochta aloqasi faoliyatining asosiy prinsiplari.

Pochta aloqasi sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

hamma foydalanuvchilar uchun ochiqligi;

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida pochta jo‘natmalari tranzitining erkinligi;

umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi faoliyatida ishtirok etishda yuridik va jismoniy shaxslarning teng huquqligi;

har bir shaxsning yozishmalari va pochta jo‘natmalari sir tutilishi huquqini ta’minlash;

pochta aloqasi sohasida standartlar, qoidalar va normalarning yagonaligi.

5-modda. Pochta aloqasi mulki.

Pochta aloqasining mol-mulki ommaviy yoki xususiy bo‘lishi mumkin.

Pochta aloqasining mulkdorlari qonun bilan kafolatlangan teng xuquqlarga egadir.

6-modda. Pochta aloqasi turlari.

O‘zbekiston Respublikasida pochta aloqasi umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi va maxsus mo‘ljallangan pochta aloqasiga bo‘linadi.

Umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi operator va provayderlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida pochta aloqasi faoliyatining yagona prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Maxsus mo‘ljallangan pochta aloqasi quyidagilarga bo‘linadi:

pochta aloqasi sohasida maxsus vakolatli organning maxsus aloqasi;

davlat feld’egerlik aloqasi;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining feld’egerlik-pochta aloqasi.

Maxsus mo‘ljallangan pochta aloqasining faoliyati qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

7-modda. Pochta aloqasi sohasini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish.

Pochta aloqasi sohasini davlat tomonidan tartibga solish yagona ilmiy-texnikaviy siyosatni shakllantirish, soliq solish yo‘li bilan shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Pochta aloqasi sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan maxsus vakolatli organ (bundan buyon – maxsus vakolatli organ deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

8-modda. Maxsus vakolatli organ.

Maxsus vakolatli organ:

pochta aloqasini rivojlantirish milliy dasturlarini amalga oshiradi;

umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarini (bundan buyon – pochta qoidalari deb yuritiladi) tasdiqlaydi;

universal xizmatlar tarifini tartibga soladi;

pochta aloqasining texnik vositalarini belgilangan talablarga muvofiqligiga doir sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etadi;

davlat pochta to‘lov belgilarining namunalarini tasdiqlaydi va ularni nashr etish, muomalaga kiritish va muomaladan chiqarish tartibini belgilaydi;

operatorlar va provayderlar uchun majburiy bo‘lgan pochta indekslarini, yozma xat-xabarlarning olib ketish davriyligi normativlarini, shuningdek pochta jo‘natmalari o‘tishining nazorat muddatlarini tasdiqlaydi;

pochta aloqasi tarmoqlari va xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek pochta va axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha operator va provayderlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turadi;

ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini nazorat qiladi, foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, operatorlar, provayderlar va foydalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalalarini qarab chiqadi;

kadrlarni o‘qitish va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

halqaro hamkorlikni amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

9-modda. Universal xizmatlar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida universal xizmatlar milliy operator tomonidan ko‘rsatiladi.

Universal xizmatlarni ko‘rsatish qoidalari va ularning sifatiga bo‘lgan talablar maxsus vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

10-modda. Pochta aloqasi xizmatlari uchun to‘lov.

Pochta aloqasi xizmatlari uchun to‘lov, operator yoki provayder tomonidan shartnoma asosida belgilab qo‘yiladigan tariflar bo‘yicha aniqlanadi, universal xizmatlar bundan mustasno.

Universal xizmatlar uchun to‘lov qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlanuvchi tarif asosida aniqlanadi.

Yozma xat-xabar jo‘natganlik uchun to‘lov yozma xat-xabarga pochta to‘lovining davlat belgisini tushirish orqali tasdiqlanadi.

11-modda. Yozishmalar va pochta jo‘natmalari siri.

Yozishmalar va pochta jo‘natmalari sirini saqlash maqsadida operator va provayderlarga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, quyidagilar ta’qiqlanadi:

jo‘natuvchining yoki adresatning qonuniy vakilidan boshqa uchinchi shaxsga pochta jo‘natmalari va foydalanuvchilarning manzillari haqidagi ma’lmotlarni oshkor etish;

pochta jo‘natmasini ochish yoki ochmasdan uning joylanmasiga doir ma’lumotlarni bilib olish;

pochta jo‘natmalarining joylanmasidan boshqa shaxsni xabardor qilish.

12-modda. Operator va provayderlarning huquqlari.

Operator va provayderlar quyidagi huquqlarga ega:

foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini va shartnoma asosidagi boshqa xizmatlarini va shartnoma asosidagi boshqa xizmatlarni ko‘rsatish;

foydalanuvchi pochta qoidalarida belgilangan talablarni buzgan taqdirda unga pochta aloqasi xizmatlari ko‘rsatishni to‘xtatib qo‘yish;

xalqaro pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun chet el mamlakatlarining pochta ma’murlari va operatorlari bilan o‘zaro hisob-kitoblarni yuritish;

o‘z belgisiga ega bo‘lish va undan qonun hujjatlariga muvofiq o‘z faoliyatida foydalanish.

Operatorlar va provayderlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

13-modda. Milliy operatorning mutloq huquqlari.

Milliy operator quyidagi mutloq huquqlarga ega:

pochta vagonlari va pochta qutilariga O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirini tushirish;

boshqa davlatlarning pochta ma’murlari bilan pochta aloqasi sohasidagi o‘zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda o‘z vakolatlari doirasida O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalash va himoya qilish;

oddiy xatlar va pochta varaqachalarini jo‘natish, davlat pensiya va nafaqalarini yetkazib berish (topshirish) bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish.

14-modda. Operator va provayderlarning majburiyatlari.

Operator va provayderlar quyidagilarga majburdir:

pochta aloqasi sohasidagi faoliyatni pochta qoidalariga muvofiq amalga oshirish;

foydalanuvchilarning pochta aloqasi xizmatlaridan erkin foydalana olishini ta’minlash;

pochta aloqasi ko‘rsatayotgan xizmatlar sifatli bo‘lishini ta’minlash;

pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larining butligini ta’minlash;

pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan texnologik uskunalar, mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va axborotlashtirish vositalariga ega bo‘lish;

foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish shartlari va tartibi to‘g‘risidagi, shuningdek pochta aloqasi xizmatlari tariflarining o‘zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etish;

pochta aloqasi xizmatlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun foydalanuvchilarga yetkazilgan zararlarni qonun hujjatlariga muvofiq qoplash.

Operator va provayderlar zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

15-modda. Operator va provayderlarning o‘z majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarligi.

Operator va provayderlar pochta orqasi xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoxud lozim darajada bajarmaganlik uchun foydalanuvchilar oldida qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar. Operator va provayderlarning javobgarligi pochta jo‘natmalarini yo‘qotish, buzish (shikastlash), joylanmalarning kam chiqishi, pochta jo‘natmalarini yetkazib bermaslik (topshirmaslik) yoki pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalarini amalga oshirishning nazorat muddatlarini buzish hamda pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatishning belgilangan talablari boshqacha tarzda buzilgan hollarda yuzaga keladi.

Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatishda foydalanuvchilarga yetkazilgan zararlar operator yoki provayder tomonidan quyidagi miqdorlar to‘lanadi:

pochta jo‘natmalari: buyurtma xat, buyurtma pochta varaqachasi, buyurtma banderol yoki pochta jo‘natmasini topshirganlik to‘g‘risidagi buyurtma xabar qog‘ozi yo‘qotilgan hollarda – pochta aloqasi xizmatlariga to‘langan summa miqdorida neustoyka; posilka, qimmatli banderol yoki qimmatli xat uchun – e’lon qilingan qiymatning ikki barobari va pochta aloqasi xizmati uchun to‘langan summa miqdori neustoyka (e’lon qilingan qiymat uchun tarif to‘lovi bundan mustasno);

qimmatli pochta jo‘natmasini joylanma ro‘yxati bilan jo‘natganda joylanmagan bir qismi yetishmagan yoki buzilgan (shikastlangan) hollarda-jo‘natuvchi ro‘yxatga ko‘rsatgan joylanmaning yetishmayotgan yoki buzilgan (shikastlangan) qismi e’lon qilingan qiymatining ikki barobari miqdorida;

qimmatli pochta jo‘natmasini joylanma ro‘yxatisiz jo‘natganda joylanmaning bir qismi yo‘qolgan yoki buzilgan (shikastlangan) hollarda-joylanmaning yetishmayotgan yoki buzilgan (shikastlangan) qismining yuborilgan joylanma og‘irligiga (pochta jo‘natmasi ustki o‘ramini istisno etganda) nisbati bilan mutanosib tarzda aniqlanadigan pochta jo‘natmasi qiymati e’lon qilingan qismining ikki barobari miqdorida;

adresatga pul mablag‘larining pochta yoki telegraf o‘tkazmasi to‘lanmaganda yoki noto‘g‘ri to‘langanda, agar o‘tkazilgan pullarni adresatga berishning imkoni bo‘lmay, u jo‘natuvchiga ham to‘lanmagan bo‘lsa - o‘tkazmaning to‘lanmagan qismi summasi miqdorida hamda pochta aloqasi xizmatlariga to‘langan summa miqdorida neustoyka;

adresatdan ustama to‘lov miqdorini yetarlicha olmagan yoki ustama to‘lovni noto‘g‘ri to‘laganda – kam olingan yoki noto‘g‘ri to‘lagan ustama to‘lov summasi miqdorida;

posilkalar qimmatli xatlar, qimmatli banderollar, shuningdek pul mablag‘larining pochta va telegraf o‘tkazmalarini belgilangan muddatlardan ko‘proq ushlab qolgan hollarda – ushlanib qolingan har bir kun uchun pochta xizmatlariga to‘langan summaning bir foizi miqdorida, lekin ushbu xizmatga to‘langan summadan ko‘p bo‘lmagan miqdorda neustoyka. Zararlar jo‘natuvchilarning yoki adresatlarning talabiga binoan to‘lanadi;

aviajo‘natmalarni (banderol, posilkalarni) jo‘natish yoki yetkazib berish (topshirish)ning belgilangan muddatlaridan ko‘proq ushlab qolgan hollarda – avia va yer usti transportida jo‘natish o‘rtasidagi to‘lov farqi miqdorida va bundan tashqari yer usti transporti orqali jo‘natishning belgilangan muddatlaridan ko‘proq ushlanganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun – ushbu modda ikkinchi qismining yettinchi xatboshisiga muvofiq;

sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar, avia va yer usti transporti yo‘l chiptalari solingan qiymatli xatlarni jo‘natish yoki yetkazib berish (topshirish)ning belgilangan muddatlaridan kechikkanligi tufayli ulardan foydalanish muddatlari o‘tib ketgan hollarda-yetkazilgan zararning ikki barobari miqdorida, lekin joylanma ro‘yxatida e’lon qilingan qiymatning ikki barobaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda hamda pochta aloqasi xizmati uchun to‘langan summa miqdorida neustoyka.

Pochta jo‘natmalarining yo‘qolishi, buzilishi (shikastlanishi), yetkazib berilmagani (topshirilmagani) yoki ularning jo‘natilishi nazorat muddatidan kechikkani yetkazib bo‘lmas kuch yoki pochta jo‘natmasi joylanmasining xususiyatlari tufayli sodir bo‘lganligi isbotlansa, operator va provayderlar javobgar bo‘lmaydilar.

16-modda. Foydalanuvchilarning huquqlari.

Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanish;

o‘z huquq va majburiyatlari pochta qoidalari, ko‘rsatilayotgan xizmatlar va ularga doir tariflar haqidagi axborotlardan erkin foydalana olish;

o‘z pochta manzili bo‘yicha, yo‘qlab olish tarzida yoki abonentlik pochta javoni qutilaridan foydalangan holda pochta jo‘natmalarini va pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalarini olish;

kelgan pochta jo‘natmalari yoki pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalarini olishdan bosh tortish;

qiymati e’lon qilingan pochta jo‘natmasi joylanmasining bahosini mustaqil ravishda belgilash;

operator va provayderlar tomonidan o‘z vaqtida hamda sifatli xizmat ko‘rsatilishi;

xizmat ko‘rsatilmaganligi yoki lozim darajada sifatli xizmat ko‘rsatilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning to‘lanishi, ma’naviy ziyonning qoplanishiga erishish;

o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda vakolatli davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish.

Foydalanuvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

17-modda. Foydalanuvchilarning majburiyatlari.

Foydalauvchilar quyidagilarga majburdirlar:

- pochta qoidalari talablariga rioya etish;

- o‘zlariga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘lash;
- operator va provayderlarning ish sifati pasayishiga qaratilgan xatti-harakatlar qilmaslik.

Foydalanuvchilar zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

18-modda. Da’volarni taqdim etish tartibi va muddati.

Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha majbkuriyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda foydalanuvchi operator yoki provayderga da’vo taqdim etishi, shu jumladan yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilishga haqli.

Pochta jo‘natmasini yetkazmaganlik (topshirmaganlik), o‘z vaqtida yetkazmaganlik yoki yo‘qotganlik (shikastlanganlik) yoxud o‘tkazilgan pul mablag‘larini to‘lamaganlik to‘g‘risidagi da’volar pochta jo‘natmasi yoki pul mablag‘larining pochta o‘tkazmasi topshirilgan kundan e’tiboran o‘n ikki oy davomida taqdim etiladi.

Da’volar yozma tarzda bayon etiladi va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart.

Da’volarga yozma javoblar quyidagi muddatlarda berilishi kerak:

bir aholi punkti doirasida yuborilgan (o‘tkazilgan) pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larining pochta o‘tkazmasiga doir da’volarga –besh kun davomida;

boshqa barcha pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larining pochta o‘tkazmasiga doir da’volarga –besh kun davomida;

boshqa barcha pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larining pochta o‘tkazmasiga doir da’volarga – bir oy davomida.

Operator yoki provayderlarga pochta jo‘natmasi qabul qilingan manzil bo‘yicha ham, pochta jo‘natmasi yuborilishi belgilangan manzil bo‘yicha ham da’volar taqdim etilishi mumkin.

Xalqaro pochta jo‘natmalarini qidirib topish bo‘yicha da’volar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda qabul qilinadi va ko‘rib chiqiladi.

19-modda. Pochta aloqasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Pochta aloqasi davlat tomonidan quyidagi yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin:

pochta aloqasi va uning infratuzilmasini rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilish;

pochta aloqasining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash uchun moliyaviy va moddiy texnikaviy yordam berish;

belgilangan tartibda soliqqa doir va boshqa imtiyozlar berish.

20-modda. Pochta aloqasi tarmoqlari va vositalarini rivojlantirish hamda qayta ta’mirlash.

Pochta aloqasi tarmoqlari va vositalarini rivojlantirish hamda qayta ta’mirlash ularning mulkdorlari (egalari) tomonidan o‘z mablag‘lari, manfaatdor

yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Shaharlar, shaharchalar va boshqa aholi punktlari, turar joy dahalari va majmualari, alohida binolar va inshootlar loyihalashtirilayotgan hamda rivojlantirilayotganda mahalliy davlat hokimiyati organlari belgilangan normativlarga muvofiq pochta aloqasi ob’ektlarini joylashtirish uchun binolar qurilishini yoki alohida xonalar bo‘lishini nazarda tutishlari kerak.

Pochta aloqasi ob’ektlarini avtomobil va temir yo‘l vokzallari, aeroportlar, bozorlar va mehmonxonalarda joylashtirish tartibda amalga oshiriladi.

Avtomobil, temir yo‘l vokzallari, aeroportlar qoshida pochta aloqasi ob’ektlarining binolari va inshootlari qurilishi uchun yer uchastkalari bevosita ularga yaqin joylardan ajratilishi, shaharlarda pochtamtplar qurilishi uchun esa-shaharning markaziy qismidan, pochta almashinuvi uchun sharoitlar ta’minlangan holda ajratilishi kerak.

Aholi punklarida va ayrim binolarni yangidan qurish, kengaytirish, qayta ta’mirlash, foydali qazilmalarni qazib olish tufayli pochta aloqasi ob’ektlarini ko‘chirish (qayta qurish) buyurtmachi tomonidan o‘z mablag‘lari hisobiga, operator yoki provayderlarning texnik shartlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Pochta qutilari foydalanuvchilar uchun hamda xat va varaqchalarini olib ketish uchun qulay bo‘lgan yerlarga joylashtirilishi kerak.

Abonentlik pochta javonlari qurilish tashkilotlari tomonidan ko‘p qavatli binolarning birinchi qavatlariga o‘rnatiladi. Abonentlik pochta javonlarini harid qilish va o‘rnatish harajatlari ushbu uylarning qurilish smetalariga kiritiladi. Abonentlik pochta javonlarini soz holda saqlab turish ta’mirlash-foydalanish korxonalari tomonidan, uylarning egalari yoki mulkdorlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Ko‘p qavatli binolarga joylashgan tashkilotlarga pochta jo‘natmalari shu tashkilotlar tomonidan binolarning birinchi qavatlariga o‘rnatilgan tayanch punktlarining pochta javonlari orqali yetkazib beriladi.Javonlarni o‘rnatish va soz holda saqlab turish pochta jo‘natmalarini oluvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

21-modda. Pochta aloqasining transport vositalaridan foydalanish.

Operator va provayderlar pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larini tashish uchun o‘zlariga tegishli bo‘lgan transport-pochta vagonlari, avtomobillardan, shuningdek shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transportdan foydalanadi.

Operator va provayderlar pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larini tashish uchun foydalanadigan transport vositalari qonun hujjatlariga muvofiq maxsus farqlash belgilariga ega bo‘lishi mumkin.

Operator va provayderlarning pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larini tashish uchun foydalanadigan transport vositalari ularning roziligisiz boshqa ishlarni bajarish uchun foydalanilishi va olib qo‘yilishi mumkin emas.

Shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlarda yo‘lovchi hamda yuklarni muntazam tashuvchi temir yo‘l, havo va avtomobil transportining xo‘jalik yurituvchi

sub’ektlari operator va provayerlar bilan pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larini tashish yuzasidan shartnomalar tuzishni rad etishga haqli emaslar.

Operator va provayderlarning pochta jo‘natmalari va pul mabag‘larini tashish uchun foydalanadigan transport vositalari shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va boshqa aholi punktlarining barcha ko‘chalari bo‘ylab, avtomobil yo‘llarida hech qanday cheklanishsiz yurish hamda avtomobil, temir yo‘l vokzallari va aeroportlar qoshida joylashgan pochta aloqasi ob’ektlariga, yuk (bagaj) majmualariga kirish huquqiga ega.

22-modda. Pochta jo‘natmalari va pul mablag‘lari butligini ta’minlash.

Operator va provayderlar pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larining butunligini ta’minlaydilar.

Operatorlar bilan provayderlar o‘rtasidagi pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larini qabul qilish va topshirish pochta qoidalariga belgilangan tartibda, beriladigan va qabul qilinadigan pochta jo‘natmalari hamda pul mablag‘larining hujjatlashtirib qayd e’tilishi ta’minlangan holda amalga oshiriladi.

Pochta jo‘natmalari va pul mablag‘lari tashiladigan transport vositalari belgilangan norma va qoidalarga muvofiq jihozlangan bo‘lishi kerak.

Pochta jo‘natmalariga ishlov beriladigan va pul mablag‘lari saqlanadigan binolar, xonalar zarur asbob-uskunalar, qo‘riqlash-yong‘inga qarshi signalizatsiya vositalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Qimmatli pochta jo‘natmalari sug‘urtalanishi shart. Qimmatli pochta jo‘natmalarini sug‘urtalash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

23-modda. Pochta aloqasi xizmatlari ko‘rsatishning alohida shartlari.

Pochta jo‘natmasini yoki o‘tkazilgan pul mablag‘larini foydalanuvchi-ning manziliga doir zarur ma’lumotlar aniq emasligi yoki yo‘qligi, adresat-ning ko‘chib ketganligi tufay li yetkazish (topshirish) imkoni bo‘lmasa yoki operator va provayderlar pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasidagi o‘z majburiyatlarini bajara olish imkoniyatini istisno etadigan boshqa holatlarda ular jo‘natuvchiga pochta qoidalarida belgilan-gan muddatlarda qaytariladi. Jo‘natuvchi qaytarilgan pochta jo‘natmasi yoki qaytarilgan mablag‘larini olishdan bosh tortgan taqdirda, ular operator yoki provayder tomonidan vaqtinchalik saqlash uchun qabul qilinadi.

Agar foydalanuvchining manziliga doir zarur ma’lumotlarning yo‘qligi tufayli yektazilmagan (topshirilmagan) pochta jo‘natmalari yoki pul mablag‘larini jo‘natuvchiga qaytarishning ham imkoni bo‘lmay qolsa, ular operator yoki provayder tomonidan vaqtinchalik saqlash uchun qabul qilinadi.

Tarqatilmay qolgan pochta jo‘natmalari va talab qilib olinmagan pul mablag‘lari bilan ishlash tartibi pochta qoidalari bilan belgilanadi.

24-modda. Topshirilmay qolgan pochta jo‘natmalaridan foydalanish tartibi.

Topshirilmay qolgan pochta jo‘natmalarini vaqtinchalik saqlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda operator yoki provayder tomonidan olti oy davomida amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan muddat o‘tganidan so‘ng:

pullar davlat byudjeti foydasiga o‘tkaziladi;

qimmatli qog‘ozlar fond birjasi orqali, qimmat-baho metallar, boshqa buyumlar savdo tarmoqlari orqali sotiladi, tushgan mablag‘lar esa operator yoki provayderlarning harajatlari qoplanganidan so‘ng davlat byudjeti foydasiga o‘tkaziladi;

hujjatlar (pasport, diplom, shahodatnoma, guvohnoma va boshqalar) kim tomonidan berilgan bo‘lsa, shu korxona, muassasa va tashkilotlarga topshiriladi;

xatlar tegishli dalolatnoma tuzib, yo‘q qilib tashlanadi.

Oluvchisini, jo‘natuvchisini qidirishning iloji bo‘lmaganda, torshirilmay qolgan pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalari pochta aloqasi operatori tomonidan o‘n sakkiz oy davomida saqlanadi, shundan so‘ng pul mablag‘lari mahalliy byudjet foydasiga o‘tkaziladi.

25-modda. Umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi tarmog‘i orqali pochta jo‘natmalarini yuborishdagi cheklovlar.

Umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi tarmog‘i orqali pochta jo‘natmalari yuborishda cheklovlar belgilanishi mumkin bo‘lib, ularning ro‘yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Operator va provayderlar jo‘natishi ta’qiqlangan joylanmasi bor pochta jo‘natmalarini ushlab qolish, shuningdek joylanmasi boshqa pochta jo‘natmalarining buzilishi (shikastlanishi)ga olib keluvchi, operator va provayderlar xizmatchilari yoki uchinchi shaxslarning hayoti va sog‘ligi xavf solinadigan (bu xavfni boshqa yo‘l bilan bartaraf etib bo‘lmaydigan) hollarda, pochta jo‘natmalarini yo‘q qilib tashlash yoki yo‘q qilib tashlashga ruxsat berish huquqiga egadir.

Umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi tarmoqlari orqali jo‘natish ta’qiqlangan buyum, ashyo va materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida yuborilayotgan pochta jo‘natmalaridan olib qo‘yish, shuningdek ularni yo‘q qilib tashlash tartibi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Qonun hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida faoliyat yuritadigan yuridik shaxslardan joylanmasi davlat siriga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlar va buyumlar, O‘zbekiston Respublikasi pul belgilari, chet el valyutasidan iborat pochta jo‘natmalarini qabul qilish, shuningdek ularni tashish va yetkazib berish maxsus mo‘ljallangan pochta aloqasi korxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

26-modda. Favqulodda holatlarda pochta aloqasi xizmatlari ko‘rsatish.

Favqulodda holatlarda (harbiy harakatlar, zilzilalar, suv toshqinlari, yong‘inlar, epidemiyalar va boshqalarda) pochta aloqasi xizmatlari ko‘rsatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan.

27-modda. Pochta ob’ektlarida ro‘y bergan hodisalar, avariyalar oqibatlarini bartaraf etish.

Pochta aloqasi ob’ektlarida ro‘y bergan hodisalar, avariyalar oqibatlarini bartaraf qilish ularning mulkdorlari (egalari) tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari pochta aloqasi ob’ektlarida ro‘y bergan hodisalar, avariyalar oqibatlarini bartaraf etishda operatorlar ko‘maklashadilar.

Pochta aloqasi ob’ektlarida yuridik va jismoniy shaxslarning aybi bilan ro‘y bergan hodisalar oqibatida operator yoki provayderlarga yetkazilgan zararlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

28-modda. Milliy operator xizmatchisining formali qiyimi va ko‘krak nishoni.

Milliy operator xizmatchisi o‘z xizmatchisi o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun formali kiyim va ko‘krak nishoni bilan ta’minlanadi.

Formali kiyim va ko‘krak nishonini tasdiqlash hamda ulardan foydalanish tartibi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

29-modda. Pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanishdagi imtiyozlar.

Qonun hujjatlarida foydalanuvchilarning ayrim toifalari uchun pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanishda imtiyozlar belgilanishi mumkin.

Foydalanuvchilarning ayrim toifalariga pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanishda belgilangan imtiyozlar berilishi munosabati bilan operator yoki provayderlarning mablag‘larini qoplash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Foydalanuvchilarning ayrim toifalariga pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanishda uskunalar belgilanishi mumkin. Pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanishda toifalarining ro‘yxati hamda bu xizmatlarni ko‘rsatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

30-modda. Nizomlarni hal etish.

Operatorlar, provayderlar va foydalanuvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan nizomlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

31-modda. Pochta aloqasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Pochta aloqasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti **I.A.Karimov**

Vazirlar mahkamasining 2000 yil 10 yanvardagi 8-son qarori

O‘zbekiston Respublikasi iste’molchilariga gaz yetkazib berish

QOIDALARI

1. Umumiy qoidalar
2. Atamalar va ta’riflar
3. Gaz sotish tartibi
4. Iste’molchilarga gaz yetkazib berish
5. Gaz sarfini hisobga olish va gaz uchun hisob-kitob qilish tartibi
6. Gaz yetkazib beruvchilarning, gaz uzatish tashkiloti va hududiy gaz ta’minoti korxonalari hamda iste’molchilarning huquq va majburiyatlari
7. O‘zbekiston Respublikasi iste’molchilariga gaz yetkazib berish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur foydalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va gaz yetkazib beruvchilar, gaz uzatish va xududiy gaz ta’minoti korxonalari hamda gaz iste’molchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

2. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

2.1. Mazkur Qoidalarda quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

«gaz» - konlardan qazib olinadigan, neft gazi (qo‘shimcha), gaz va neftni qayta ishlovchi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan gaz;

«gaz yetkazib beruvchi» - gaz ta’minoti tashkilotlariga yoki iste’molchilarga gaz yetkazib berilishini ta’minlovchi gaz va neft qazib oluvchi hamda gaz va neftni qayta ishlovchi korxonalar;

«gaz uzatuvchi tashkilot» - gaz yetkazib beruvchidan gaz harid qiluvchi va uni qazib olish joyidan va/yoki qayta ishlash joyidan taqsimlash va iste’mol punktlariga uzatuvchi tashkilot; (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qaroriga muvofiq beshinchi xat boshi chiqarib tashlangan.

«gaz sotuvchi tashkilot» - gazning iste’molchilarga yetkazib berilishini ta’minlovchi tashkilot;

«xududiy gaz ta’minoti korxonasi» - gazning iste’molchilarga taqsimlanishini, uzatilishini va iste’molchilarga gaz yetkazib berilishini ta’minlovchi tashkilot; (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

«**iste’molchi**» - korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, yuridik shaxs bo‘lmagan xolda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, tabiiy gazdan yoqilg‘i yoki xom ashyo sifatida foydalanuvchi jismoniy shaxslar hamda aholi;

«**mavsumiy iste’molchi**» - tabiiy gazdan yilning muayyan davrida (aprel-oktyabr) yoqilg‘i sifatida foydalanuvchi iste’molchilar;

«**fond saqlovchi**» - vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, uyushmalar va hokimliklar;

«**hisob-kitob davri**» - gaz sarfi aniqlanishi, yetkazib berilgan gaz uchun yetkazib beruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar amalga oshirilishi kerak bo‘lgan davr. Tomonlar kelishib olgan hisob-kitob davr shartnomada ko‘rsatiladi;

«**gaz iste’molchi broni**» - zahira yoqilg‘i turlaridan eng ko‘p darajada foydalanish shartlari bilan texnologik asbob-uskunalarining xalokatsiz ishlashi uchun zarur bo‘lgan gaz iste’mol qilishning bir kecha-kunduzlik eng kam hajmi, u har bir aniq holatda iste’molchi tomonidan «O‘zbekneftgaz» kompaniyasi bilan kelishgan holda aniqlanadi;

«**gaz yetkazib berishning bir kecha-kunduzlik o‘rtacha normasi**» - gaz yetkazib berishning bir oylik hajmini tegishli oy kunlari soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadigan gaz yetkazib berish hajmi.

3. GAZ SOTISH TARTIBI

3.1. «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi iste’molchilarning buyurtmanomalarini hisobga olgan holda kelgusi yilga respublika bo‘yicha gaz balansini tuzadi va uni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadi. (O‘zR VM 28.02.2003 y. 112-son Qarori taxriridagi xat boshi)

Kelgusi yilga respublika bo‘yicha gaz balansi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tasdiqlash uchun belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qaror taxriridagi xat boshi)

3.2. Kelgusi yilga respublika bo‘yicha tasdiqlangan gaz balansiga muvofiq «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi mintaqalar bo‘yicha iste’molchilarga gaz yetkazib berishning yillik va choraklik hajmlarini taqsimlaydi hamda gaz yetkazib berishning belgilangan hajmlarini gaz yetkazib beruvchilar, xududiy gaz ta’minoti korxonalari va fond saqlovchi tashkilotlarga yetkazadi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

3.3. Fond saqlovchilar 10 kun ichida gaz yetkazib berishning ajratilgan hajmlarini gazda foydalanish huquqiga ega bo‘lgan o‘zlariga qarashli korxonalar va tashkilotlar bo‘yicha taqsimlaydilar hamda raznaryadkani gaz uzatish tashkilotlariga va xududiy gaz ta’minoti korxonalariga yuboradilar (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

3.4. Quyidagi iste’molchilar gaz yetkazib berishda ustunlikka ega bo‘ladilar:

- aholi;

- sog‘liqni saqlash va xalq ta’limi korxonalari, shuningdek bug‘qozonlar – issiqlik energiyasiga ehtiyojni ta’minlaydigan hajmlarda;

- «O‘zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 21 sentyabrdagi 439-son qaroriga 4-ilovaga muvofiq korxonalari; (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

- gaz uchun haq to‘lash bo‘yicha qarzi bo‘lmagan va joriy (shartnomaviy) to‘lovlar bo‘yicha oldindan haqini to‘lash shartlari bilan shartnoma tuzganlar.

4. ISTE’MOLCHILARGA GAZ YETKAZIB BERISH

4.1. Yoqilg‘i (xom ashyo) sifatida tabiiy gazdan foydalanish (korxonani gaz bilan ta’minlash tizimiga ulash) uchun iste’molchi (aholi bundan mustasno) Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 2 dekabrdagi 587-son qaroriga muvofiq tartibda beriladigan ruxsatnoma (gazdan foydalanishning yoqilg‘i rejimi)ga ega bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy soha ob’ektlari hamda kichik va o‘rta biznes su’ektlariga (ipak qurti boqish va xususiy uylar xovlisidagi issiqxonalar hamda ovqat tayyorlash uchun) gazdan foydalanish uchun ruxsatnoma tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlari va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan mintaqa uchun belgilangan limitlar doirasida beriladi. (O‘zR VM 20.03.2002 y. 90-son Qarori tahriridagi xat boshi)

O‘zR VM 20.03.2002 y. 90-son Qaroriga muvofiq ikkinchi xat uchinchi xat boshi deb hisoblansin

Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tabiiy gazdan yoqilg‘i sifatida foydalanish uchun berilgan ruxsatnoma tegishli ravishda yangidan qurilayotgan, kengaytirilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan va faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarish ob’ektlarini yoki ijtimoiy soxa ob’ektlari hamda kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini (ipak qarti boqish va xususiy uylar hovlisidagi issiqxonalar hamda ovqat tayyorlash uchun) gaz bilan ta’minlashni loyihalash uchun asos hisoblanadi. (O‘zR VM 20.03.2002 y. 90-son Qarori taxriridagi xat boshi)

4.2. Gazdan foydalanish (korxonani gaz bilan ta’minlash tizimiga ulash) uchun ruxsatnoma olinguniga qadar yuridik shaxslar, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan shaxslar gaz tarmoqlari egalari bilan taqdim etilgan hisob-kitoblarga muvofiq ularga tabiiy gaz yetkazib berishning texnik imkoniyatini kelishib oladilar.

Gaz tarmoqlari egalaridan olingan ijobiy xulosa zarur hisob-kitoblar bilan birga «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasiga yuboriladi, u ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlarni olishi bilan, tabiiy gaz zaxiralaridan kelib chiqqan holda, yuridik shaxslarni va yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan; shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni gaz bilan ta’minlashning imkoniyat va shartlarini ko‘rib chiqadi va imkoniyati bo‘lgan taqdirda o‘z takliflarini tabiiy gazdan (yoqilg‘i rejimidan) foydalanish huquqini olishga ruxsatnoma berish uchun Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

4.3. «O‘ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan iste’molchilarga gaz:

«O‘ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyasining magistral gaz quvurlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulangan iste’molchilarga - to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha gaz quvurlarining bo‘linish chegarasida o‘rnatilgan gaz hisoblash priborlari bo‘yicha; (O‘zR VM 20.03.2002 y. 90-son Qarori taxriridagi xat boshi)

O‘zR VM 20.03.2002 y. 90-son Qaroriga muvofiq 4.3-bandning uchinchi xat boshisi chiqarib tashlangan

«O‘ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyasining magistral gaz quvurlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanmaydigan iste’molchilarga – O‘zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligining tabiiy gaz uzatuvchi xo‘jalik hisobidagi «Boshkommungaz» bosh boshqarmasining gaz tarmoqlari orqali, iste’molchilar, «O‘ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyasi va xo‘jalik hisobidagi «Boshkommungaz» bosh boshqarmasining gaz sotuvchi tashkilotlari o‘rtasidagi uch tomonlama shartnomalar asosida;

xududiy gaz ta’minoti korxonalariga magistral gaz quvurlari va tarmoqlarining bo‘linish chegarasida xo‘jalik hisobidagi gaz sarfini hisoblash priborlari bo‘yicha uni keyinchalik «O‘ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyasining magistral gaz tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan iste’molchilarga hamda chakana iste’molchilarga (aholiga) sotish uchun yetkazib beriladi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang).

4.4. Gaz yetkazib berishning barcha shartlari shartnomalarda nazarda tutiladi.

4.5. Respublika mintaqalari bo‘yicha gaz yetkazib berishning oylik hajmlari ajratilgan limitlarni hisobga olgan holda gaz uzatish tizimining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib gaz uzatish tashkiloti bilan kelishgan holda xududiy gaz ta’minoti korxonasi tomonidan belgilanadi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

4.6. Fond saqlovchilarning buyurtnomalariga ko‘ra «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi xududiy gaz ta’minoti korxonasi bilan kelishgan holda bir tarmoq iste’molchilari o‘rtasida gaz yetkazib berish hajmlari qayta taqsimlanishiga ruxsat etadi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

4.7. Gaz yetkazib beruvchi, gaz uzatish tashkiloti va xududiy gaz ta’minoti korxonalari gaz yetkazib berishga, iste’molchi esa o‘rtacha sutkalik me’yorlar doirasida oy davomida bir maromda, iste’molchining sutkalik me’yorlar doirasida oy davomida bir maromda, iste’molchining sutkalik me’yoridan voz kechish zarurati bo‘lgan hollarda – tomonlar o‘rtasidagi dispetcherlik jadvallari bo‘yicha gaz olishga majburdir. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

4.8. Xududiy gaz ta’minoti korxonalari va iste’molchilar tomonidan gaz uzatish tashkiloti bilan dastlabki kelishuvsiz kelishilgan sutkalik hajmlardan ortiq gaz olinganda, harorat rejimi bo‘yicha ishlaydigan isitish bug‘qozonlari, «O‘zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 21 sentyabrdagi 439-son qaroriga 4-ilovaga muvofiq korxonalari va aholi bundan mustasno: (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

- isitish mavsumida umuman hisob-kitob oyida gazning ortiqcha sarflanishiga yo‘l qo‘yilishi yoki yo‘l qo‘yilmasligidan qat’i nazar, gazning har sutkalik ortiqcha sarflangan hajmi uchun oshirilgan 6,0 koeffitsiyent bilan;

- isitilmaydigan mavsumda umuman hisob-kitob oyida ortiqcha sarflangan gaz uchun oshirilgan 6,0 koeffitsiyent bilan haq to‘lanadi.

4.9. Kommunal-maishiy iste’molchilar tomonidan, harorat rejimi bo‘yicha ishlaydigan isitish bug‘qozonlaridan tashqari, gaz uzatish tashkilotlari va xududiy gaz ta’minoti korxonalari bilan dastlabki kelishuvsiz kelishilgan oylik hajmlaridan ortiqcha sarflangan gaz uchun oshirilgan 6,0 koeffitsiyent bilan haq to‘lanishiga olib keladi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

Xududiy gaz ta’minoti korxonalari ruxsatisiz isitilmaydigan mavsumda gazdan isitish uchun foydalanayotgan sanoat iste’molchilari va kommunal-maishiy iste’molchilar sarflangan jami gaz hajmi uchun ularga oshirilgan 6,0 koeffitsiyent bilan haq to‘laydilar. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

4.10. Xududiy gaz ta’minoti korxonalari gaz taqsimlash stansiyasidan chiqish joyida gaz bosimini shartnomada nazarda tutilgan miqdorda saqlab turadi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

4.11. Sovuq tushgan davrda aholini va kommunal-maishiy iste’molchilarni gaz bilan uzluksiz ta’minlash uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan «O‘zgazneftnazorat» inspeksiyasi, gaz yetkazib beruvchilar, gaz uzatish tashkiloti va xududiy gaz ta’minoti korxonasi hamda iste’molchilar ishtirokida korxonalarni yoqilg‘ining zaxira turlariga o‘tkazish jadvallari tuziladi, jadvallar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

Tasdiqlangan jadvallar barcha manfaatdor tashkilotlarga jo‘natiladi. Jadvallar gaz yetkazib berishning rejalashtirilgan hajmlari aholi va kommunal-maishiy iste’molchilarning me’yoriy gaz iste’molchini ta’minlamagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ruxsati bilan hududiy gaz ta’minoti korxonasi tomonidan amalga kiritiladi. Jadvalga kiritilgan korxonalar va tashkilotlar yoqilg‘ining kamaymaydigan zaxirasiga ega bo‘lishi va sovuq tushgan davrda undan foydalanishga o‘tishi kerak. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

4.12. Isitish mavsumi boshlanganda mavsumiy iste’molchilar gaz ta’minoti tizimidan uzib qo‘yiladi.

4.13. Xududiy gaz ta’minoti korxonasi taqdimnomasiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari iste’molchilarga gaz bilan ta’minlash jadvalini va avariya paytida magistral gaz quvurlarining texnologik ish tartibi buzilgan taqdirda ularni gaz tarmoqlaridan qisman yoki to‘liq uzish navbatini tasdiqlaydilar. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

Tasdiqlangan jadvallar barcha manfaatdor tashkilotlarga jo‘natiladi va xududiy gaz ta’minoti korxonalari tomonidan amalga kiritiladi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

4.14. Gaz qazib olish, uni qayta ishlash, uzatish va iste’mol qilishning yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olgan holda, «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasining gaz qazib olish, uzatish, gaz yetkazib berish va iste’mol qilish tartibi to‘g‘risidagi ko‘rsatmalari gaz yetkazib beruvchilar, gaz uzatish tashkiloti va xududiy gaz ta’minoti korxonasi tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

4.15. Gaz yetkazib beruvchilar, gaz ta’minoti tashkiloti, xududiy gaz ta’minoti korxonasi va iste’molchilar gaz berilganda gaz konlari, gazni qayta ishlovchi zavodlar, magistral gaz quvurlari, shuningdek turar joylarda, aholi yashash punktlarida va korxonalarda asbob-uskunalar va gaz tarmoqlarining texnik xavfsizligi va texnik foydalanish qoidalariga qat’iy rioya qilishlari shart. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

5. GAZ SARFINI HISOBGA OLISH VA GAZ UCHUN HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

5.1. Gazning hisobga olmasdan yetkazib berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5.2. Gaz yetkazib beruvchi (gaz uzatish tashkiloti) tomonidan hududiy gaz ta’minoti korxonasiga va iste’molchiga beriladigan gaz miqdori iste’molchining hisobga olish priborlari bo‘yicha aniqlanadi, ularda hisobga olish priborlari, bo‘lmagan taqdimda esa, qoidaga ko‘ra gaz tarmoqlarining bo‘linishi chegarasida o‘rnatilgan gaz yetkazib beruvchi (gaz uzatish tashkiloti)ning nazorat-o‘lchov priborlari bo‘yicha aniqlanadi va ikki tomonlama imzolangan hujjat bilan rasmiylashtiriladi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

5.3. Iste’molchidagi asosiy gazni hisobga olish priborlari nosoz bo‘lganda va ular gaz yetkazib beruvchida mavjud bo‘lmaganda xududiy gaz ta’minoti korxonasi tomonidan yetkazib berilgan gaz miqdori plombalangan uskunalarning loyihadagi quvvati va gaz sarfini olish priborlari: nosoz bo‘lgan vaqtda korxona ishlagan soatlar yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa usul bilan aniqlanadi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

5.4. Aholi foydalanadigan gaz hajmi aholi xonadonlarida o‘rnatilgan hisobga olish priborlari bo‘yicha, ular bo‘lmaganda – tasdiqlangan normalar bo‘yicha aniqlanadi.

5.5. Gaz sarfini hisobga olish priborlarini o‘rnatish, ishlatish va tekshirish amaldagi normalar va qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

5.6. Gaz sarfini hisobga olish priborlarining texnik holati va ularning tekshirilishi uchun balansida ushbu priborlar bo‘lgan tashkilotlar va korxonalar rahbarlari javob beradilar.

5.7. Shartnoma tomonlaridan har biri ikkinchi tomon vakiliga iste’molchilar tomonidan gazdan foydalanishni hisobga olish priborlarini va hujjatlarini tekshirish imkoniyatini yaratishga majburdir.

5.8. Gazning ulgurji narxlarini davlat tomonidan tartibga solish va ularni qo‘llash amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.9. Tomonlar berilgan – qabul qilingan gaz to‘g‘risida har oyda, oyning 3-kunidan kechikmay dalolatnoma tuzadilar.

Berilgan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo‘lgan tomon bu haqda o‘zining alohida fikrini dalolatnomada aks ettirish yo‘li bilan ikkinchi tomonga ma’lum qiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda kelishmovchilik O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudida ko‘rib chiqiladi.

5.10. Iste’molchi foydalangan gaz uchun hisob-kitoblar tartibda, to‘lov muddati: va shakllari gaz yetkazib berish shartnomasida belgilanadi.

6. GAZ YETKAZIB BERUVCHILARNING, GAZ UZATISH TASHKILOTI VA XUDUDIY GAZ TA’MINOTI KORXONALARI HAMDA ISTE’MOLCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

(O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi bo‘lim nomi)

6.1. Iste’molchilarning gaz qurilmalari qoniqarsiz, avariya vaziyatini keltiruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi xodim hamda aholi hayoti uchun xavfli holatda bo‘lgan taqdirda gaz yetkazib beruvchi, gazdan foydalanish xavfsizligini nazorat qilish organlari taqdimnomasiga ko‘ra, iste’molchini xabardor qilgan holda, gaz yetkazib berishni zudlik bilan to‘xtatib qo‘yishga majburdir.

6.2. Gaz uzatish tashkiloti va xududiy gaz ta’minoti korxonalari: (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi xat boshi)

gaz yetkazib beruvchi tomonidan ko‘rsatilgan vaqt mobaynida fors-major holatlari bo‘lganda;

etkazib berilgan gaz uchun haq to‘lash bo‘yicha qarz mavjud bo‘lganda;

gazdan foydalanishdagi kamchiliklar vakolatli nazorat organlari belgilagan muddatlarda bartaraf etilmaganda gaz yetkazib berishni qisman kamaytirish yoki batamom to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega.

6.3. Gaz yetkazib beruvchi gazning sifati me’yoriy talablarga muvofiq bo‘lishini ta’minlashga majburdir.

6.4. Gazga hid qo‘shish gaz uzatuvchi tashkilotlar tomonidan, gaz hidi intensivligini nazorat qilish esa gaz tarmoqlari egalari tomonidan, belgilangan tartibda amalga oshiriladi. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

6.5. Gaz yetkazib beruvchi, gaz uzatish tashkiloti, xududiy gaz ta’minoti korxonasi va iste’molchi gaz bilan ta’minlash ob’eklarini ishlatishning texnik holati hamda tezkor-dispetcherlik intizomiga rioya qilinishi uchun javob beradilar. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

6.6. Gaz yetkazib beruvchi, gaz uzatish tashkiloti, xududiy gaz ta’minoti korxonasi va iste’molchi ob’ektlarda gaz yetkazib berishni yoki qabul qilib olishni kamaytiruvchi avariyalar va nosozliklar to‘g‘risida gaz yetkazib berish shartnomalarida belgilangan tartibda bir-birlarini xabardor qilishga majburdirlar. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori taxriridagi band)

6.7. Xududiy gaz ta’minoti korxonasi, gaz uzatish tashkiloti talabiga binoan, gazdan foydalanish tartibi hamda iste’molchilarga yetkazib berilgan gaz uchun to‘lovlar xolati to‘g‘risida tezkor axborot taqdim etadilar. (O‘zR VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori tahriridagi band)

7. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE’MOLCHILARIGA GAZ YETKAZIB BERISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

7.1. Gaz yetkazib beruvchi, gaz uzatish tashkiloti, xududiy gaz ta’minoti korxonasi va iste’molchi ushbu Qoidalarni buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar. (O‘R VM 08.01.2004 y. 9-son Qarori tahriridagi band)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **I.A. Karimov**